

821.512

p 36.

Grigoriy Petrov


Og nilufarlar yurtida



"Bir millatning uyg'onishi..."

Grigoriy Petrov

OQ NILUFARLAR YURTIDA



“Factor press” nashriyoti

Toshkent – 2021

UDK 821.161.1-31

KBK 83.3(2Poc)

P 36

Petrov, Grigoriy

Oq nilufarlar yurtida [Matn] / G. Petrov .-Toshkent:
«Factor press»,2021.-192 b.

Qo'lingizdagi ushbu kitobda bir millat uyg'onishiga guvoh bo'lgan Grigoriy Petrovning kelajak haqida kuzatuvlari va kuzatgan voqealari mavjud. O'z hayotini Rossiya, Bolgariya, Yugoslaviya va Fransiya kabi mamlakatlarda o'tkazgan yozuvchi olti yuz yil davomida Shvetsiya-ning, so'ngra Rossiyaning mustamlakasi ostida kambag'al va mazlum hayot kechirgan Finlandiyaga uyushtirgan ko'plab sayohatlarida ko'rgan fin xalqining milliy uyg'onishini bu kitobda keltirib o'tgan.

Milliy uyg'onishga olib boradigan yo'l yuksak axloq, mehnatsevarlik va ishlab chiqarish orqali o'tadi va bu faqat poydevori mustahkam bir ta'lim tizimi bilan qilinishi mumkin. Afsuski, ta'lim tizimini mustahkam poydevor asosida qura olmaydigan jamiyatlarning taqdiri halokatlidir. Mazkur kitob ta'lim tizimimizning takomillashishiga, mamlakatimizning ilmiy-texnikaviy yuksalishiga katta hissa bo'lib qo'shilishiga ishonamiz!

Inglizchadan
Niyat Sultonmurodov
tarjimasi

UDK 821.161.1-31

KBK 83.3(2Poc)

ISBN 978-9943-7254-3-0



© "FACTOR PRESS" NASHRIYOTI

© GRIGORIY PETROV

TARJIMONDAN

Xalqlarning taqdirini belgilaydigan, ularga tinchlik va farovonlik sari olg'a borish uchun imkon beradigan voqea "milliy uyg'onish" deb nomlanadi. Milliy uyg'onishga olib boradigan yo'l yuksak axloq, mehnatsevarlik va ishlab chiqarish orqali o'tadi va bu faqat poydevori mustahkam bir ta'lim tizimi bilan qilinishi mumkin. Afsuski, ta'lim tizimini mustahkam poydevor asosida qura olmaydigan jamiyatlarning taqdiri halokatlidir. Odatda, ishlamasdan yoki ishlab chiqarmasdan farovon hayot kechirish usullarini qidiradigan (va topadigan) jamiyatlar o'zlarining erkinliklari va mustaqilliklaridan mahrum bo'lishadi.

Sizning qo'lingizdagi kitobda bir millat uyg'onishiga guvoh bo'lgan Grigoriy Petrovning kelajak haqida kuzatuvlari va kuzatgan voqealari mavjud. O'z hayotini Rossiya, Bolgariya, Yugoslaviya va Fransiya kabi mamlakatlarda o'tkazgan yozuvchi olti yuz yil davomida Shvetsiyaning, so'ngra Rossiyaning mustamlakasi ostida kambag'al va mazlum hayot kechirgan Finlandiyaga uyushtirgan ko'plab sayohatlarida ko'rgan fin xalqining milliy uyg'onishini bu kitobda keltirib o'tgan.

1917-yilda o'z mustaqilligini e'lon qilgan Finlandiya XVF va BMT tadqiqotlari bo'yicha dunyodagi farovonlik darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlar ro'yxatida birinchi o'rinda turadi. Fin xalqi milliy uyg'onishga ta'lim orqali erishdi. Bugungi kunda Finlandiyaning ta'lim tizimi butun dunyoda o'rnak qilib ko'rsatiladi.

Kitob 1920-yillarda yozilgan. Kitobni tarjima qilayotganda ko'rdimki, asarda o'tgan asr boshidagi Finlandiya tasvirlangan edi. Keyinchalik esa bugungi kundagi Finlandiyaning taqdiri bilan qiziqdim. Siz o'quvchilar uchun kitobni ikki qismga ajratilgan holatda taqdim etishga qaror qildik. Birinchi qismda bugungi kundagi Finlandiyaning ma'lumotlari va tarjimonning ba'zi solishtiruvlari o'rin olgan. Ikkinchi qismda esa yozuvchi asari hech qanday o'zgartirishlarsiz tarjima asosida taqdim qilingan.

MUALLIF HAQIDA

Grigoriy Spiridonovich Petrov (1866-yil, Rossiya – 1925-yil, Parij) ruhoni, jurnalist, yozuvchi.

XX asrning boshlarida u Rossiyaning taniqli ruhoniylaridan, eng ko'p o'qilgan xalq yozuvchilaridan biri edi. O'z qarashlari uchun cherkovdan quvilganidan so'ng, u o'zini butunlay yozuvchilikka bag'ishladi; jurnalist va notiq sifatida ommaga ta'sir o'tkazishda davom etdi. Bolsheviklar inqilobi sodir bo'lganida mamlakatdan qochishga majbur bo'ldi. Yugoslaviya Qirolligida o'tkazgan so'nggi yillarida u ko'plab asarlar yozib, konferensiyalar qildi. Asarlari Sovet davrida vatani bo'lmish Rossiyada taqiqlangandi, ammo Bolgariyada va yangi tashkil etilgan Turkiya Respublikasida mashhur bo'lgan va o'sha davlatlarda ziyolilar inqilobiga ta'sir ko'rsatgan. Uning "Oq nilufarlar yurtida" kitobi turk tilida eng ko'p o'qiladigan xorijiy asarlardan biriga aylandi. U 1886-yilda diniy maktabni, 1891-yilda Peterburg dinshunoslik akademiyasini tugatdi va din xodimi sifatida ish boshladi. Cherkovdagi vazifasidan tashqari Mixaylov nomidagi harbiy maktabi, Aleksandrov litseyi, Sankt-Peterburgning texnika maktabi va turli xil litseylarda dars berdi. Notiq, jurnalist va o'qituvchi sifatida obro'-e'tibori oshib, ismi atrofga tarqalganidan so'ng, shoh oilasi uni shahzodalarni o'qitish uchun saroyga taklif qiladi. Ammo uning g'oyalari cherkov ma'murlarini bezovta qila boshlagach, 1903-yilda uning maktablardagi darslari undan

olib qo'yiladi va cherkovdagi lavozimidan ozod qilinadi. Shuningdek, u saroydagi ishidan ham ayrilishga majbur bo'ladi.

1907-yilda "zararli jurnalistik faoliyati tufayli" Peterburg yaqinidagi monastirga surgun qilingan yozuvchi, monastirda bo'lganligi sabab nomzod sifatida qatnashmasa-da, Rossiyaning Ikkinchi Dumasiga saylangan.

U 1908-yilda cherkov ma'muriyatiga yo'llagan mak-tubidagi tanqidlari tufayli cherkovdan chetlashtirildi. Unga qarshi qo'zg'atilgan sud ishi natijasida diniy lavozimidan ham chetlashtirildi, Peterburg va Moskvada 7 yil yashashi taqiqlandi hamda 20 yil muddat davomida davlat lavozim-larida ishlashi taqiqlab qo'yildi.

Undan ruhoniy unvoni olinganidan keyin obro'si ya-na-da oshgan yozuvchi 1908-yildan boshlab Qrimda ya-shadi. Rossiyada va chet ellarda sayohat qilib, ko'plab konferensiyalar o'tkazdi. U chet elda borgan joylari orasi-da eng ko'p Finlandiyadan ta'sirlandi. Uning maqolalari har kuni "Rossiya ovozi" gazetasida chop etilardi. Kitoblari Bolqon va Yevropa mamlakatlarida tarjima qilinib, nashr etilgani sabab boshqa davlatlarda mashhurlikka erishdi.

Petrov Oktabr inqilobidan so'ng bolsheviklarni bezov-ta qiladigan qarashlari tufayli bosim ostida edi; u inqilobiy betartiblikda qarindoshlari va o'g'lidan ayrildi. 1920-yil-da yalangoyoq va pijama kiygan holda Qrimdan yo'lga chiqqan va ichida mamlakatdan qochayotgan Denikin armiyasi harbiylari bo'lgan oxirgi kemaga minishga ulgu-rib qolganligi sababli hayotini saqlab qolishga muvaffaq bo'ldi. Istanbuldan o'tgandan so'ng, qisqa vaqt Gelibolu-

da qoldi va keyin bir guruh rus muhojirlari bilan birga Yugoslaviya Qirolligiga ko'chib o'tdi. Yozuvchi Yugoslaviya qirolligi hukmdorining e'tiboriga tushdi va Belgrad Universitetiga professor lavozimiga tayinlandi. Hayotining oxirgi yillarida Universitetdagi ma'ruzalaridan tashqari, mamlakat bo'ylab sayohat qildi va uchrashuvlar o'tkazdi; U notiq va yozuvchi-jurnalist sifatida katta obro'ga ega bo'ldi.

1925-yilda sog'ligi yomonlashgan Petrov oshqozon saratoni tufayli davlat tomonidan Parijga operatsiya qilish uchun yuborilgan, ammo tuzala olmay 1925-yil 18-iyun kuni vafot etgan. Uning kuydirilgan jasadi xoki rafiqasi va qizi yashaydigan Noviy Sad qishlog'iga dafn etilgan. Keyinchalik uning qabri qizi tomonidan Myunxendagi Ostfriedhof qabristoniga o'tkazilgan.

Bolgariyada yashaydigan do'sti Bojkov tomonidan tashkil etilgan "Petrov madaniyat va ta'lim jamiyati" tufayli kitoblari bolgar tilida tarjima qilingan va nashr etilgan yozuvchi ushbu mamlakatda katta e'tiborni tortdi. Ayniqsa, uning 1925-yilda "Oq nilufarlar yurtida" (Finlandiya) deb nomlangan asari Bolgariyada nashr etilganda Bolgariya Ta'lim vazirligi tomonidan xalqqa tavsiya etildi va uning barcha asarlariga katta qiziqish uyg'ondi.

Petrov kitoblarining muvaffaqiyati Turkiyaga ko'chib borgan Bolgariya turklari orqali Turkiyaga ham yoyildi. 1928-yilda uning uchta kitobi bolgar tilidan turkchaga tarjima qilinib, nashr etildi. Ayniqsa, Ali Haydar Tanerning tarjimasini bilan nashr etilgan "Oq nilufarlar yurtida" nomli asari Turkiyadagi ziyolilar e'tiborini tortdi. Kitobdagi g'oya-

lar mamlakatda amalga oshirilishi kerak bo'lgan ta'lim va rivojlanish modeli sifatida qaraldi.

Yevropa Ittifoqi komissiyasining kengayishi uchun mas'ul bo'lgan Oli Rehn 2007-yil 5-iyul kuni Istanbulda "Turkiyaning Yevropa Ittifoqiga kirishida Finlandiyaning roli" nomli ma'ruzasining katta qismida "Oq nilufarlar yurtida" asari qahramonlari haqida gapiradi va shunday deydi:

– "Turkiya va Finlandiya o'rtasidagi siyosiy o'xshashlikdan tashqari, sizga bu ikki davlat o'rtasidagi muhim tarixiy aloqani eslatmoqchiman. Bu bog'liqlik Turkiya Respublikasi birinchi Prezidenti Mustafo Kamol Otaturkdan boshlangan. U Gregoriy Petrovning "Oq nilufarlar yurtida" mashhur kitobini Turkiya ta'lim muassasalarida majburiy o'qitiladigan kitob bo'lishini xohlar edi. Kitobda Finlandiyaning milliy taraqqiyoti va milliy mutafakkiri J.V.Snelman orqali ta'lim va fuqarolik jamiyatining ahamiyati tushuntirilgandi. Bundan tashqari, Otaturk Qish urushida Finlandiya mustaqilligining rahbari va G'arb demokratiyasining himoyachisi bo'lgan General Mannerxaymning muxlisi bo'lganligi ma'lum. 1956-yildan 1981-yilgacha juda uzoq vaqt davomida Finlandiya prezidenti bo'lgan Urxo Kekxonon yoshligida Otaturkning inqiloblari to'g'risida ko'p o'qir edi".

Kitobga so'zboshi yozgan D.Bojkov Finlandiya haqida shunday ma'lumot bergan:

– "Siz vokzalga tushsangiz, boshqa yo'lovchilar kabi bufetni qidirasiz. Hamma butun Yevropada bufet nima ekanligini biladi, u yerda hamma narsa uch-besh baravar

qimmatga sotiladi. Bilishim bo'yicha fin bufetlarida, xuddi, fin restorani singari hech narsa sotilmaydi. Bufetga stol tayyorlab qo'yiladi. Ovqatlar katta markaziy stolga qo'yiladi. Stolning bir tomonida har xil tovoq, qoshiq, pichoq, sanchqilar taxlanib turadi. Hamma narsa stolga ochiq holatda qo'yilgan. Hech kim tarqatmaydi. Ovqatlanishni istagan yo'lovchi xohlagan narsasini olib, o'z idishini to'ldiradi. To'ygunicha yeb-ichadi. Tushlik, kechki ovqat uchun bir yoki bir yarim markani kassaga to'laydi.

Viburgdagi mehmonxonada ikki haftacha qolgan bo'lsam-da, necha kecha uxlaganim, qachon ketishim, necha marta tushlik va kechki ovqatni yeganim haqida bilishmasdi. Hisob-kitobni o'zim qilishim va shunga muvofiq pul to'lashim kerak edi.

Tramvayga minsangiz, nazoratchi yo'q. Pulni qutiga solasiz, xohlagan joyingizga borishingiz mumkin”.

Finlandiyalik o'qituvchi buning sababini quyidagicha izohladi:

—“Rossiyada butun Yevropada bo'lgani kabi jamoatchilikka ishonch yo'qligi sababli chipta sotilsa, konduktorni tekshirish uchun nazoratchi qo'yilgan bo'lsa, unda u nazoratchilarni kim nazorat qiladi? Biz nazoratga emas, xalqqa, odamlarga ishonamiz...”

Peterburgda Finlandiya rasmiylari ishlaydigan xususiy fin stansiyasi mavjud. Ushbu stansiyadagi birinchi qadam-danoq g'ayrioddiy narsa eshitiladi. Rossiya tomonida Rossiya stansiyalari va kassalaridagi kabi axloqsizlik, tartibsizlik mavjud; qichqiriqlar va shovqinlar eshitiladi. Finlandiya tomoni esa toza, tartibli va sokin. Vagonlarda ham katta farq

bor! Biznikiga o'xshash Rossiya vagonlari tupuk, chang, har xil yozuvlar va ismlarga to'la. Doimo yo'lovchilar va nazoratchilar o'rtasida yoki shunchaki yo'lovchilar o'rtasida nizolar kelib chiqadi. Fin vagonlarida hamma o'z o'rnini biladi. Hech qanday kelishmovchilik chiqmaydi, hech kim vagonga tupurmaydi, baland ovoz bilan gapirmaydi, chekmaydi. Namuna olinadigan tozalik. Arzon uchinchi darajali uxlash vagonlari yaxshi jihozlangan va toza choyshab bilan qoplangan. Safarda sizni hech kim bezovta qilmaydi. Hech kim baland ovozda gapirib, sizni uyg'otmaydi. Finlandiyaliklar gapirishmaydi, pichirlaydilar... Minglab odamlar katta shaharlarda ko'chalarda yurishadi. Kimdir keladi va kimdir ketadi; ular yolg'iz yoki birga yurishadi; ular uchrashadilar, to'xtaydilar, gaplashadilar, ammo ovoz chiqmaydi. Olomonning ovozi eshitilmaydi. Bu Finlandiyada rus madaniyati yo'qligining birinchi ko'rsatkichidir. Finlandiyada politsiya va jandarmalar baqirishmaydi. Foytun haydovchilari odamlarga halaqit bermaydi; uchrashib qolgan do'stlar, o'zlaring fikrlari va his-tuyg'ularini tomoqlari qirilib qoladigan darajada baqirib gapirmaydilar. Finlandiyada odamlar mustaqil bo'lgani uchun, xohlagan paytda xohlagan joyda qo'shiq kuylashim mumkin, haqqim bor deb o'ylamaydi. Hatto, Fransiyada ham yozda ko'cha shovqinidan uxlash mumkin emas. "Botqoqliklar mamlakatida" odamlar ko'proq boshqalarning huquqlari va erkinliklari haqida qayg'uradilar. U yerlarda erkinlikning qiymati yuqoridir, lekin bu imkon qadar tezroq bahona topib boshqalarga noqulaylik tug'dirishingiz mumkinligini anglatmaydi".

SO‘ZLARI

Mamlakatda madaniyat xodimlari yo‘q edi. Xalqning aql-idroki uxlab yotgan edi. Jaholat va bilimsizlik kuchayib borardi. Aholi va qashshoqlik ham ortib borardi. Davlat qashshoqlashayotgandi. Axloqiy, intellektual va iqtisodiy jihatdan bankrotlikka qarab ketayotgan edi. Ammo ozgina o‘qigan va yozadigan mamlakat aholisi, o‘zlarining rivojlanihidan umidvor bo‘lgan odamlar nima qilayotgan edilar? Ular ahmoqona, ammo qiziqarli uydirmalarni o‘qib mast bo‘lib yurishgan edi.

Hech narsa ortiqcha bo‘lmasligi kerak... Hech narsa bir tomonlama, bir ko‘zli bo‘lmasligi kerak... Hammasi me‘yorida, o‘z vaqtida va joyida bajarilishi kerak.

Inson yer yuzidagi eng qiymatli jonzotdir. U ilohiy yaratilish ijodining tojidir. Bu dunyoda hamma narsa insonlar uchundir. San‘at, ilm-fan, texnika, butun bu go‘zalliklar va boyliklar odamlarni yana-da xavfsizroq, tinchroq va baxtliroq qilish uchun xizmat qilishi kerak. Bular odamlarni yana-da yorqinroq kunlarga olib borishi kerak.

Davlatlarning kuchi va zaifligi, xalqlarning taraqqiyoti va tanazzulga uchrashi faqatgina davlat arboblari ahil bo‘lishlari va ma‘muriy qobiliyatligi yoki qobiliyatsizligi bilan bog‘liq. Hukmdorlar yaxshi yoki yomon, qahramon yoki zolim bo‘lishidan qat‘iy nazar, ular o‘z millatining aksidir. Ular millat ruhining ayni nusxalaridir. Ular xalqning ichidan tug‘ilganlar. Bir millat qanday bo‘lsa, davlat odamlari ham ular kabidir. Shuning uchun ham eskidan beri

“Har bir millat o‘zi loyiq bo‘lgan boshqaruvga va davlat boshqaruvchilariga ega bo‘ladi” deyiladi.

Janubiy mamlakatlarda marjon orollari mavjud. Marjonlar toshlardan parchalangan mayda bo‘laklardir. Bu mayda bo‘laklar ko‘rinmas holda o‘sib boradi va oxir-oqibat odamlar yashaydigan ulkan orollarga aylanadi. Boshqa tomondan, janubiy mamlakatlarda odamlarni falaj qiladigan mayda chumolilar yashaydi. Bu chumolilar uylarni va mebellarni kemiradi. Odamlarni uylaridan qochishga majbur qiladilar. Mamlakatimiz uchun qanday kuch sarflaymiz – Yaratuvchimi yoki Yiqituvchimi?

Vaqt o‘tgani sari avlodlar o‘zgarib boryapti. Har bir avlod o‘zi bilan birga yangi tushunchalar, yangi ehtiyojlar va talablarni hosil qilyapti. Yangi avlodga eskirgan, zamon talablariga javob bermaydigan boshqaruv shakllari va qonunlarini tatbiq etilishi mumkin emas.

Agar siz yoshlik ruhini ishlov berilmagan e‘tiborsiz dalaga o‘xshab tashlab qo‘ysangiz, u yerda begona o‘tlar va tikanlar o‘sib chiqadi. Ota-onalar ham farzandlarining yuragi va miyasini ishlatmasdan o‘z holicha qoldirsalar, u yerlarda istalmagan odatlar va xatti-harakatlar paydo bo‘ladi.

Ma‘rifatli bo‘lish modaga mos kiyimlarini kiyish yoki dazmollangan yoqalar va zamonaviy shlyapalar kiyish degani emas. Xalq sizga yaxshi maosh olish uchun yoki oqshomlar o‘qish deb nomlangan joylarda karta va domino o‘ynashingiz uchun o‘qitib tarbiya bermadi. O‘quvchilarning barchasi milliy ongni rivojlantirish, milliy vijdonni uyg‘otish va milliy irodani mustahkamlashga majburdirlar.

Tarixda shunaqa millatlar bo'lganki, erkakliklari bilan, haybatlari bilan ko'zni quvnatardi. Ammo ular oxir-oqibat umumiy axloqsizlikning qurboniga aylanishdi. Men Sizlarni ommaviy ravishda chirishdan ko'ra, bir intellektual uyg'onishga da'vat qilaman! Kitobimning har bo'limining, har bir sahifasining oxirida men o'quvchilarimga shuni eslatib qo'ymoqchiman: Siz qachon hayotdagi yaratuvchiligingizni boshlaysiz? Ey Ayol yoki Erkak, siz qachon hayotga bo'lgan qarzingizni to'laysiz?

JOHAN VILHELM SNELMAN

1806-yil 12-mayda tug'ilgan, 1881-yil 4-iyulda vafot etgan edi. Finlandiyalik faylasuf, yozuvchi va diplomat. Snelman Shvetsiyaning Stokholm shahrida tug'ildi. Otasi Kristian Xenrik Snelman kema kapitani, onasi esa uy bekasi edi. 1808 – 1809-yillarda Rossiyaning Finlandiyaga bosqini va yarim mustaqil Finlandiya gersogligi tashkil etilishi bilan uning oilasi 1813-yilda Finlandiyaning Kokkola shahriga ko'chib o'tdi. Uning onasi Mariya Magdalena Snelman ushbu voqeadan bir yil o'tib vafot etdi. Hegel akademik o'qishlarining natijasida 1835-yilda U Helsinki Universitetida dars berishga taklif qilindi. Universitetdagi ishlari natijasida u o'z avlodining mashhur olimlaridan Lönnrot va Runeberglar bilan bir qatorda o'z o'rnini egaladi. Qisqa vaqt ichida Snelmanning ma'ruzalari universitetda ommalashib ketdi, ammo 1838-yilda Universitetlar davlat nazorati ostiga olinganida davlat hokimiyatiga qarshi bo'lgan qarashlar bostirildi va Snelmanning darslari vaqtincha to'xtatildi. Ushbu voqea natijasida Snelman Finlandiyani o'z qarori bilan tark etdi va 1839 – 1842-yillarda Shvetsiya va Germaniyada yashadi. U Helsinkiga qaytgach, uning mashhurligi yana-da oshdi, ammo siyosiy sabablarga ko'ra u universitetga qaytolmadi. Buning o'rniga u Kuopioda bir maktabda direktor bo'lib ishladi. Shu bilan birga, u ba'zi siyosiy maqolalarini nashr ettirdi. Shved tilida nashr etilgan "Saima" gazetasida ta'limning

shved tilidan fin tiliga o'zgartirilishini va fin madaniyatini har sohada qo'llab-quvvatlashini yoqlab chiqdi. "Saima" gazetasi hukumat tomonidan 1846-yilda yopildi. Uning 1848 – 1849-yillarda Helsinki Universitetiga professorlik qilish to'g'risidagi arizalari rad etiladi. U Shvetsiyaga ko'chib o'tishni o'ylagan bo'lsa-da, 1855-yilda Kuopioni tark etib, Helsinkiga qaytib keldi. Snelman 1855-yilda podsho Nikolay vafot etguniga qadar og'ir iqtisodiy sharoitlarda oilasini boqishga harakat qildi. Faqatgina podsho vafot etganidan so'ng, u yana o'z yozganlarini nashr ettirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Nihoyat, 1856-yilda Helsinki universitetining professori etib tayinlanadi. 1863-yilda esa Finlandiya Parlamentiga senator bo'lib saylandi. U moliya vazirligiga qadar ko'tariladi va 1865-yilda Finlandiyaning o'z valyutasi Markani muomalaga kiritadi. 1868-yilda haddan tashqari siyosiy tartibsizlikni keltirib chiqarganligi sababli iste'foga chiqishga majburlandi. Bu hodisalarga qaramay, u 1866-yilda Parlamentning Faxriy Kengashi a'zoligiga kiritiladi.

Snelman qolgan umrini ham siyosatda o'tkazdi. Bugungi kunda ham milliy harakatlarda uning izlari va g'oyalari kuchli his qilish mumkin. Hayoti haqida hikoya qilgan Grigoriy Petrovning qalamiga mansub "Oq nilufarlar yurtida" kitobi Bolgariyada ham, Turkiyada ham juda ko'plab o'quvchilarga yoqdi, Mustafo Kamol Otaturkning buyrug'i bilan barcha harbiy maktablarda o'qitilishi shart bo'lgan kitob holiga keltirilgandi. Finlandiyada har yili 12-may "Snelman kuni" nomi bilan nishonlanadi.

FINLANDIYA

Finlandiya geografiyasi XIII asrdan e'tiboran Shvetsiya qirolligining qiziqishini asta-sekin o'ziga tortdi; Finlandiya o'sha paytda muhim kuch sifatida paydo bo'la boshlagan Rossiya (Novgorod knyazligi)ga qarshi ta'sir o'tkazish uchun kurashda birinchi o'rinda turardi. Finlandiya yerlarini egallab olish uchun Shvetsiya tomonidan davomiy uyushtirilgan "salib yurishlari", XIII asrning oxiriga kelib ushbu geografiya keyingi 550 yil davomida Shvetsiya hukmronligi ostida qolishi bilan yakunlandi. Boshqa tomondan, Finlandiya hududi 1323-yilda Shvetsiya Qirolligi va Novgorod knyazligi o'rtasida imzolangan Pahkinasaari kelishuvida keltirilgan; ushbu shartnomaga ko'ra sharqdagi ozgina qismidan tashqari Finlandiya rasman Shvetsiya qirollik mulkiga aylandi. Shu tarzda Skandinaviya madaniyati va boshqaruv uslubiga bo'ysungan Finlandiya 1581-yilda Shvetsiya toji ostidagi Buyuk Qirollik deb e'lon qilindi. Biroq o'sha davrda buyuk qudratga ega bo'lgan Shvetsiya va Rossiya o'rtasidagi kurash har doim Finlandiya zaminlarida asosiy mavzu bo'lgan va 1808-1809-yillarda bo'lib o'tgan Finlandiya urushi natijasida Finlandiya "Buyuk knyazlik" nomi bilan Rossiya podsholigiga qo'shilib ketgan. Rossiya podshosi "Buyuk knyaz" bo'lgan ushbu vaqtda, Finlandiya general-gubernatorlar tomonidan avtonom ravishda boshqarila boshlandi. Bolsheviklar inqilobidan keyin Finlandiya 1917-yil 6-dekabrda (Petrograd Sovetining oldindan ma'qullashi bilan) o'z mustaqilligini e'lon qildi.

II jahon urushi davrida Stalinning bosimiga bo'ysunmagan finlar SSSR bilan ikki marta jang qildilar. Garchi Finlandiya ushbu urushlarda mag'lubiyatga uchrab, hududining 12 foizini sharqiy SSSRga qoldirgan va tovon puli to'lagan bo'lsa ham, Boltiqbo'yi mamlakatlari singari sovetlar tomonidan bosib olinmagan. Ikkinchi Jahon urushidan keyingi davrda Sharqiy va G'arbiy bloklar o'rtasida betaraflik siyosatini olib borgan Finlandiya, Sovet Ittifoqidan qo'rqqanligi sababli G'arb dunyosi bilan munosabatlarini cheklab turdi. 1955-yilda BMT va Shimoliy Kengashga a'zo bo'lgan Finlandiya Sovuq Urushning so'nggi davrlaridan boshlab G'arbiy Dunyo bilan aloqalarini tezlashtirdi va 1986-yilda EFTA, 1989-yilda Yevropa Kengashi va 1995-yilda Yevropa Ittifoqiga a'zo bo'ldi. Finlandiya Yevropa Ittifoqiga qo'shilib, harbiy betaraflik siyosatini davom ettirish bilan bir qatorda, Yevropa Ittifoqining xavfsizlik va mudofaa siyosatidan tashqarida qolmaslikka harakat qiladi; Shuningdek, Tinchlik uchun Hamkorlik Dasturi doirasida NATO bilan hamkorlikni yaxshilashga intiladi. 1975-yilda imzolangan Helsinki yakuniy akti Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkilotini (EXHT) tashkil etish jarayonini boshlagandi.

Tashqi siyosat sohasida inson huquqlari va demokratlashtirish masalalarini doimiy ravishda kun tartibiga olib chiqish bilan tanilgan Finlandiya so'nggi yillarda, 2006-yil ikkinchi yarmida qabul qilgan Yevropa Ittifoqiga raislik va 2008-yilda EXHTning raisligi bilan tashqi siyosat sohasida yana-da sezilarli mavqega ega bo'ldi. Shuningdek, Finlandiyaning Sobiq Prezidenti (1994-2000) Martti Ahtisaari 2008-yil Nobel tinchlik mukofotini olgan.

MUHAMMAD AL-YOZAFZIY NOMIDA
TUSHIRET AXROEOTI
TASHKILOTI UNIVERSITETI
413571
AXROEOT-RESURS MARKAZI 47

HELSINKI

1550-yilda Vantaa daryosining qirg'og'ida Shvetsiya qi-
roli Gustaf Vasa tomonidan qurilgan Helsinki shahri Tallin
bilan barobar Boltiq dengizidagi tijorat markaziga aylan-
di. 1600-yillarning o'rtalarida bugungi kundagi Helsinki
shahri qurila boshlandi. 1748-yilda Shvetsiya Qirolligi Hel-
sinkini tobora ko'payib borayotgan rus hujumlaridan yax-
shi himoya qilish maqsadida orolda qurilgan dengiz qal'asi
sifatida Suomenlinnani qurdi. 1809-yilda ruslar Finlandi-
yani egallab olishdi va 1812-yilda Helsinki Podsho knyaz-
ligining poytaxti deb e'lon qilishdi.

1917-yilda Finlandiya o'z mustaqilligini e'lon qilgandan
so'ng Helsinki poytaxt sifatida o'z ahamiyatini oshirdi va
an'anaviy, shu bilan birga, funksional yo'nalish bilan qayta
qurila boshladi. 1952-yilda urush ta'siridan omon qolgan
Helsinki shahri katta muvaffaqiyatlarga erishdi va yozgi
Olimpiya o'yinlarini o'tkazdi. O'zining jadal rivojlanishini
davom ettirib, Helsinki muhim ahamiyatga ega bo'ldi va
1975-yilda bo'lib o'tgan Yevropa Xavfsizlik va Hamkorlik
yig'ilishi kabi yirik uchrashuvlar va sammitlarga mezbonlik
qildi.

60.000 atrofida aholisi bo'lgan Helsinki Yevropaning
eng yashil va toza poytaxtlaridan biridir. Garchi Helsinki
juda qadimiy o'tmishga ega bo'lmasa-da, hatto XVIII asr-
da qurilgan binolar ham qattiq himoya qilinib, hozirgi kun-
gacha saqlanib qolgan. Shahar neo-klassik va zamonaviy
me'morchilik bilan uyg'unlashgan binolari bilan e'tiborni

tortmoqda. Mashhur nemis me'mori Karl Lyudvig Engel tomonidan 1822 – 1852-yillarda loyihalashtirilgan va qurilgan, Helsinki ramzlaridan biri bo'lmish, oldida 1809-yilda Shvetsiya hukmronligini tugatgan Rossiya podshosi Aleksandr II ning haykali o'rnatilgan va odamlar orasida "Oq cherkov" nomi bilan mashhur bo'lgan Tuomio Katedrali ko'rishga arziydigan bir majmuadir. Shahar markazining eng qadimgi qismi sifatida qaraladigan Senat maydonida (Senaatintori) joylashgan ushbu katedraldan tashqari, 1700-yillarda qurilgan, 1800-yillarning o'rtalarida Engel tomonidan mehmonxona sifatida qayta ishlangan va 1930-yilda Helsinki shahar hokimiyati sifatida xizmat qilgan bino, 1832-yilda qurib bitkazilgan tarixiy Helsinki universiteti binosi va hozirda Hokimiyat binosi bo'lgan sobiq Davlat Kengashi binosi, 1757-yilda taniqli savdogar bo'lgan Yoxan Sederholm qurgan va hozir Sederholm uy muzeyi binosi mavjud. Helsinki markazidagi Katajanokka tumanida joylashgan, 1868-yilda Vizantiya-Rossiya me'morchiligida usulida qurilgan va eng katta pravoslav cherkovi bo'lgan Uspenskiy cherkovi bir marta ko'rishga arziydi.

DUNYODAGI ENG AJOYIB TA'LIM TIZIMIGA EGA FINLANDIYA

“Finlandiyalik bolalarning maktab hayoti – bu Finlandiyaning o‘zi amalga oshirayotgan yoshlar va ta’lim siyosatining natijasidir; PISA testlariniki emas. Finlandiya ta’lim tizimida ijtimoiy fanlar, tasviriy san’at, sport va amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish fanlari o‘qish, aniq fanlar va matematika savodxonligi kabi muhim ahamiyatga ega. Finlandiyalik bolalar bolalar bog‘chasida va boshlang‘ich maktab davomida fanlarni o‘yin o‘ynash va zavq olish orqali o‘rganadilar. Finlandiyalik o‘qituvchilar ham, ota-onalar ham matematika yoki boshqa fanlar bo‘yicha mavhum tushunchalarni o‘rgatishning eng yaxshi usuli musiqa yoki sport bilan shug‘ullanish deb hisoblashadi. Akademik va akademik bo‘lmagan ta’lim uslublari o‘rtasida o‘rnatilgan bu muvozanat maktabdagi bolalar baxtli bo‘lishini ta’minlashning sehrli formulasidir. PISA testlari maktab hayotining juda muhim mezonlarini baholamaydi”.

PASI SAHLBERG

Amerikaning Garvard Universitetidagi dunyoga taniqli finlandiyalik o'qituvchi Pasi Sahlbergning so'zlariga ko'ra, ta'lim sohasida muvaffaqiyatga erishishning eng muhim usuli bu adolatdir. "Ta'lim sifatini oshirishdan ko'ra, o'quvchilarga tenglikni taqsimlash muvaffaqiyatdir", – deydi Sahlberg. Sahlbergning ta'kidlashicha, Finlandiyaning xalqaro ta'lim sifati bo'yicha doimo birinchi o'rinni egalashining asosiy sabablari shulardir:

- Maktabdan tashqari omillar muvaffaqiyatga katta ta'sir qiladi. Agar madaniyat, siyosat va odamlar kayfiyati yaxshi bo'lsa, muvaffaqiyat o'z-o'zidan keladi.

- Ta'lim sohasidagi yutuqlarga mamlakatning iqtisodiy holati ham ta'sir qiladi. Ilg'or texnologiyalar va ijtimoiy ko'rsatkichlar ham ta'limga ta'sir qiluvchi muhim omildir.

- Finlandiya onalar va bolalarga sog'liq va ijtimoiy xizmat ko'rsatish bo'yicha eng yaxshi mamlakatlar qatoriga kiradi. Bolalar tug'ilishidan oldin ko'rsatiladigan e'tibor juda ko'p. Bolalarga e'tibor bo'yicha eng yaxshi 4 mamlakat qatoriga kiradi...

- Jamiyat bolalarni qanchalik ko'p qo'llab-quvvatlasa, ta'lim sifati shunchalik yuqori bo'ladi.

- Birlashgan Millatlar Tashkilotining baxt indeksidagi eng baxtli davlatlardan biri bu Finlandiyadir.

- Mamlakatda kuchli davlat maktablari mavjud, xususi maktablar deyarli yo'q.

- Dastlabki 9 yilda o'quvchilar bir xil ta'lim olishadi.

O'quvchilarning 60 foizi oliy ta'limni davom ettiradi.

- Barchaga ta'lim olish imkoniyatlarini teng ravishda taqdim etish bilan birga, tizimda professional o'qituvchilar dars beradi.

- Barcha maktablarda oziq-ovqat, og'zaki ta'lim va ta'lim muhiti teng bo'lib, sog'liqni saqlash va stomatologik xizmatlar ko'rsatiladi.

- Har bir o'quvchiga xos bo'lgan moslashuvchan ta'lim modeli mavjud. Standart ta'lim o'rniga, o'quvchilar va o'qituvchilarga ko'ra shaxsiylashtirilgan ta'lim ham qo'llaniladi.

- O'qituvchilar puxta tanlangan. O'qituvchilik uchun har yili 8500 kishi murojaat qilgan tizimda eng muvaffaqiyatli 800 kishi tanlanadi.

- Har bir o'quvchining o'quv ehtiyojlari qo'llab-quvvatlanadi.

- Milliy nazorat tizimi, ya'ni imtihonlar umuman yo'q.

Finlandiyada majburiy boshlang'ich maktab yoshi 7 yosh hisoblanadi. Yoshidan qat'iy nazar, bolalar maktabga o'zlari piyoda yoki velosipedda borishadi. Finlandiya madaniyati bolalarni mustaqil tarbiyalashga e'tibor beradi. Ota-onalar farzandlarini maktabga olib kelish yoki olib ketish, darslariga yordam berish kabi narsalar yo'q.

Finlandiyaning o'quv dasturi oddiy va umumiy asoslarni belgilashdan iborat. O'quvchilar o'zlarining ta'lim dasturlarini o'zlarining qiziqishlari va ehtiyojlariga muvofiq ravishda shakllantirish huquqiga ega. O'qituvchilar ham shunday.

Finlandiyalik o'quvchilarga ta'limning dastlabki olti

yilida hech qanday baho qo'yilmaydi. Sakkizinchi sinf oxirigacha baho berish shart emas va talabalar standartlashtirilgan imtihon tizimiga bo'ysunmaydi. Ular 16 yoshga to'lganda bir marta butun mamlakat bo'ylab imtihon topshirishadi.

O'qituvchilar kun davomida sinfda o'rtacha to'rt soat dars berishadi. O'zlarining malakasini oshirish maqsadida haftasiga ikki soat vaqtni malaka oshirish darslariga ajratadilar.

O'quvchilarning boshlang'ich maktabda kuniga darsdan tashqari tanaffusda o'tkazadigan umumiy vaqti 75 daqiqa. Amerikada bu ko'rsatkich 27 daqiqagacha pasaygan. Turkiyada o'rtacha 45 daqiqa.

Barcha o'qituvchilar kamida magistr darajasiga ega va universitetdagi yutuqlari bo'yicha eng yaxshi 10 foizlik orasidan tanlangan. O'qituvchilik – jamiyatlardagi eng yuqori mavqega ega bo'lgan kasblardan biridir.

Finlandiyalik o'qituvchilarni muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz deb baholamaydilar. Kamchiliklari bo'lgan o'qituvchilarga yangi ta'lim dasturlari bilan o'zlarini takomillashtirishga imkoniyat yaratib beriladi. Hech bir o'qituvchi dars o'tish tarzi sabab ishdan bo'shatilishidan qo'rqmaydi.

O'quvchilarga uy vazifasi berilmaydi, chunki o'qish joyi faqat maktab deb hisoblanadi.

Har bir bolaga individual tarzda e'tibor beriladi. Agar bolalardan biri yetarli darajada o'qiy olmayotgan bo'lsa, o'qituvchilari darhol buni sezadilar va bolaning o'quv dasturini shaxsiy ehtiyojlariga moslashtiradilar. Xuddi shu

narsa maktabga kirishib ketolmaydigan, zerikkan yoki o'rganish tezligi muddatidan ilgari bo'lgan bolalar uchun ham amal qiladi.

O'qituvchilarning yuqori darajadagi bilimlari – ularning bolalar rivojlanishining barcha turlarini kuzatishi va moslashuvchan yechimlarni yaratishi uchun eng muhim vositadir. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, o'rtacha 30% bolalar ta'lim olishi hayotlarining dastlabki to'qqiz yilida maxsus dasturlar tomonidan qo'llab-quvvatlanadi.

Finlandiya maktablarida sport bilan shug'ullanish uchun juda ko'p joy mavjud, ammo sport musobaqalari uchun jamoalar mavjud emas. Raqobat, biri boshqasidan ustun kelishi, fin madaniyatida qadrlanadigan narsa emas.

Finlandiyada xususiy maktablar mavjud emas va barcha ta'lim xarajatlari davlat tomonidan ta'minlanadi. Finlandiyadagi maktablar bir-biri bilan raqobatlashmaydi, aksincha, hamkorlik qiladi. Deyarli barcha maktablarning tengligiga katta e'tibor beriladi. Shuning uchun bir maktab boshqasiga nisbatan hech qanday imtiyozlarga ega emas.

Ta'lim – hamma uchun teng imkoniyatlarni ta'minlash deganidir. Tenglik tushunchasi juda qadrlanadi. Barcha bolalar, ularning aql va qobiliyatlaridan qat'iy nazar, bir xil sinflarda o'qiydilar.

Ko'pgina Yevropa mamlakatlari va Amerika bilan taqqoslaganda, Finlandiyaning ta'lim budjeti ko'proq pul ajratishi sinf muhitida aks etadi. Chunki o'qituvchilar ham, direktorlar ham deyarli bir xil maosh olishadi. Shuning uchun Finlandiyada ta'lim xarajatlari ancha past. Ammo 15 yillik katta o'qituvchi o'rtacha universitet bitiruvchisi-

dan ko'ra ko'proq daromad oladi.

Finlandiya ta'lim fakultetlarining eng ustuvor vazifasi "o'zini boshqaruvchi o'qituvchilar"ni tayyorlashdir. Finlandiyada o'quv dastur mavjud emasligi sababli o'qituvchilar o'z sinflarining holatiga ko'ra keng vakolatlarga ega va ular xohlagan o'quv dasturini qo'llashlari mumkin.

Finlandiyada o'qituvchilarga tekshiruv va nazorat kabi bosim omillari mavjud emas. Finlandiyadagi o'qituvchilar nihoyatda erkin, davlat o'qituvchilarning ta'lim berishiga shunchalik ishonadiki, ular o'qituvchilarni tashqi nazorat ostiga olishmaydi. O'z qarorlarini o'zlari qabul qiladigan o'qituvchilar, ayni vaqtda o'zlarini boshqarish mexanizmi-ga ham ega.

Finlandiyada o'qituvchilarga madaniyatni mamlakatning har bir burchagiga olib boradigan odamlar sifatida qarashadi. 70-80-yillarda qattiq davlat nazorati va o'quv dasturiga qat'iy rioya qilish kerak, degan fikrni qo'llagan Finlandiya bu xato ekanini ko'rdi va 90-yillardan boshlab Finlandiya o'qituvchilarni nihoyatda yuqori standartlarga muvofiq tayyorlashga qaror qildi. Davlat nazorati butunlay olib tashlandi, o'qituvchilarning o'zi maktablardagi o'quvchilarining holati, ularning ta'limi va o'quv rejasi uchun to'liq javobgar bo'lishi kerak, degan qarorga kelishdi. Va bu muvaffaqiyat keltiradi. Markaziy ma'muriyat paydo qiladigan mintaqaviy muammolarni ushbu mintaqaning o'qituvchilariga mas'uliyat berish orqali bartaraf etildi. Shu tarzda, har qanday talaba, sharoitdan qat'iy nazar, teng darajada ta'lim olish imkoniga ega bo'ladi.

Finlandiyalik o'qituvchilarni shu qadar muvaffaqiyatli

qiladigan narsa, albatta, ularning aqlli ekanliklari emas. Chunki ta'lim fakultetlari o'z talabalarini aqllariga qarab tanlamaydilar. Biznikiga o'xshash imtihonda yuqori ball to'plaganlar o'qishga qabul qilinmaydi. O'qituvchilikka o'qitadigan fakultetga ko'plab bosqichlarni bosib o'tgandan so'ng qabul qilinadi, ular orasida yaxshi munosabatlar o'rnatish, kelishuvchanlik, bolalar darajasiga tusha olish, intiluvchan shaxsga ega bo'lish kabi mezonlar ko'proq ahamiyatga ega. Shunday qilib, siz nihoyatda yaxshi, aqlli va ijodkor shaxs bo'lishingiz mumkin, ammo bu sizning Finlandiyadagi o'qituvchilarni tayyorlovchi o'qishlarga qabul qilish uchun yetarli emas. O'qituvchi bo'lish uchun universitetlarga hujjat topshirgan har 10 kishidan faqat bittasi bu huquqni qo'lga kirita oladi.

O'qituvchilarning amaliyot bosqichi siz bilganingizdan ancha farq qiladi. Amaliyot shunchaki qilinishi kerak bo'lgan narsa emas, shuningdek, sinfda o'tirib, bir marta dars tomosha qilish yoki ma'ruza qilish ham emas. Bo'lajak o'qituvchilar doimo talabalar bilan uchrashib, ular bilan qanday ta'lim berish kerakligi haqida suhbatlashadilar. O'qituvchilar doimiy ravishda o'zgarib turadi va bo'lajak o'qituvchilar butun kunlarini maktablarda o'tkazadilar.

Finlandiyada maktab arxitekturasiga alohida e'tibor beriladi. Ko'p qavatli binolar o'rniga katta bog'larda bir qavatli binolar quriladi.

Maktab bog'laridagi bolalar maydonchalari va o'yin maydonchalari mamlakatdagi uzoq qish mavsumini hisobga olgan holda tashkil etiladi.

Finlandiya maktab arxitekturasining o'ziga xos xusu-

siyati – uning maktab ichiga ko‘p ahamiyat berishidadir. O‘quvchilarning o‘zlarini uy sharoitida his qilishlari uchun harakat qilishadi.

Maktabning har kvadrat metridan ta‘lim olishda foydalanishga mo‘ljallashadi. Zinapoya ostidagi uch-burchak bo‘sh joydan unumli foydalanish maqsadida, u yerga fortepianoni joylashtirishganini ko‘rish mumkin.

Binoda bo‘sh yo‘lak va zallarga duch kelinmaydi. Birgalikda ishlash, dam olish va ovqatlanish joylari alohida joylarda emas, balki sinflarga ochib kiriladigan katta joylarda joylashgan.

Masalan, kutubxona tinch va yopiq xonadan ko‘ra, sinf xonalari eshigi ochiladigan keng yo‘lakda joylashgan. Kutubxona joylashgan bo‘limdan ham alohida, ham guruh holatda foydalanish mumkin.

Ichkaridagi narsalarni tashqaridan kuzatish mumkin bo‘lishi uchun, sinf xonalarining eshiklari iloji boricha shaffof holatda qilingan.

Umumiy maydon sifatida foydalaniladigan joylarda haftaning muhim voqealari o‘quvchilarga LED ekranlarda e‘lon qilinadi va ular maktabda sodir bo‘layotgan voqealardan xabardor qilinadi.

Sinflarning dizayni, asosan, qulaylikka asoslangan. O‘quv muhitini yengillashtiradigan ko‘plab narsalar, bandligi bo‘yicha sozlanishi mumkin bo‘lgan o‘quvchi stollaridan yuvinish xonalarida aqlli taxtalarga qadar joylashtirilgan.

Shuningdek, sinflarning orqa qismida o‘qituvchi xonasi mavjud. O‘qituvchi darsdan keyin o‘z o‘quvchilari bilan

alohida uchrashishni xohlasa yoki ishlashni xohlasa, u ushbu xonani ofis sifatida ishlatishi mumkin.

O'qituvchilar birgalikda o'tirishi mumkin xona va filial o'qituvchilari birgalikda ishlashlari mumkin bo'lgan o'quv xonalari mavjud.

BARHAGA TENG, BEPUL TA'LIM

15 yoshli fin o'quvchilarining takroriy muvaffaqiyati va OECD (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti) tomonidan har yili tashkil etiladigan PISA (Xalqaro o'quvchilarni baholash dasturi) imtihonlari tomonidan ularning qobiliyatlari bahonalanishi natijalari ko'plab mamlakatlarning e'tiborini tortadi. Finlandiya ta'lim tizimining kuchli tomonlaridan biri. – iqtisodiy yoki ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar, barchaga bir xil ta'lim imkoniyatlarining taqdim etilishidir. Raqobat va taqqoslash o'rniga katta maktablar o'quvchilarga shaxs sifatida qo'llab-quvvatlash va birlik berishadi. O'qituvchilarning bilim darajasi yuqori. O'qituvchilar ta'limning barcha darajalarida, shu jumladan, ta'lim fanlari va maktab filiallarida har tomonlama o'qitishga, yuqori aspirantura darajasiga ega bo'lishi kerak. O'qituvchilik – juda hurmatga sazovor kasb.

Deyarli barcha fanlar yoki aksariyat fanlar uchun o'quvchilarning o'qituvchilari bir xil. Chunki bir xil o'qituvchi bilan uzluksiz o'qish o'quvchilarga ham ruhiy yordam beradi, ham ularga ishonch beradi. Bu holat sinf muhiti-ning ham kamsitish va ta'qiblardan xoli bo'lishini ta'minlaydi. O'quv samaradorligini baholash odatda o'quvchilar beshinchi sinfni tugatgandan so'ng boshlanadi. O'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasidagi munosabatlar yumshoq va do'stona bo'lib, jazoga emas, balki rag'batlantirishga asoslangan.

Umumiy maktabdan so'ng o'quvchilar o'zlarining xo-

hishlariga qarab umumiy yoki kasb-hunar ta'limda o'qishni davom ettirish imkoniyatiga egalar. Odamlar hayotlari davomida turli yo'llar bilan ta'lim olishda davom etishlari mumkin. Finlarning yigirma besh foizi universitet yoki texnik kollej (politexnik) darajasiga ega. Ushbu ko'rsatkich 25-34 yosh guruhi uchun o'ttiz olti foizni tashkil etadi.

TA'LIM – KICHIK BIR MAMLAKATNING KAFOLATIDIR

Zamonaviy dunyoda bilimli, yuqori malakali aholi bir mamlakat uchun muvaffaqiyatning kalitidir. 1900-yillarning ikkinchi yarmida Finlandiya mamlakatining dunyodagi eng boy davlatlardan biriga aylanishi, ko'p jihatdan aholining xalq ta'limi sohasidagi talablari va mamlakatning ushbu yo'nalishdagi ta'limga ajratgan mablag'lari bilan bog'liq. Finlandiya ta'lim tizimining hozirgi doimiy muvaffaqiyatining asoslari 1800-yillarda qabul qilingan qarorlar asosida yaratildi. Finlandiya, butun xalq ta'lim olishi kerak, degan qarorga kelgan edi. Shu tarzda, mamlakatda ma'lumotli elita va o'qimagan past qatlam o'rtasidagi ijtimoiy tengsizlikka yo'l qo'yilmadi. Shu bilan finlarning o'rganishga bo'lgan ishtiyoqi ham, ta'limga bo'lgan umumiy ishonchining ham tarqalishiga sabab bo'ldi.

GLOBAL MUAMMOLARNI TA'LIM BILAN HAL QILISH

Iqlim o'zgarishi, global iqtisodiy tebranishlar, tobora keksayib borayotgan aholi, zamonaviy texnologiyalar, epidemiyalar va ommaviy migratsiya bilan bog'liq xatarlar kabi jamiyatlar duch keladigan muammolarga yechim topish hayot tarzida o'zgarishlar va faollikning yangi turlarini keltirib chiqaradi. Finlandiyada va butun dunyoda tobora ko'payib borayotgan bilimlar oqimi va inson harakatlari an'anaviy ta'lim uchun yangi muammolarni tug'dirmoqda. Ta'lim tizimi qanchalik kuchli bo'lmasin, muvaffaqiyatini saqlab qolish uchun uni doimiy ravishda takomillashtirish va yangilashga ehtiyoj bo'ladi. Xalq qanchalik yaxshi ma'lumotga ega bo'lsa, bugungi dunyodagi muammolarni yengish uchun shunchalik tayyorlangan bo'ladi.

Ta'lim – demokratiya va zamonaviy jamiyatning asosidir.

Finlandiya davlat va shahar budjetining 11-12 foizi ta'limga sarflanadi. Shunday qilib, maktabgacha ta'lim, asosiy ta'lim, o'rta maktab, kasb-hunar ta'limi, oliy va uzluksiz ta'lim hamda aspirantura bepul, kattalar uchun qo'shimcha ta'limga qisman to'lov qilinadi. Ushbu tuzilma Finlandiyada yashovchi har bir inson uchun mavjud bo'lgan umrbod ta'limning asosini tashkil etadi.

1900-yillarning boshlarida ham Finlandiyadagi aksariyat shaharlarning boshlang'ich maktablari bo'lgan. Maktabga borish majburiyati to'g'risidagi qonun 1921-yilda

kuchga kirdi va barcha o'quvchilar kamida olti yil davomida boshlang'ich ta'lim olishlari shart edi. Eng muhim buri-lish nuqtalaridan biri 1970-yillarning boshlarida yuz berdi, o'shanda shaharlarning to'qqiz yillik umumiy maktablari boshlang'ich va o'rta maktablarga aylantirilib, majburiy ta'limni to'qqiz yilga uzaytirdilar. Maktabni keng qamrovli isloh qilish degani – oilaning yashash joyi va ijtimoiy-iqtisodiy holatidan qat'iy nazar, barcha bolalarga teng va bepul asosiy ta'lim berishni nazarda tutadi.

O'YIN VA TARBIYA BOLALARNI MAKTABGA TAYYORLAYDI

Finlandiyada maktabni boshlash yoshi 7 yosh, boshqa mamlakatlarga qaraganda kechroq. Finlandiya ta'lim amaliyotiga ko'ra, bolalar o'sishi va rivojlanishi uchun vaqt va makon kerak. Ta'lim bolalar hayotidagi sezgir davridan foydalanish orqali ijodkorlikka va fikrlashga undaydi. Maktabning dastlabki yillarida ota-onalar farzandlarining maktabdagi ishlari to'g'risida og'zaki fikr-mulohazalar olishadi. Bolalik davrida bolalarni oilalari boqadi va tarbiyalaydi. Bolalar kunduzgi bolalarga qarab turuvchi markazlardagi o'yinlarda, sport o'yinlarida va ochiq havoda guruh mashg'ulotlarida qatnashadilar. Yosh bolalarning ota-onalari uzoq homiladorlik va otalik ta'tillaridan foydalanadilar. Oilalar shahar yoki xususiy kunduzgi bolalar parvarish uylarini tanlashi mumkin, yoki bolalarni parvarish qiluvchining uyida kichik guruhlarda qoldirishi mumkin.

Olti yoshli bolalar maktabda yoki o'zlarining kunduzgi bolalar parvarish markazlarida bepul maktabgacha ta'lim olish huquqiga ega. Olti yoshli bolalarning deyarli barchasi maktabgacha ta'lim muassasalarida qatnashadilar.

Agar kerak bo'lsa, bolalar maktabga tayyorligini baholash orqali bir yil erta yoki bir yil kech o'qishga kirishlari mumkin. Mahalliy maktablar ishonchli va yuqori sifatli ta'lim olishning kalitidir. Finlandiyada taxminan 3000 ta umumta'lim maktabi mavjud bo'lib, u yerda jami 550.000 o'quvchi tahsil oladi. Amalda hokimliklar ta'limni tartibga

solish uchun javobgardir. PISA tadqiqotining eng muhim xulosalaridan biri shundan iboratki, Finlandiya barcha ishtirokchi mamlakatlar orasida maktablari orasidagi eng kam farqqa ega.

Mahalliy maktabda o'qitish prinsipi shuni anglatadiki, barcha bolalar va o'spirinlar o'z uylariga eng yaqin maktablarda, oilalarining ijtimoiy mavqeiga ko'ra ajratilmagan holda o'qiydilar. Maktablarning o'ta yuqori standartlari tufayli ota-onalar, odatda, mahalliy maktablardan mamnun va elit xususiy maktablar mavjud emas. Litsenziyaga ega bo'lgan ba'zi xususiy maktablar mavjud, ammo bu maktablar ham davlat mablag'laridan foydalanadi, milliy o'quv dasturiga amal qiladi va o'z mahallalaridan o'quvchilarni qabul qilish majburiyatini bajaradi.

Hokimliklar maktabdan piyoda yurish uchun juda uzoq bo'lgan yoki jamoat transporti orqali yetib borolmaydigan o'quvchilarni borish-kelishlarini moliyalashtiradi.

O'qituvchilar malakasini oshirish ham pedagogik mahoratni, ham o'quv dasturi bo'yicha batafsil ma'lumotni o'z ichiga oladi. O'quv dasturi va o'quv maqsadlari milliy darajada kelishilgan bo'lsa-da, o'qituvchilar darsda foydalanadigan usullarini erkin tanlashlari mumkin.

O'QITUVCHILAR MALAKASINI OSHIRISH – SIFATLI O'QITISH GAROVI

Umumta'lim maktablarida doimiy ravishda ishlaydigan barcha o'qituvchilar universitet bitiruvchilaridir.

Boshlang'ich maktablarda (1-6 sinflar) o'qituvchilar, odatda, barcha darslarga kiradi. Ushbu o'qituvchilar pedagogik mahoratga e'tibor qaratgan, ta'lim bo'yicha aspirantura darajasiga ega o'qituvchilardir. O'rta ta'limning birinchi va ikkinchi bosqichlarida ham fanlarga xos ta'limga ega, tegishli sohada aspiranturaga ega bo'lgan va ta'lim fanlari bo'yicha o'qishni tugatgan o'qituvchilar tomonidan o'tiladi.

Kunduzgi bolalar parvarish markazi va maktabgacha ta'lim tarbiyachilari ham universitet bitiruvchilaridir.

O'qituvchilik juda mashhur sohadir va uning obro'si yuqori, garchi maoshi nisbatan past bo'lsa ham. O'qituvchi bo'lish uchun arizalar soni bo'sh ish o'rinlarining besh baravaridan ham ko'p.

Yuqori sifatli o'quv materiallari katta ahamiyatga ega. Finlandiyaning rasmiy tili sifatida ham fin tilida, ham ikkinchi rasmiy shved tilida o'quv kitoblari va boshqa o'quv materiallari ishlab chiqarish katta sarmoyalar bilan qo'llab-quvvatlanadi.

Materiallar tobora ko'proq elektron va onlayn turga o'tmoqda. Finlandiya Ta'lim vaziri Kauppinen kelajakda maktablar duch keladigan eng katta muammo, maktablar

Oq nilufarlar yurtida

bilan uylar o'rtasidagi hamkorlikni yaxshilash va maktablar bilan maktab muhiti o'rtasidagi muloqotni rivojlantirish sohasida bo'ladi, deb hisoblaydi.

STANDARTLASHTIRILGAN TA'LIM MAQSADLARI

Hukumat umumta'lim va o'rta maktablarining dars mavzusi va umumiy vazifalari to'g'risida qaror qabul qiladi.

Ushbu qarorning asosini Milliy ta'lim va madaniyat vazirligi huzuridagi Finlandiya Milliy Ta'lim Kengashi yaratadi. Ko'pchiligini esa shahar hokimiyati ta'lim bilan shug'ullanuvchilari yaratadi, keyin o'qituvchilar shu asosda o'z o'quv dasturlarini va maktabga tegishli rejalarni ishlab chiqadilar. Shunday qilib, mamlakatdagi barcha o'quvchilar bir xil fanlarni bir xil darajada va sifatli o'rganadilar. Shu bilan birga, bu tizim mahalliy markazlarni mustahkamlash va kuchaytirishga imkon beradi.

O'quvchilarning umumta'lim maktabidagi yutuqlari milliy baholash orqali, shu jumladan, tasodifiy besh foizli tanlov orqali nazorat qilinadi. Bundan tashqari, o'quv tadbirlari uchun mas'ul shaxslar muntazam ravishda baholashni amalga oshirishi shart.

Ikkinchi qadamda esa, o'rta ta'lim Milliy yetuk imtixon kengashi tomonidan baholanadigan Milliy yetuklik testi bilan yakunlanadi.

FINLANDIYA TA'LIM TIZIMI TUBDAN O'ZGARMOQDA

Ta'lim bo'yicha dunyoda birinchi o'rinda turuvchi Finlandiya o'zining ta'lim tizimida jiddiy o'zgarishlar qilishga qaror qildi. Shu nuqtayi nazardan boshlangan loyiha ta'lim sohasida sezilarli o'zgarishlarni o'z ichiga oladi. Bir necha yillar davomida biz savodxonlik va hisoblash bo'yicha xalqaro reytinglarning yuqori qismidagi muvaffaqiyatli ta'lim tizimi deganda, aqlimizga birinchi Finlandiya keladi. Faqatgina Singapur va Xitoy singari Uzoq Sharq mamlakatlari ushbu Skandinaviya davlatining PISA reytingidagi ko'rsatkichlaridan oshib ketishga qodir. Dunyo bo'ylab siyosatchilar va ta'lim bo'yicha mutaxassislar Finlandiya muvaffaqiyatining siri nimada ekanligini aniqlashga va o'z mamlakatlarida xuddi shunday qilishlariga umid qilib, Helsinkiga "ta'lim ziyorati" qilishadi. Finlandiya davlat tomonidan amalga oshirilgan ta'lim sohasidagi eng tub islohotlardan birini amalga oshirmoqchi ekanligi yana-da diqqatga sazovordir: Finlandiya tizimni "darsga ko'ra ta'lim"ni muomaladan chiqarib, o'rniga "mavzular bo'yicha ta'lim" bilan almashtirishga qaror qildi.

"Biz boshlamoqchi bo'lgan ushbu yangi amaliyot Finlandiyada ta'lim olish uchun katta imkoniyat yaratdi", – deydi islohotlar dasturining boshida turgan poytaxt Helsinki shahri yoshlar va kattalar ta'limi uchun mas'ul bo'lgan Lisa Poxolaynen. Shaharni rivojlantirish bo'yicha menejeri

Pasi Silander yangi islohotni quyidagicha izohlaydi:

– “Odamlarni ish hayotiga tayyorlash uchun hozir kerak bo’lgan narsa – bu boshqa turdagi ta’lim. Yoshlar juda murakkab kompyuterlardan foydalanadilar. Ilgari banklarda ko’plab xodimlar hisob-kitob yuritgan, ammo bugun bu butunlay o’zgardi. Shuning uchun biz ta’lim va zamonaviy jamiyat uchun zarur bo’lgan o’zgarishlarni amalga oshirishimiz kerak”.

Faqat bitta mavzuga bag’ishlangan darslar – ertalab bir soatlik tarix va tushdan keyin bir soatlik geografiya darslari allaqachon shaharning yuqori sinflari (16 yoshli o’quvchilar) uchun tugatilmoqda. Ushbu darslarning o’rniga, finlar aytganidek, “mavzusi bo’yicha ta’lim” almashtirildi. Masalan, kasb-hunar ta’limi olgan talaba matematika, chet tillari (chet ellik mijozlarga xizmat ko’rsatishda yordam berishi uchun), yozish qobiliyati va muloqot qobiliyatlarini o’z ichiga olgan “kafeteriya xizmatlari” darslarida qatnashishi mumkin. Ko’proq akademik talabalar iqtisod, tarix (Yevropa Ittifoqiga a’zo davlatlarning tarixi), chet tili va geografiyani aralashtiradigan mavzular bo’yicha “Yevropa Ittifoqi” kursi kabi o’qish imkoniyatiga ega bo’ladilar.

Boshqa o’zgarishlar ham mavjud. Ayniqsa, talabalar o’qituvchi oldida qator bo’lib o’tiradigan, ma’ruzalarni tinglaydigan va savollarni kutadigan an’anaviy formatda o’zgarishlar bor. O’rniga o’quvchilar kichik guruhlarda muammolarni hal qilish ishlashlari bilan bir qatorda, o’zlarining muloqot qobiliyatlarini oshiradigan, ko’proq hamkorlikka asoslangan yondashuv qo’llaniladi.

Helsinki shahri ta’lim bo’yicha mas’ul shaxs Marjo

Kyllonen shunday deydi: “O‘zgarishlar faqatgina Hel-sinkida bo‘lmaydi, balki butun Finlandiya o‘zgarishlarni amalga oshiradi. Biz haqiqatan ham ta‘limni qayta ko‘rib chiqishimiz va o‘z farzandlarimizni bugungi va ertangi kun uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalar bilan kelajakka tayyor-lashimiz uchun, tizimimizni qayta qurishimiz kerak. Hali ham 1900-yillarning boshlarida foyda ko‘rgan eski usullar bilan ta‘lim beradigan maktablar mavjud. Ammo bugun-gi talablar bir xil emas va bizga XXI asrga mos keladigan tizimga ehtiyojimiz bor”.

Biroq, hatto, Finlandiyada ham islohotlarga o‘qituv-chilar va direktorlarning e‘tirozlari bo‘lmoqda. Ularning aksariyati hayotlarini aniq bir yo‘nalishga bag‘ishlagan va kutilmaganda ushbu o‘zgartirishga ko‘nika olmagan o‘qituvchilardir.

Kyllonen darslarni rejalashtirishda “hamkasblar” yon-dashuvini qo‘llab-quvvatlaydi, bu uslubda dars vaqtida mavzu bo‘yicha ko‘plab mutaxassislar ishtirok etishadi. Ushbu yangi tizimni qo‘llab-quvvatlaydigan o‘qituvchilar ham maoshning ozgina o‘zgarishini boshdan kechirishadi. Shahar o‘rta maktab o‘qituvchilarining taxminan 70 foizi yangi yondashuvni darslarga moslashtirish uchun qayta o‘qitildi. “Biz haqiqatan ham mentalitetimizni o‘zgartir-dik”, – deydi Kyllonen. –“O‘qituvchilarning ishni boshlash-lari va birinchi qadamni tashlashlari qiyin. Biroq, yangi yondashuvga o‘tgan o‘qituvchilar endi qaytmasliklarini aytishmoqda”.

Islohot haqidagi dastlabki ma‘lumotlar ham shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilar ushbu islohotdan foyda ko‘rish-

di. O'qitishning yangi usuli joriy qilingan ikki yil ichida talabalarining "natijalari" yaxshilandi.

Ayni paytda, bolalar bog'chasi bo'limi "Ta'lim markazi" deb nomlangan innovatsion loyiha orqali katta o'zgarishga tayyorlanmoqda. Ushbu loyiha video o'yinlar sohasi bilan yosh bolalarga ko'proq "o'ynab" o'rganishni taklif qilish usullariga qaratilgan.

Loyiha direktori Olavi Mentanen: "Biz Finlandiyani bolalar ta'limi uchun o'yin yechimlarini taklif etuvchi yetakchi davlatga aylantirmoqchimiz", – dedi.

Finlandiya katta o'zgarishlarni amalga oshirish to'g'risida qaror qabul qilar ekan, shubhasiz, ta'lim dunyosining ko'zlari va quloqlari o'sha yerga qaratilgan bo'ladi. Ushbu islohotlar Finlandiyaning PISA'dagi o'rnini o'zgarishiga yoki, hatto, uni yaxshilashga imkon beradimi? Agar shunday bo'lsa, qolgan ta'lim dunyosi ushbu islohotlarni qanday qabul qiladi?

YANGI FINLANDIYA YONDASHUVI AYNAN QANDAY?

Ingliz tili darsini tasavvur qiling. Ammo, taxtada Yevropa qit'asining xaritasi mavjud. Bolalar ob-havo sharoitlarini taxtada ko'rgan turli mamlakatlari bilan birlashtirishi kerak. Masalan, bugun Finlandiyada quyoshli, Daniyada tumanli kun. Shunday qilib o'quvchilar ingliz tilini o'rganishni geografiya bilan birlashtiradi. Finlandiyaning yangi ta'lim uslubini o'z ichiga olgan Helsinki shahridagi Siltamaki maktabida 7 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan 240 nafar bola o'qiydi. Direktor Anne-Mari Yaatinen maktab falsafasini quyidagicha ta'riflaydi: "Biz o'quvchilar xavfsiz, baxtli, qulay va ilhom baxsh etgan muhitda bilim olishlarini istaymiz".

Yo'lakda shaxmat o'ynayotgan o'quvchilar bor. Tag'in Afrikaning turli mintaqalari haqida ma'lumot to'plash maqsadida yugurayotgan o'quvchilarni tasavvur qiling. Yaatinen buni "zavq bilan o'rganish" deb ta'riflaydi. – "Biz o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga imkon berishlari uchun ko'proq hamkorlik va munosabat o'rnatishlarini xohlaymiz".

FINLANDIYADA UYSIZLAR YO‘Q

Finlandiyada uysiz bo‘lish – boshqa mamlakatlarda uysiz bo‘lishdan yaxshiroq. Mehnat qila olmaslik sababli shaxsiy uyi bo‘lmasligi va ko‘chada qolish – bu ko‘plab mamlakatlarda uchraydigan muammo. Germaniya aholisining 35%, Fransiya aholisining 50% va Buyuk Britaniyaning 7% aholisi ushbu muammoga duch kelmoqdalar. Biroq, Finlandiyada bu muammo juda kam uchraydi.

2007-yilda bir loyiha ishlab chiqildi.

Uyi bo‘lmagan har qanday kishi boshqa muammolarni hal qila olmaydi.

Uysizlar uchun uyga egalik qilish jarayoni, odatda, shunday ketma-ketlikda ishlaydi: Ko‘chada tunash, uysizlar yotoqxonasi, nazoratxona, ijara uy va oxirida shaxsiy uyga ega bo‘ladi.

Ushbu jarayonda siz avval pul ishlash orqali boshpana, yotoqxonalar va vaqtinchalik uylarga borishga harakat qilasiz. Finlandiya ushbu jarayonni quyidagi tarzda o‘zgartirdi:

“Birdaniga shaxsiy uy”

Ushbu dasturga ko‘ra, har kimga uyga egalik huquqiga ega bo‘lish huquqi bilan bir joyga joylashtiriladi va hukumat ularga ijarada moddiy yordam beradi, muammolariga yechim topishga va ularni jamiyatga qo‘shishga harakat qiladi. Shu nuqtada, ko‘p muammolarga duch kelayotgan va uyi bo‘lmagan fuqarolarga uy olib berish orqali o‘zlari

egalik qiladigan uyning borligi bergan xotirjamlik bilan boshqa muammolarni hal qilishga imkoniyat yaratishdir.

Fuqaro ushbu uyga joylashtirilgandan so'ng, u bir tomondan arzonlashtirilgan ijara haqini to'laydi va ushbu ijara haqini to'lash uchun pul topish uchun ishlashga yo'naltiriladi. Shu bilan birga, odam o'zi bilan bog'liq muammolarni (masalan, spirtli ichimliklar ichishni tashlash kabi) hal qilish uchun choralar ko'radi.

Uylar ham davlat, ham xususiy kompaniyalar – notijorat kompaniyalar tomonidan quriladi va uysizlarga beriladi. Ushbu uylar standart bo'lib, shahardan ajratilgan va uzoqroq bo'lgan joyda qurilmaydi va bu yerda qo'shnichilik munosabatlari ham hisobga olinadi. Vaziyatga qarab, shaxs 2-30 yil ichida o'zini ta'minlashi mumkin bo'lgan holatga keladi va shaxsiy uyga chiqadi.

Aslida, ushbu dastur paydo bo'lishining uzoq tarixi mavjud.

XX asrda Yevropa ikkita Jahon urushi bilan to'qnashdi va bu urushlar nafaqat ko'p odamlarning o'limiga, balki tirik qolganlarning uylarini ham yo'qotishiga olib keldi. Urushdan keyin iqtisodiyotni tiklash yo'lida ommaviy uy-joylar qurila boshlandi.

Ammo 2000-yillarga kelib, iqtisodiy inqiroz ko'plab odamlarning dunyo miqyosida ishidan va uylaridan ayrilishiga olib keldi, bu esa, xuddi, urushdan keyingi vaziyatni keltirib chiqardi. Ko'chalarda yashovchi odamlar har kuni tilanchilik va ichkilikka berilib, o'zlarini ham, jamiyatni ham bezovta qildilar.

Shundan so'ng shaxsiy uy-joy loyihasi paydo bo'ldi.

Ushbu loyiha tufayli ko'p odamlar o'zlarining muam-molarini davlat ko'magi bilan hal qilib, boshlarini qo'yadi-gan joyga ega bo'lishlari mumkin. Keyinchalik ular tirik-chiliklarini o'zgartirishi va shaxsiy mulkka o'tishlari mum-kin.

Ushbu loyihaning xarajatlari katta va siz buni shu nuqta-da o'ylashingiz mumkin: nega davlat bunga sarmoya kirit-moqda?

Bu yerda aytib o'tilgan sabab – ushbu loyihaning muvaffaqiyati uchun sarflangan mablag', kelajakda yuz berishi mumkin bo'lgan ko'plab xarajatlarni yo'q qiladi. Chunki uysizlar soni ko'payishi jinoyatlar sonini oshiradi, jinoyatlar sabab esa juda ko'p xarajatlarni keltirib chiqa-radi.

BOLALAR QUTISI – BOLALARNING HIMOYA QALQONI

Bolalar qutilari birinchi marta 1930-yillarda Finlandiyada 1937-yilgi “Onalik va homiladorlik to‘g‘risida”gi Qonun doirasida paydo bo‘lgan. Ushbu qonun bolalar o‘limining dahshatli darajada oshib ketishi sababli yaratilgan. Eng yuqori ko‘rsatkichga ko‘ra, har 10 bolaning 1 tasi 1 yoshgacha vafot etardi. Dastlab qutilar faqat kam ta‘minlangan onalar uchun mo‘ljallangan edi. O‘shandan beri Finlandiyada bolalar o‘limi koeffitsienti dunyoning aksariyat joylarida bo‘lgani kabi pasayib ketdi va hozirda 1000 chaqaloqqa atigi 2 o‘lim to‘g‘ri keladi. Bolalar qutilari ota-onalarining orqasida bemalol uxlashi va nafas olishi uchun xavfsiz va qulay joylar sifatida yaratilgan.

Bunday muvaffaqiyat bilan dastur kengaytirildi. 1949-yildan beri ushbu qutilar Finlandiyadagi daromadidan qat‘iy nazar barcha onalarga taqdim etildi. Finlandiyada doimiy yashash joylaridan tashqari, Yevropa Ittifoqida ishlash uchun u yerga ko‘chib o‘tgan odamlar va ularning oila a‘zolari ham bu qutilardan olishi mumkin.

Bolalar qutilari Finlandiyaga qanday yordam beryapti?

- Bolalar o‘limi koeffitsienti 1960-yilda 1000 ta tug‘ilishga 21,9 dan, 2015-yilda 1000 ta tug‘ilishga 1,9 ga tushdi.
- Finlandiya dunyodagi bolalar o‘limi eng past ko‘rsatkichga ega bo‘lgan 10 mamlakatdan biridir.
- Qo‘shma Shtatlarda bolalar o‘limi koeffitsienti 1000 tug‘ilishga 5,6 ni tashkil etadi.

Finlandiyaning ijtimoiy ta'minoti bo'yicha yordam ko'rsatuvchi KELAning so'zlariga ko'ra, har yili homiladorlik va tug'ish uchun 60 mingga yaqin yordam xizmatlari beriladi. Ota-onalar onalik to'plami (bolalar qutisi) yoki 140 yevrolik naqd yordamga murojaat qilishlari mumkin. Biroq, birinchi marta tug'gan onalarning aksariyati bolalar qutisini afzal ko'rishadi.

Yangi tug'ilganlar uchun quti to'plamining ichidagi tarkibi muntazam ravishda o'zgarib turadi. Lekin quti ichida doim adyol, kiyim-kechak (shu jumladan, qishki kiyim), hammom sochiqlari, tagliklar, fartuklar, shaxsiy parvarish uchun buyumlar, (shu jumladan termometr, ignalar) qaychi, kichik o'yinchoqlar va kitoblardan iborat bo'ladi.

Finlar ushbu qutini olish uchun yangi qoidalar ham kerak deb o'ylashdi. Bolalarini kutayotgan ayollardan homiladorlikning to'rtinchi oyigacha bolalar qutisiga bepul ega bo'lishlari uchun bepul tibbiy ko'rik yoki shahar sog'liqni saqlash klinikasiga borishini talab qilishdi. Shunday qilib, quti chaqaloqlarning hayotini yaxshiladi va ularning onalari himoyaga ega bo'lishdi.

FINLANDIYA NEGA BAXTLI DAVLAT?

Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan har yili e'lon qilinadigan "Dunyo baxtlilik hisoboti" deb o'zbekchaga tarjima qilinadigan "United Nations World Happiness Report" nomli hisobot Helsinkini dunyodagi eng baxtli shahar ekanligini ko'rsatmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti tadqiqotlariga ko'ra, Finlandiya 2018 – 2020-yillar oralig'ida uch yil ketma-ket dunyodagi eng baxtli mamlakat deb e'lon qilindi.

Finlandiya xalqi nega shunchalik xursand bo'lganini aniqlash uchun jamiyatning ba'zi odatlari va ahvollari o'rganib chiqildi. Ulardan biri – finlarning juda ko'p kitob o'qish odati. Finlandiyada ko'plab kutubxonalar mavjud.

2019-yilda ochilgan Oodi nomidagi kutubxona o'sha yili "Dunyoning eng yaxshi jamoat kutubxonasi" mukofotini oldi.

2016-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan e'lon qilingan hisobotda Finlandiya xalqi dunyodagi eng savodli va eng ko'p kutubxonalarga tashrif buyuradigan xalq ekanligi ta'kidlangan.

Raqamlarga ko'ra, 5,5 million aholisi bo'lgan Finlandiyada yiliga 68 millionga yaqin kitob kutubxonalardan o'qish uchun olinadi.

Ushbu mavzuni o'rgangan muharrir esa "Time" jurnaliga quyidagicha yozgan: "Sovuq iqlim va qorong'i qish mavsumi fuqarolarga ijobiy ta'sir ko'rsatishi va o'zlarini yaxshi his qilishi mumkin".

Professor Jon Helliuell esa: “Tarixda odamlarning ob-havoning og‘ir sharoitlarida ko‘proq birga yashashi va bir-birini qo‘llab-quvvatlashi haqida dalillar mavjud. Masalan, dehqonlar... Ular boshpana yoki yashashga joy qurish uchun birlashadilar. Ularga pulni kim berishining ahamiyati yo‘q. Shimoliy Yevropada hukm surayotgan sovuq ob-havo sharoiti odamlarning bir-birini osonroq qo‘llab-quvvatlashiga yordam beradi”, – dedi.

Finlandiya fuqarolari baxtli bo‘lishining eng katta sabablaridan biri bu iqtisodiy omillardir. Soliqlar yuqori, ammo ularning barchasi ijtimoiy dasturlarga, bepul yoki arzon narxlardagi universitet ta‘limi va sog‘liqni saqlashga sarflanadi. Bundan tashqari, umr ko‘rish davomiyligi juda yuqori. Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining 2015-yilgi ma‘lumotlariga ko‘ra, erkaklar 78 yoshgacha, ayollar esa 84 yoshgacha yashashi mumkin.

Skandinaviya mamlakatlarida yashovchilarning mamnun bo‘lishlarining yana bir sababi shundaki, ularning “baxt” haqidagi tushunchasi bizdan juda farq qiladi. Bu borada kitob yozgan tadqiqotchi Maykl Butning so‘zlariga ko‘ra: “Ish lavozimi ko‘tarilishi yoki soyabonli kokteyllarni ichishni baxt hisoblamaydilar. Ular uchun kichik baxtlar muhimroq”.

Boshqacha qilib aytganda, ular biz kabi “Baxt”ning orqasidan quvishmaydi, o‘zlarining mavjudliklaridan baxtlilar.

FINLANDIYADA INTERNET

2010-yildan Finlandiya hukumati internetni inson huquqi deb tan olgan. Aloqa kompaniyalari ADSL'dan to'lov olmaydi.

Elektr va suv kabi Internetni ham fuqarolik huquqi sifatida belgilaydigan, uzib qo'yishni yoki haddan tashqari qimmat narxlarni belgilashni taqiqlovchi qonun Finlandiyada kuchga kirgan. Internetga ulanishni "fuqarolik huquqi" sifatida qabul qiladigan mamlakatlar soni tez sur'atlarida ko'payayotgan bo'lsa-da, Finlandiya birinchi bo'lib bu borada qonun qabul qilgandi. Kuchga kirgan qonunga ko'ra, Finlandiyaning telekommunikatsiya kompaniyalari barcha fuqarolarga kamida 1 Mbit/s tezlikda internet aloqasini taqdim etishga majburdirlar.

Asosiy ehtiyoj – Internetga kirishni "inson huquqi" deb belgilaydigan qonunga binoan, hech bir kompaniya yoki sud fuqarolarni Internetdan uzib qo'yishi yoki o'chirtirib qo'yishga qaror qila olmaydi. Boshqacha qilib aytganda, Internet mamlakatdagi suv, elektr energiyasi va toza havo kabi inson ehtiyojlaridan biriga aylandi. Finlandiya dunyodagi eng "onlayn" mamlakatlardan biridir. Mamlakat aholisining 96 foizi Internetdan foydalanadi va Internetdan nafaqat ko'ngil ochish uchun, balki butun kundalik hayotida ajralmas yordam sifatida foydalanadi. Mamlakatdagi elektron hukumat dasturlari dunyodagi eng tizimli va tartibli operatorlardan biri hisoblanadi. Yangi qonundan

keyin kompaniyalar hanuzgacha internetga ulanmagan 4% xonadonga internet ulashga majburlar. Finlandiyada Internet tekin bo'lishi va davlat tomonidan 100% aholiga ta'minlanishi qonunlashtirildi.

O'ZBEKISTON VA FINLANDIYA TA'LIMIDAGI 13 FARQ

1. O'quv dasturi va darsliklar mamlakatimizda ta'limning asosiy qismi sifatida qaraladi. Ta'limning sifatsizligi, ko'pincha, bu ikkalasining aybi deb hisoblanadi. Finlandiyada juda oddiy o'quv dasturi mavjud va ko'p ham o'zgar-maydi. O'qituvchilar o'zlari o'qitiladigan kitoblarni tanlay-dilar, ammo darsliklar unchalik ko'p emas. Shunday qilib, Finlandiya ta'lim tizimida darsliklar asosiy qism bo'lishi u yoqda tursin, kerakli narsa ham emas.

2. O'zbekistondagi birinchi sinf o'quvchilarining ota-onalari "Bugun bolamiz matematikadan 5 oldi!" deb g'ururlanishlari mumkin. Rasmiy baholar bo'lmasa ham, o'qituvchilar o'z tashabbusi bilan testlarni katta fidoyilik bilan tayyorlaydilar va bolalarni imtihonga boy kelajakka tayyorlaydilar. Finlandiya o'quvchilari maktabning dastlabki olti yilida hech qachon baholanmaydi. Bu yerdagi talabalar birinchi bo'lib 16 yoshga to'lganlarida mamlakat miqyosida imtihon topshiradilar.

3. O'zbekistonda maktabda o'quvchi qayergadir chiqindi tashlasa yoki shunga o'xshash holat bo'lsa, erta-siga ota-onasiga shikoyat qilinib, chaqiriladi. Finlandiyada o'quvchilar tizimdagi barcha maktab ishlarini navbat bi-lan bajaradilar. Finlandiya maktablarida xizmatchilar yo'q, barcha ishlar o'quvchilar tomonidan amalga oshiriladi. Shunday qilib, ularning mas'uliyat hissi rivojlanadi.

4. Finlandiyadagi maktablar o'quvchilarga qulay bo'li-shi uchun mo'ljallangan. Sinflarda bajarish va yashash

orqali o'rganish modeliga mos joylar mavjud. Binolarning qurilish xususiyatlari o'quvchilarga xuddi uydagidek qulay bo'lishiga imkon beradi deb o'ylashadi. O'zbekistonda ko'p yillar davomida buyruq ostida o'quvchilar nazoratda ushlab turishga uriniladi. "Menga quloq soling" deb baqirib turadigan o'qituvchi oldida qanchalik yaxshi quloq solishlarini bilib bo'lmaydi.

5. O'zbekistonda xususiy maktablarda o'qish soati 8, davlat maktablarida esa 5-6 soat. Bu ham yetmaganidek, darsdan so'ng to'garaklar, qo'shimcha darslar, repetitorlar qo'shib shaxsiy darslar 12-14 soatni qamrab oladi. Finlandiyada esa kunlik dars 4 soatni tashkil qiladi va Jahon Ta'lim tizimlari reytingini ko'rib chiqsak, sifat va miqdor tushunchalari naqadar muhim ekanligi oydinlashadi.

6. O'zbekistondagi barcha o'qituvchilar o'zlarini kasbining eng yuqori cho'qqisida ko'rishadi. Imtihon natijalari yomon bo'lsa, odatda, o'rganishdagi qiyinchiliklar esga olinadi. Yilda bir yoki ma'lum yillarda bir marta malaka oshirish amalga oshiriladi. Shu sababli, kasbiy malakani oshirish bo'yicha doimiy ish olib borilmaydi. Finlandiyada esa o'qituvchilar haftasiga kamida 2 soat malaka oshirish kurslarida qatnashishlari kerak.

7. O'zbekistonda "Hech bo'lmasa, maktabda o'qituvchi bo'ladi" degan mantiq hali ham bor. Ammo Finlandiyada o'qituvchilik kasbi jamiyatning eng muhim kasblaridan biridir! O'qituvchilar magistr darajasiga ega bo'lganlar orasidan tanlanadi. Bakalavr bitiruvchilari orasida o'qituvchilik uchun ariza berganlarning atigi o'n foizi o'qituvchilarni tayyorlash dasturiga qabul qilinadi.

8. O'zbekistonda o'qituvchi bo'lish uchun institutni bitirsangiz kifoya. Finlandiyada o'qituvchi bo'lish uchun uch bosqichli sinovdan o'tishingiz kerak. Ushbu bosqichlar orasida muloqot va dars tushuntirish kabi bo'limlar mavjud.

9. Finlandiyada o'qituvchilarning daromad darajasi juda yaxshi. O'z ishidan boshqa ish bilan shug'ullanib, qo'shimcha daromad olishga intilayotgan o'qituvchilar deyarli yo'q. Mamlakatimizda qo'shimcha daromad olish uchun qo'shimcha dars o'tmaydigan o'qituvchilar deyarli yo'q. Chunki ularning maoshi, hatto, ehtiyojlariga ham yetmaydi ba'zida. O'qituvchilarning to'lovlarni to'lash uchun boshqa narsalar bilan kurashishi natijasida yuzaga kelgan vaziyat uchun hisobni butun xalq to'laydi keyin...

10. O'zbekistonda o'qituvchilar qancha ko'p uyga vazifa bersa, shuncha yaxshi bo'ladi deb hisoblashadi. Finlandiyadagi o'quvchilarga uy vazifasi berilmaydi. O'qish joyi maktab sifatida qaraladi. Shu sababli Finlandiyada kechqurun farzandining mehnatdan topshirig'i uchun kartonga gul chizib o'tiradigan ota-onalar yo'q.

11. Finlandiyada hech bir o'quvchi rassomchilik bo'limida o'qib, matematikadan dars qilib o'tirmaydi. Mamlakatimizda o'quvchilar matematikadan zerikishadi va daftarlariga rasm chizishadi. Keyin matematika o'qituvchisi bolani rasm darsida ushlaydi va uni matematikadan o'qishga olib boradi. Tizim shunday ekan, tizimning samarali shaxslarni ishlab chiqarishini kutish, albatta, qiyin.

12. Bizning sinflarda, agar barcha o'quvchilar o'z joylarida o'tirsa va ovozlari chiqmasa, o'sha sinf o'qituvchisi-

ni maqtashadi. Finlandiyada agar sinfdan ovoz chiqmasa, o'quvchilar o'z stollarida qatorlashib, hech joyidan turmasdan o'tirsa, o'sha sinf o'qituvchisi tekshiruvga olinadi. Chunki Finlandiya ta'lim tizimida dars tushuntiradigan o'qituvchi yo'q. Hamma narsani birgalikda bajaradigan mashg'ulotlar mavjud. Shuning uchun ham Finlandiya maktablaridagi sinflarda "aylanib yurma, o'tir joyingga" degan gap deyarli eshitilmaydi.

13. Fin maktab oshxonalarida suv, sut va mevalardan boshqa narsa yo'q. Bizda esa boshqacha. Har tanaffusda shokolad bilan shirinliklar iste'mol qiladigan bolalarni ketma-ket 6 soat davomida o'tirishga urinish o'qituvchilar uchun katta sinov! Ehtimol, shuning uchun bizda tanaffus bo'lishi bilan tez chiqib ketish bo'yicha rekordlar bor...

OQ NILUFARLAR YURTIDA

TARIXDAN IBRAT

Taxminan 50 – 60 yil oldin (1850 – 60)¹ Moskva davlat teatri devorlarida poydevordan tomigacha to'satdan chuqur yoriqlar paydo bo'ldi va bino yiqilib odamlarga zarar yetkazish xavfi paydo bo'lgan edi. Ushbu yoriqlar sababini tushunish uchun quruvchilar teatrning bir necha qismida poydevorni ochgandan so'ng, ular Moskvaning qulab tushayotgan teatr binosi bir vaqtlar yog'och poydevor ustiga qurilganini ko'rdilar. Quruvchilar yer yaxshi bo'lmaganligi sababli qalin qoziqlarni yerga qoqishgan va uning ustiga qalin tosh devorlar qurishgan.

O'sha davr darajasida ushbu poydevor yetarlicha mustahkam deb hisoblangan. Darhaqiqat, teatr binosi uzoq yillar davomida yaxshi turgan, ammo yillar davomida qalin qoziq ustunlari yer ostida chiriy boshlagani sabab, poydevor siljigan va buning oqibatida binoning devorlarida yoriqlar paydo bo'lgan. Quruvchilar muammoni hal qilishni o'ylay boshlaydilar. Binoni buzish o'rniga ular poydevorni burchaklaridan ochishni boshladilar; keyin ular chirigan qoziqlarni granit toshlar bilan almashtira boshladilar va asta-sekin butun poydevorni yangilagandilar. Shunday qilib, Moskva davlat teatrining eski binosi mustahkam poydevorga ega bo'ldi. Me'morlarning aqlli mehnati tufayli bino o'z xizmatini hali ham davom ettirmoqda.

¹ Kitob birinchi marta 1923-yilda nashr qilingan.

Davlatlarning tarixi va millatlarning hayoti ham Moskvadagi davlat teatri binosiga o'xshaydi. Davlat tuzumining eski poydevorlari, millatni boshqarishning eski usullari o'z davri uchun yetarli bo'lgan bo'lsa-da, bugungi kunda bu poydevorlar va eski ma'muriy usullar zaif va yetarli emas.

Mashhur bir maqol bor: "Yangi jamiyatlar o'zlari bilan yangi qo'shiqlarni olib kelishadi". Kun o'tgani sari odamlar o'zgarib bormoqda; yangilanmoqda. Har bir yangi avlod o'zining yangi g'oyalari, yangi orzulari bilan kelmoqda. Yangi avlodlarga ortiq eskirgan, chiriy boshlagan idora usullari majburlab tatbiq etilishi mumkin emas. Yangi nasllarga yana-da yangi, yana-da adolatli va mustahkam poydevorga asoslangan ma'muriy usullar qo'llanilishi kerak.

Aqlli boshqaruvchilarga ega bo'lgan mamlakatlarda bu ishlar quyidagicha amalga oshirilmoqda: Ushbu mamlakatlarda vayronagarchiliksiz, xalqning irodasi uchun yana-da yumshoq, yana-da to'g'ri va adolatli usullar qo'llaniladi.

Boshqa mamlakatlarda esa davlatni boshqarayotganlar millat irodasi va odob-axloqi bosqichma-bosqich takomillashtirilishi kerakligini tushunmaydilar yoki tushunishni istamaydilar. Agar biz davlatni bino sifatida qabul qilsak, binoning devorlari xarob bo'lmoqda; ko'plab yoriqlar paydo bo'lmoqda. Ammo tobora chuqurlashib va kattalashib borayotgan bu yoriqlarga jiddiy e'tibor berilmayapti.

Aynan shu sababli ko'rinishidan qudratli va buyuk davlatlarning yorilib ketishi yoki, hatto, qulayotganligi ajab-

lanarli holat emas. Eski Xon yiqildi. Eski Usmonli imperiyasi, sobiq Avstriya-Vengriya imperiyasi quladi. Rossiya ag'darildi.

Muqaddas Kitobda shunday tasvirlangan: Bir paytlar shafqatsiz hukmdor saroyining devorida olov bilan yozilgan so'zlar paydo bo'lganini ko'rishibdi: "MANE TEKEL FARES!" Hech kim bu so'zlarning ma'nosini bila olmabdi. Sudya Deniel bu so'zlarni quyidagicha ta'riflagan: "Bu olovdan yozuvlar dahshatli narsa bo'lishidan xabar bermoqda. Ularning ma'nosi shuki, eski davlat endi o'z kuchini yo'qotdi. Uning qulashini oldini olish mumkin emas".

Rim imperiyasi, Duk Alba hukmronligidagi Ispaniya, XV Louis ning Fransiya Qirolligi, Romanovlarning Rossiya, Hohenzollernlarning Germaniyasi, Gabsburglarning Avstriyasi hammasi bir xil yakun topdilar. Tarix ularga nisbatan ham hukm chiqargan: "MANE TEKEL FARES!".

Bu voqealarning hammasi haqida o'ylab ko'ring. Ha-sharotlar singari arzimas ishlaringiz va tashvishlaringiz balchig'iga tushib qolish o'rniga, davlat asoslarini yangilashga va bundan keyin jamiyatga qanday ta'lim berilishi haqida o'ylang.

Tarix ba'zi xalqlar va davlatlarning fojiali yakunini ham, shuningdek, ayrim davlatlar va millatlarning rivojlanishi va taraqqiyotini ham yozgan.

Tarix jamiyatlarga ta'lim berish orqali baxtli hayot kechirgani, davlat va uning muassasalarini mustahkamlagani, odamlarni qanday o'qitish kerakligi va tarbiyalanishini ko'rsatadigan bir ilmdir.

QAHRAMONLAR VA XALQ

Ba'zi davlatlar boshqaruvchilarining xatolari yoki qobiliyatsizligi tufayli halokatli inqirozlarni boshdan kechirmoqdalar yoki butunlay vayron bo'lmoqdalar. Ba'zi davlatlar aqlli va qobilyatli boshqaruvchilari tufayli o'z xalqlari uchun baxtli hayotni ta'minlamoqdalar. Davlat rahbarlari, maslahatchilar va davlat amaldorlari bundan ibrat olishlari kerak, ammo dars olishning o'zi yetarli emas. U davlatning xalqi: erkak-ayoli, yosh-qarisi, shaharligi-qishloqligi, ishchisi va amaldori – jamiyat taraqqiyoti va ta'limi uchun o'ylashi zarur.

Biz davlatning kuchliligi yoki zaifligini, jamiyatning taraqqiyoti yoki tanazzulini faqatgina davlatni boshqaradiganlarning qobiliyatli bo'lib-bo'lmasligiga qarab xulosa qilolmaymiz. Davlatni boshqaradiganlar - yaxshi yoki yomon, qahramon yoki zolim bo'lsa ham, o'sha jamiyatdan chiqadi va ular jamiyatning ko'pchilik qismi qanday bo'lsa shundaydir. Ya'ni bir jamiyat qanday bo'lsa, ularni boshqaradiganlar ham shundaydir. "Har bir xalq o'zi munosib bo'lganidek boshqariladi".

Afsuski, bugungi kunda ham yaxshi tushunilmagan bir mavzuni ochishni xohlayman: Millatlarning tarixi kimning ta'siri natijasida paydo bo'ladi? Davlatlar va insoniyat hayotidagi buyuk voqealarni kimlar rejalashtirib bosh-

qaradi? Bular bir dona yolgʻiz odamlarmi yoki ingliz faylasufi Karlylening aytgani kabi qahramonlar tomonidan amalga oshiriladimi? Yoki butun bir xalqning birgalikdagi saʼy-harakatlari va gʻayratlari tufaylimi?

Karlyle birinchi fikrning tarafdori va buni isbotlagan ham. Tolstoy esa ikkinchi fikrning tarafdori boʻlgan. Carlyle “Qahramonlar va tarixdagi qahramonliklar” asarida qahramonlar afsonasini va madaniyatini maqtaydi. Uning soʻzlariga koʻra, millat bir loy qatlamidir. Agar u bir haykaltaroshning qoʻliga tushmasa, u abadiy shaklsiz qoladi. Agar Sezar, Napoleon, Buyuk Pyotr, Suqrot singari haykaltarosh, bir qahramon chiqib kelib, bu loyni qoʻliga olsa, unga xohlaganicha shakl beradi.

Chingizxon Osiyo dashtlaridan millionlab odamlarni toʻplay oldi. Xitoy, Hindiston, Eron va Rossiyani bosib oldi. Ruhoniy Pierre l’Ermite Quddusni musulmonlar qoʻlidan olish uchun Xristian Yevropani oyoqqa turgʻazib, birinchi salib yurishlarini boshladi. Martin Lyuter “Islohotlar harakati”ni amalga oshirdi. Neron, Kaligula va boshqalar xatolari sababli Rim imperiyasini botirdilar. Bismark va Ghentsollern sulolasining notoʻgʻri siyosati Germaniyaga dahshatli ravishda muamollar keltirib chiqardi.

Karlylening fikriga koʻra, millatlarni va hatto butun insoniyat tarixini yaratganlar: Ramses, Romulus¹ Themis-

¹ Romus va Remus, mil.avv 753-yilda Rim mifologiyasiga koʻra, Rim shahrining asoschilaridir. Afsonalarga koʻra, Urush xudosi Mars va Reya Silviyaning egizaklaridir. Ularning ajdodlari Troyadan qochgan Afrodita oʻgʻli shahzoda Eney edi. Aeneas-Gektorning amakivachchasi. Romulus Rim shahriga birgalikda asos solgan akasi Remusni oʻldirib, taxtning yagona egasiga aylangan.

tocles¹, Bismark va boshqalar e'tiqodli, aqlli va iste'dodli odamlardir, ya'ni qahramonlardir.

Tolstoy buning aksini iddao qilib, insoniyatni boshqaradigan, voqealar rivojini belgilaydigan va ularning fe'l-atvori va rangini beradigan Napoleon kabilar emas, odamlar ommasi deb kelgan.

Tomas Karlyle "Tarixdagi qahramonlar va qahramonlar" asarida shunday yozadi: "Xalq yerda yotgan va chiri-yotgan somonga o'xshaydi. Buyuk insonlar, ya'ni qahramonlar osmondan tushadigan, somonni yoqib odamlarni jonlantiradigan va faollashtiradigan bir chaqmoq kabidir".

Tolstoy esa boshqacha yozmoqda: "Tasavvur qiling, dengizda katta kema harakat qilmoqda va bu harakatni oqim yaratadi. Ushbu oqim kemani harakat qildirmoqda, deb kim da'vo qilishi mumkin? Hamma kema oqimni hosil qilishini biladi. Quvvat kemadan keladi; oqim esa bu quvvatning natijasidir. Agar bir millat motivatsiyaga ega bo'lsa, o'z-o'zidan harakatni boshlab, o'zi kabi o'ylaydigan va harakat qiladigan bir kishini o'zlariga yetakchi qilib oladi".

"Urush va tinchlik" romanining muallifi Lev Tolstoy agar Thomas Karlylening qahramonni chaqmoqqa o'xshatishini bilganida edi, ehtimol, "Ha, buyuk odamlar qahramon, misoli bir chaqmoqdir. Biroq, xalq na bir loy qatlami ham,

¹ Fors urushlari paytida Afina assambleyasida xizmat qilgan afinalik siyosatchi va general. U afinaliklarning Fors hujumlariga qarshi dengiz flotini rozi qilishi va Salamis dengizidagi jangi orqali tanilgan. Uning davrida Afina dengiz flotidagi kemalar soni 70 dan 200 gacha ortdi. Shuningdek, u Marafon jangi kabi janglarni boshqarish orqali Fors-Yunon urushlari taqdirini o'zgartirdi.

somon uyumi ham emas. Chaqmoqni paydo qiladigan millatning o'zidir. Bulutlar elektr toki bilan to'ldirilganda, o'z-o'zidan chaqmoq bo'lishni boshlaydi. Agar bulutda elektr yo'q bo'lsa, bu shunchaki suv bug'ining uyumi, xolos, chaqmoq bo'lishi mumkin emas. Millatlar ham shunday. Agar millat buyuklik va qahramonlik unsurlariga ega bo'lsa, undan chaqmoq chiqadi; o'sha millat, xalqning orasidan qahramonlar chiqadi. Agar odamlar shunchaki suv bug'ining uyumi bo'lsa, hech qanday ichki va tashqi kuch ta'sirida chaqmoq yaratishini kutish befoyda" deb, qarshilik bildirgan bo'lar edi.

Bir qarashda bu ikki nazariya bir-biriga mutlaqo zid ko'rinadi. Karlyle haqmi yoki Tolstoy? Biroq, bu ikki nazariya o'rtasidagi qarama-qarshilik ko'rinishda bor, xolos. Aslida, ikkala nazariya ham bir-biriga qarama-qarshi emas; ular aslida bir-birini to'ldirmoqdalar. Karlyle ham, Tolstoy ham emas, balki "Karlyle va Tolstoy" deyish to'g'ri bo'ldi, chunki ikkalasi ham haq. Bular tangananing ikki tomoniga o'xshaydi va butun haqiqatning ikki parchasidir. Qahramon xalqni hayajonga soladi, ularni alangalaydi va bularni o'z millatidan olgan olov va hayajon bilan yondiradi.

Masalan, lupani misol qilib oling. Uning maqsadi quyosh nurlarini bir nuqtaga yig'ishdir. Minglab quyosh nurlarining yig'ilishi yog'och, qog'oz, somon, o't kabi narsalarni yoqib yuboradi; tosh, shisha va temirni qizdiradi. Xalqning ichidan chiqqan har bir buyuk odam ham lupaga o'xshaydi. U o'z xalqining eng kuchli tomonlarini birlashtiradi va ularning qalbiga olov yoqadi. Ammo ob-havo bulutli bo'lsa va osmon quyosh nurlarisiz bo'lsa, hech qan-

day lupa bir qor parchasini ham erita olmaydi yoki, hatto, bir tomchi suvni isita olmaydi.

Shvetsariya pishlog'i faqat baland tog'larda boqilayotgan sigirlarning sutidan tayyorlanadi. Turli davrlarda va turli xalqlarda o'sgan buyuk insonlar ham shundaydir. Ular gullashni boshlagan millatning o'zagidir. Napoleon eski tinchliksevar Xitoyda emas, Fransiyada katta bo'lgan. Angliya evolutsiya nazariyasining muallifi Darvinni, Rossiya esa yovuzlikka qarshi kurashish o'rniga passiv qarshilik g'oyasini ilgari surgan Tolstoyni tarbiyaladi. Buning aksi bo'lishi mumkin emas. Bu har doim va hamma joyda shunday bo'lgan. Germaniyani Jahon urushiga olib kirgan nemislarning urushqoq va vahshiy ruhi Bismark, Vilgelm, Xindenburg va Rurbax singari rahbarlarning ichida bor edi; qisqasi, faqat Vilgelm II aybdor emas edi. Rim imperiyasini Neron, Caracalla¹, Commodus² va shularga o'xshashlar yo'q qilmadi. Ma'naviy tomondan qashshoqlashgan va axloqsizlik botqog'iga botgan Rim xalqi "Har bir millat o'zi loyiq shaklda boshqariladi" degan maqolni tasdiqlab, o'zlari kabi imperatorlarni tanlaganlari sabab Rim imperi-

¹ Karacalla 186-yil 4-aprelda tug'ilgan. U 211-217-yillar orasida taxtga o'tirdi. U marhum Rim imperatorlari Septimius Severus va Yuliya Domnalarning to'ng'ich o'g'li edi. U Galliyaning Lugdunum shaharchasida Lucius Septimius Bassianus ismi bilan tug'ilgan, keyin yetti yoshida Marcus Aurelius bilan oilaviy bog'liqligini bildirish uchun ismini Marcus Aurelius Antoninus deb o'zgartirgan. Unga berilgan Karacalla taxallusi uning o'sha paytda moda bo'lgan bosh kiyimi Galtuniki kiyish odatidan kelib chiqqan deyishadi. Odatda, u Rim imperiyasining eng shafqatsiz va qonli imperatorlaridan biri sifatida qaraladi.

² Marcus Aurelius Kommodus Antoninus. 161-yil 31-avgustda tug'ilgan, 192-yil 31-dekabrda o'ldirilgan. 180-192-yillarda Rim imperatori.

yasi quladi. Ispaniya dunyoga inkvizitsiya va Loyolani, Germaniya esa Kruppni berdi. Har bir xalq davlatning boshiga aqlli, kuchli va iste'dodli rahbarlarni yoki ahamiyatsiz va qobiliyatsiz odamlarni qo'yadi. Ularning qaysi biri davlat rahbari bo'lishini odamlarning ruhiy holati va qadriyat-lari belgilaydi. Xalqning ongi, millatning irodasi va vijdoni rivojlanyaptimi yoki chirishni boshlab, tuban bir hayot tar-zida vayron bo'lib ketmoqdami?

Bu yerda, aslida, har birimizning turmush tarzimiz va fe'l-atvorimiz tekshirilmoqda. Biz o'z mamlakatimizda nima qilyapmiz; millatimiz kelajagida qanday rolimiz bor?

Janubiy yarimsharning iliq dengizlarida marjon orol-lari mavjud. Marjonlar ohaktosh uyumlaridir. Ko'z bilan ko'rish uchun juda kichik bo'lgan poliplarning mayda bo'laklari juda sekin o'sib, odamlar yashashi mumkin bo'lgan orollarga aylanadi. Ularning ba'zilar ko'proq o'sa-di va odamlar uchun yashashga mos holga keladi. Boshqa tomondan, bu issiq yarimsharda odamlar uchun haqiqiy muammoga aylangan kichik chumolilar ham bor. Bu chu-molilar yog'ochdan yasalgan buyumlarni va uylarni yeb, odamlarni tug'ilib o'sgan, yashagan yerlaridan qochishga majbur qilishadi.

Endi o'z vatanimizni o'ylab ko'raylik: O'lkamiz uchun qanday shaklda yashamoqdamiz? Quruvchimi yoki buzg'unchimizmi?

Biz mamlakat ravnaqi va farovonligi millatning sha'ni va qadr-qimmatiga bog'liq ekanligini 3,5 millionga yaqin aholisi bo'lgan Finlandiyani yorqin namuna sifatida kelti-ra olamiz. Yevropaning shimolida joylashgan Finlandiya

sovuq bir iqlimga ega. Havo odatda tumanli. Sovuqlar bahorda ham davom etadi. Avgust oyidan boshlab ob-havo soviy boshlaydi. Hosildor tuproq miqdori oz; Mamlakatning aksariyat qismlari granit toshlar bilan qoplangan. Mamlakatning qolgan qismi 10 mingdan ortiq ko'llar va botqoqlar bilan qoplangan. Yer osti boyliklari jihatidan juda qashshoq bo'lgan mamlakatda yaroqsiz yerlar tufayli qishloq xo'jaligi ishlari ham yetarli darajada emas. Yaqin vaqtgacha mustaqil davlatga ega bo'lmagan mamlakat aholisi doimo qo'shni xalqlar hukmronligi ostida yashab kelgan.

**IKUYNEN TAYSTELU
(CHEKSIZ KURASH)**

Finlar o'zlarini Suom deb atashadi va o'zlariga sevimli mamlakatlarini Suomi deb atashadi. Ushbu so'z "botqoq yer" degan ma'noni anglatadi. Men Finlandiyada turli vaqtlarda sayohat qilib, mamlakatning turli joylarida yashaganman. Men katta shaharlarda, ko'llar va o'rmonlar orasidagi chekka qishloqlardagi dehqonlar orasida bo'lganman. Finlarning kundalik hayotlarini, Rojdestvo, Pasxa va boshqa diniy kunlardagi o'yin-kulgilarini va odatlarini kuzatdim. Men fin musiqasi, rassomchiligi va teatr san'ati, adabiyot va arxitekturasi bo'yicha tadqiqotlar olib bordim va shuni chin dildan tan olishim kerakki, ushbu kuzatuvlarimdan so'ng fin xalqiga bo'lgan hayratim oshib bordi. Finlandiyaga har safar borganimda, men bu shimolliklarning chet elliklarga sovuqdek tuyuladigan, ammo nihoyatda mehnatsevar odamlarini tobora ko'proq qadrlay boshladim.

Helsinkida bo'lganimda, shahar teatrida "Ikuynen Taystelu" (Cheksiz kurash) nomli drama o'ynalayotganini bildim. Drama afishasida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, asar qahramonlari Odam Ato va Momo Havo, Qobil va Hobil hamda uning singillari, iblis va uning yordamchilaridan iborat edi. Teatrda borganimda bir ruhoniyning diniy masalalarga o'z munosabatini yaqqol aks ettiradigan zerkarli voqeani uchrataman deb o'ylardim, lekin spektakl men kutganimdan mutlaqo teskari edi. Asar chuqur fal-

safiy va madaniy ma'nolarni o'z ichiga olgandi. Taystelu yozuvchisi Linnankoski o'zining aqlli, iste'dodli va o'ziga xos intellektga ega odam ekanini isbotlagandi. U Qobilni barcha e'tiqodlarda bo'lgani singari ukasini o'ldirgan yomon qalbli odam emas, balki ijobiy obraz sifatida ko'rsatgan va shafqatsizlikka qarshi turib, zulmga qarshi kurashadigan Prometey¹ kabi bir shaxsga aylantirgandi. Hayot beradigan azoblar oldida itoatkor qo'y bo'lishni xohlamagan, yaratuvchi kuchga sohib ekanligini his qilgan va o'ziga juda ishongan Qobil, insoniyatga yana-da yaxshi kelajakni olib kelish uchun yovuz kuchlarga qarshi kurashishga tayyor bir obrazga aylangan.

Dunyoni larzaga keltiradigan chaqmoq chaqib, osmon chaqmoqning olovida yonib keta boshlaganda hamma qo'rquvdan titrab, yashirinishga urinadi. Faqat Qobil qat'iylik bilan turadi. U Hobil, singillari va ota-onasiga gapirishni boshlaydi: "Bechora kichkina chuvalchanglar, sizlar faqat qo'rquvdan titrab, yerda sudralishni bilasiz. Qo'rquvning farzandlarisizlar va siz dinni qo'rquv, titroq, shikoyat va doimiy ravishda biron narsaga intilish deb bilasiz. Agar siz ruhan Xudoning haqiqiy farzandlari bo'lganinigizda edi, barchangiz hayotning yaratuvchisi bo'lib, ko'tarilardingiz. Hozirgidek yerda sudralmas, boshingizni yerga egmas edingiz".

¹ Gesiodosning fikriga ko'ra, Prometey Lapetos va Klymenening o'g'li va Atlas, Menoitios va Epimeteylarning ukasi. Ba'zi matnlarda Prometeyning onasi Osiyo va uning ukasi Atos sifatida ko'rsatilgan. Prometey boshqa birodarlar kabi ilohiy tartibga qarshi turdi va qarshi chiqdi; Boshqa birodarlaridan farqli o'laroq, u oxir-oqibat odamlarni yaratish va ularga olovni – ijod, ilm-fan, sivilizatsiyani berish orqali ushbu tartibni o'zgartirishga muvaffaq bo'ldi.

O'zidan qo'rqiladigan va yolg'iz qolgan Qobil o'z shubhalari, muvaffaqiyatsizliklari va mavhumliklari bilan azob chekib, yolg'iz o'zi kurashadi. Jannatdan quvilgan oila a'zolari o'tmishning xotiralari bilan yashayotgan bir vaqtda, Qobil yorqin kelajak haqida o'ylaydi. Olovni borligidan xursand va baxtli. Bir joyda turolmaydi, sakrashni boshlaydi, qo'shiqlar kuylaydi va olovni maqtaydi: "Endi men yolg'iz emasman, yonimda sen kabi qudratli kuch bor. Sen bizga tun qorong'usini yoritib berasan, sovuqni haydab chiqarasan va qattiq minerallarni eritib berasan". Qobil madaniyat hukmronlik qiladigan dunyoni orzu qiladi. O'zini kuchli, g'ururli va yengilmas his qiladi; tabiatga qarshi chiqishni boshlaydi. U hayot darajasining yuqori darajasiga erishish uchun doimiy kurashish kerak, degan fikrni ma'qullaydi. Bu kurash tabiatning qattiq yuziga va o'zidagi qo'pol ehtiroslarga qarshi urushdir. Xudoga va dinga bo'lgan ishonchning asosi qo'rquv va itoatkorlikmi yoki yorqin va yaratuvchan kuchmi, degan qizg'in bahs-munozaralar paytida Qobil o'zini yo'qotadi va ukasini o'ldiradi. Ukasining o'limidan dahshatga tushib, u madaniyat va rivojlanish uchun kurash ko'p qirrali bo'lishi kerak, deb o'ylaydi. Ushbu Cheksiz kurash madaniyat odamlarining johiliyatga qarshi davom etayotgan urushidir.

Yozuvchi asaridagi Qobilni tanqid qilish va unga baho berish mening ixtiyorimda emas, shuningdek, Qobilni rivojlanish va jaholatga qarshi kurashning yetakchisi sifatida ko'rsatish qanchalik real va ishonarli, bu mavzuga ham o'tmoqchi emasman, deydi. Muhimi asarning mavzusi. Qobil tomonidan aytilganidek, haqiqiy insoniy yoki xayoy-

liy xarakter ifodalashi mumkin edi. Odamlar hech narsa uchun egilmasliklari yoki yer ostiga yashirinmasliklari kerak. Hayot deb ataladigan narsa – bu doimiy madaniy rivojlanish va ijodkorlik, ichki va tashqi kuchlarga qarshi doimiy kurashishdir. Agar siz finlarni sinchikovlik bilan kuzatib borsangiz, “Ikuynen Taystelu”. asarida olib chiqilgan mavzu va yozuvchi tomonidan yaratilgan Qobil obrazini yaxshiroq tushunishingiz mumkin, chunki yozuvchi o‘z asarida Finlandiya ruhini aks ettirgan. Bu ruh – kelajakni yoritadigan har bir nurni va qanchalik kichik bo‘lishidan qat’iy nazar mamlakatdagi rivojlanish jabhalarini himoya qilish uchun qilinayotgan qattiq va qat’iyatli madaniy kurashning ruhidir.

Kichik bir sohil shahri bo‘lgan Abo¹da shahrini o‘rab turgan tepalikning orqasida me‘moriy jihatdan juda estetik tarzda qurilgan yangi sa‘nat muzeyi mavjud. Binoning ichida ham, tashqarisida ham bo‘lgan har bir chiziq, tosh, zinapoyalar, qisqa qilib aytganda, har bir narsaning dizayni juda chiroyli tarzda qilingan. Muzeyda faqat finlandiyalik rassomlarining rasmlari va haykallari namoyish etiladi. Muzeydagi asarlarning badiiy qiymati garchi unchalik son jihatdan ko‘p bo‘lmasa ham fin san‘ati uchun g‘urur manbai. Muzeydagi rasm va haykallar Finlandiya rassomlarining yuqori texnikasi va asarlarining g‘oyaviy chuqurligini ochib beradi. Muzeydagi haykallar orasida Emil Wikstromning “Finlandiya” deb nomlangan katta haykali, alohida e‘tiborni tortadi. Haykal uchun oddiy obraz tanlan-

¹ Åbo – Finlandiyaning g‘arbiy qirg‘og‘idagi qirg‘oq shahri. Bu Finlandiyaning eng qadimiy shahri bo‘lib, shuningdek, 1809-yildan 1812-yilgacha Finlandiyaning poytaxti bo‘lgan.

gan: yosh, kuchli va haybatli fin ayoli. Biroq, haykaltarosh bu asarga o'xshash asarlarida kamdan kam uchraydigan buyuk fikr va hissiyotlarni qo'shib, Finlandiyaning tanasida katta, juda muhim va ayni paytda hozirgi zamondan uzoq bo'lgan chuqur bir tushunchani aks ettirishga muvaffaq bo'lgan. Haykalning chap qo'li pastda, sochlarining orasida yo'qolgan o'ng qo'li esa chuqur o'ylardan og'ir bo'lgan boshini ko'kragiga tushib ketishiga yo'l qo'yamaypti. Uning iztirob va qayg'udan holi yuz ifodasi xuddi o'tmishda boshdan kechirgan bir og'riqli kunning soyasini o'zi bilan olib yurgandek. Vikstromning "Finlandiya" haykalining yuzida avvalgi azob-uqubatlarning izlari deyarli sezilib turadi. Hozir baxtli, kuchli va kelajagiga ishongan bu yuz, yosh qiz bo'lgan vaqtlari yomon hayot kechirgan ayolning yuzidir. O'tmishdagi og'riqli davr unutilgan bo'lishi mumkin, ammo yuz bergan voqealar finlandiyaliklar uchun yo'qolishi qiyin bo'lgan bir iz qoldirgan.

Edelfeldt, Xebxart, Enkkel, Vesterxolm, Halonen va boshqa fin rassomlari o'zlarining kichkina va kambag'al mamlakatlarini sevadigan barcha finlar singari mamlakatlarning tabiiy go'zalliklarini o'zlarining rasmlarida nafis tuyg'ular bilan aks ettirganlar, ammo rassomning o'tkir ko'zlariga qaramay, sokin va tabiiy yolg'izlik tuyg'usini aks ettiradigan Finlandiya tabiatining ulug'vorlikka va rang-baranglikka ega bo'lmaganligi sababli tomoshabinlar ko'zlarini ololmay qoladigan manzaralarni topishda qiynalishgani ko'rinib turibdi. O'tlar bilan qoplangan toshlar, granit qoyalar, qarag'ay o'rmonlari, xira va dahshatli botqoqliklar, xira osmon ostida cho'zilgan yashil

ko'llar... Mamlakat har tomonida shunga o'xshash tabiat manzaralariga duch kelasiz, hamma joyda qarshingizga o'rmonlar va qoyalar chiqadi. Har tomonda tosh uyumlari va shakar kabi porlaydigan granit qoyalari bor. Boshi ko'rinmagan o'tin uyumlari uzayib ketaveradi, taxta va yog'ochlar tog'ga o'xshab ko'tarilaveradi. Qatron bilan to'ldirilgan minglab bochkalar sohil va portlarda to'plangan. Mamlakat har jihatdan kambag'al bo'lsa-da, odamlarning kuch-qudrati va mehnatsevarligi, kambag'al bo'lsa ham, o'z yerlariga bo'lgan sadoqati va sevgisi jihatdan juda ham boy.

Helsinki shahridagi Ateneum muzeyi¹ Finlandiyaning eng muhim muzeyi bo'lib, unda Pekka Halonen, Yuxana Blomstedt va Xuho Rissanen kabi taniqli rassomlarning rasmlari mavjud. Ushbu asarlar finlarning o'z mamlakatlari yashashga yaroqli holga kelishi uchun juda ko'p kuch va harakat sarflaganini va buning uchun juda ko'p fido-yilik ko'rsatganligini aniq ko'rsatib turibdi. Ko'pgina rasmlarda quyidagi manzara mavjud: Qishloq aholisi dalalarni tozalash va ularni ekishga tayyor qilish uchun daraxtlarni kesib, ildizlarini yoqmoqda, dalalarni tosh va qoyalardan tozalamoqda, tuproqlarni granit toshlarni ustiga to'kmoqda. Tuproqdan foydalana oladigan holga keltirish uchun bir necha avlodlar astoydil harakat qilishgan. Tabiat botqoqlik, ko'llar va qoyalar bilan qoplangan bir o'lka

¹ Ateneum – Finlandiyadagi eng yirik muzeylardan biri. Muzey mamlakat poytaxti Helsinki shahrida, Helsinki markaziy poezd stantsiyasi qarshisida joylashgan. Muzeyda mumtoz san'atning keng turlari namoyish etiladi. Ilgari Ateneum binosi Finlandiya tasviriy san'at akademiyasi va Helsinki rassomlik va dizayn universiteti sifatida ishlatilgan.

yaratib insonlarni masxara qilgandek edi, inson esa tabiatning urushga da'vatini qabul qildi, u bilan kurashdi va nihoyat bu urushda g'alaba qozondi.

Finlandiyaning ko'plab shaharlarida granit uyumlariga duch kelish mumkin. Hatto, bu toshlardan tashkil topgan baland tizmalar ba'zan butun ko'cha yoki mahalla bo'ylab cho'zilganini ko'rishingiz mumkin. Agar Bosniya va Gersegoviniyaning yalang'och tepaliklarini ko'rgan bo'lsangiz, finlarning qilgan ishlarini tasavvur qilishingiz mumkin. Rossiyaning Novgorod va Pskov shaharlarida ham xalq tomonidan "shayton shakarligi" deb atalgan shunga o'xshash tosh uyumlari bor. Finlar toshlar ustiga unumdor tuproqni to'kib, daraxtlar va gullarni o'stirishga muvaffaq bo'lishgan va "shayton shakarligi"ni park va bog'larga aylantirishgan. Linnakoski "Qobilni menga bering, men ilhom kuchim bilan uni ham o'zgartiraman va rivojlanish, madaniyat uchun kurashadigan qat'iy odamga aylantiraman", demoqda.

Finlandiyaliklar bir asrlik mashaqqat va harakatdan so'ng o'z mamlakatlarini go'zal va yashashga yaroqli joyga aylantirdilar. "Bizning baxtimizga botqoqliklar va toshlar tushdi, lekin biz ularga ishlov berdik va madaniyatli mamlakatni qurdik". Ushbu yutuqlarning barchasiga uch millionga yaqin aholisi bo'lgan mamlakat tomonidan erishildi. Mamlakat aholisi 2,300,000 fin va 400,000 shvedlardan iborat.

Finlandiya (Suomi) bilan tanishishni boshlagan kishining hava's qilishi tabiiy. Mamlakatda hamma narsa, shu jumladan, shaharlar ham kichik va mamlakatning tabiiy

boyliklari kam. Ushbu barcha salbiy holatlarga qaramay, erishilgan farovonlik darajasi e'tiborsiz qoldiriladigan darajada emas. Rossiyada odatlanib qolingan tartibsizlik, buzilish, e'tiborsizlik va ifloslanishning izi ham yo'q. Sankt-Peterburgdan uch yarim soat uzoqlikda joylashgan Vyborgdan, e'tiboran, butunlay boshqacha mamlakatda ekanligingizni his qilishni boshlaysiz. Vyborg, Kuopio, Uleaborg, Vaasa va Tavastgus kabi kichik shaharlar o'yinchoqqa o'xshaydi. Bu yerdagi binolar namoyish qilish uchun kartondan yasalgan modellardek taassurot qoldiradi. Ko'chalar keng va toza. Uylarning hovlilari top-toza, ichlari qulay va shinam. Mehmonxonalarda va pochta stansiyalarida tozalik, yangi oziq-ovqat va boshqa qulayliklarni juda arzon narxlarda toppish mumkin. Bularning barchasiga qo'shimcha ravishda xalqning halolligi chet elliklarda juda katta taassurot qoldiradi.

Poytaxt Helsinki – biz slavyanlar uchun yorqin va aniq bir namunadir. Odamlarni bezovta qiladigan dabdababozlik, isrofgarchilik va behuda narsalardan asar ham yo'q. Shahar markazidagi asosiy maydonda joylashgan vokzal, uning yonidagi Finlandiya davlat teatri, san'at maktabi joylashgan Ateneum muzeyi, parlament binosi va boshqa hamma joyda tejamkorlik, soddalik, estetika va tozalik hukmronligini osongina ko'rish mumkin. Vokzalning shahar maydoniga qaragan qismi soddaligi, ulug'vorligini aks ettirib, insonni hayratga soladi. Na keraksiz dabdababozlik, na odatiylik yo'q. Vokzal ichidagi bo'limlar (kassa, pochta va boshqalar) osongina topish mumkin bo'lgan tartibda ishlab chiqilgan. Teatr binosi yangi davr

fin arxitekturasining odatiy namunasi. Yangi qurilgan binolarda qo'llanilgan me'morchilik mamlakat uchun faxrdir. Yangi qurilgan uylar, banklar, teatrlar, muzeylar, cherkovlar, hatto, fabrikalar va o't o'chirish punktlari ham bir sa'nat asari kabi qurilmoqda.

Agar finlar o'rta asrlardagi florensiyaliklarga o'xshash edi desak, mubolag'a qilmagan bo'lar edik. Hatto, eng sokin va tanho ko'chalarda ham Florensiya – bu siz oldida tushingiz va soatlab hayratga tushishingiz mumkin bo'lgan juda ajoyib eski uylarga ega bo'lgan yagona shahar. Finlar ham florensiyaliklarga o'xshaydi. Toshlar, botqoqlar, ko'llar va o'rmonlar orasida yashovchi xalqning shunday kuchli va tobora rivojlanib borayotgan estetik tushunchaga ega ekanligi hayratlanarli.

Helsinki va Abo (Turku)dagi muzeylarni joyida ko'rib chiqish to'g'ri ish bo'ladi. Ushbu muzeylardagi badiiy asarlar soni Yevropaning boshqa mamlakatlaridagi muzeylardagi kabi ko'p emas; biroq, mavjud bo'lgan asarlar ham juda chiroyli, ham badiiy qadri yuqori. Rassomlik sa'natida juda muvaffaqiyatlidirlar; haykaltaroshlik san'ati esa rasm chizishdan ham ko'ra yana-da rivojlangan. Arxitektura esa hammasidan yuqori nuqtaga chiqqan. Bir Finlandiyalik ishni tashqi devorlardan boshlaydi, keyin uyning ichki dizayni va jihozlanishi bilan shug'ullanadi.

Men Helsinkida bo'lganimda bolgar yozuvchisi bilan birga edim. U uzoq vaqt davomida maydonning o'rtasida, Finlandiya teatrini ko'rinadigan joydan turib, uzoq vaqt hayrat bilan tomosha qildi va binoning barcha tomonlarini o'rganib chiqib: "Ha, men buni tushunaman. O'ziga xos

xususiyati bor. Ko'rishdan zavqlanadigan binoni keyin ham unutilmaysan. Bu Sofiyadagiga o'xshamaydi, u yerda juda ko'p pul sarflab, sandiqqa o'xshab ko'rinadigan Xalq teatri binosini qurishdi", – dedi.

Albatta, teatr binosi yagona misol emas. Finlar, agar xohlasalar, har biri san'at asari bo'lgan binolar tasvirlangan katta rasmlı albom tayyorlardilar. Abo (Turku)dagi san'at muzeyi, Tamperedagi¹ qurilgan yangi protestant cherkovi kabi binolar bunga misoldir. Bu binolar sa'nat jihatdan qiymatlidir. Binolarning tashqi devorlaridagi har bir toshni xuddi ishchilar emas, balki sa'nat ustasi qo'ygandek. Har bir derazalari, eshiklari, kichik minoralari, zinapoyalari va yerga yotqizilgan toshlari me'moriy go'zallikka ega. Abo shahridagi muzey joylashgan tepalikka zinapoyalar orqali yetib boriladi. Tamperedagi cherkovning atrofi devor bilan o'ralgan. Zinapoyalarning uslubi, tosh panjaralarning tarzi, cherkov devorlariga toshlarning joylashishi va plitkalar odamlarning estetik tuyg'usiga xitob qilmoqda go'yo.

Muzey ichidagi yog'och zinapoyaning har bir qadami, devor bezaklari, rasm ramkalari, zinapoyalar panjaralariga qo'yilgan mayda gulzorlardan to'lib toshgan nafis gullar o'zlari ichida ham va umumiy olganda ham juda chiroyli bo'lib, yuqori badiiy mahorat mahsuli bo'lgan binoning sodda va jozibali go'zalligi o'ziga tortadi.

Ushbu yutuqlarning barchasi mamlakatning cheklan-

¹ Ateneum – Finlandiyadagi eng yirik muzeylardan biri. Muzey mamlakat poytaxti Helsinki shahrida, Helsinki markaziy poyezd vokzali qarshisida joylashgan. Muzeyda mumtoz san'atning keng doiralari namoyish etiladi. Ilgari Ateneum binosi Finlandiya tasviriy san'at akademiyasi va Helsinki rassomlik va dizayn universiteti sifatida ishlatilgan.

gan resurslari bilan qo'lg'a kiritildi, chunki na Finlandiya boy mamlakat, na Finlandiya aholisi. Mamlakatning uch millionga yaqin aholiga ega ekanligi sababli iste'dodli insonlar qidirib yo'lg'a chiqsangiz, biroz qiyin bo'lishi mumkin, ammo Finlandiya havas qilinadigan davlat ekanligini o'zgartirmaydi bu.

Xo'sh, bu muvaffaqiyatning siri xalqning juda iste'dodli ekanligidami? Hatto, eng qoni qaynoq finlar ham bunday da'vo qilmaydi. Masalan, mamlakatda yashovchi ruslar iste'dodi va ishlashga ishtiyoqi jihatidan finlardan yoki dunyodagi boshqa odamlardan qolishmaydi. Ishning siri boshqa joyda: turli xil ishlash uslublari mavjud. Qattiq kuch, texnologiyadan uzoq bo'lgan ish uslubi bilan zamonaviy bilim va ta'limga asoslangan ish uslubi o'rtasida juda katta farq bor. Bilimga asoslangan mehnat va texnologiyalar ancha samaralidir.

Rossiyaga qaram bo'lgan vaqtda bosim ostida, istaksiz va majburiy ishlar bo'lgan va bunga og'ir va qiyin mehnat sarf qilingan bo'lsa; hozirgi kunda insonni jonlantirib, qush kabi qanotlantirgandek erkin va yaratuvchan insonlarni qo'llab-quvvatlash orqali ishlanmoqda. Finlandiyaliklarning va Rossiyaliklarning ishlashi orasidagi farq mana shu nuqtada o'rtaga chiqmoqda.

Finlandiyaning oz va unumdor yerlarida odamlarni boqish uchun yetishtirilgan bug'doy yetishmaydi va mamlakat asrlar davomida bug'doyni chetdan olib kelmoqda – bu miqdor hozirda 30% atrofida, ammo shunga qaramay, Finlandiyada na och qolayotganlar va na tilanchilik qilayotganlar bor. Bosniya yoki Dalmatiyaga qadar yer

maydoniga ega mamlakatda bitta universitet, bitta texnika maktabi, ellik bitta litsey, yigirma uchta kasb-hunar maktabi, sakkizta o'qituvchilar maktabi, yettita dengiz maktabi, to'qqizta savdo kasb-hunar kolleji, o'nta texnikum, yigirma to'rtta qishloq xo'jaligi kasb-hunar kolleji va qizlar maktabi kabi ko'plab boshqa ta'lim muassasalari mavjud. Ushbu maktablarni o'z ko'zlari bilan ko'rgan va ularning butun mamlakat bo'ylab qanday taqsimlanganligini o'rgangan odamning ta'limga berilayotgan bunday ahamiyatdan ta'sirlanmasdan iloji yo'q.

Finlandiyaning barcha maktablari nafaqat arxitekturasini, balki tozaligi va sog'lom sharoitlari bilan ham katta taassurot qoldiradi. Katta derazalari va baland shiftlari, keng yo'laklari, ajoyib shamollatish tizimi, qulay va foydali maktab mebellari, o'quvchilar o'ynashi mumkin bo'lgan toza va keng hovlilar, jihozlangan sport zallari mamlakatdagi maktablar beradigan imkoniyatlar haqida tushuncha hosil qiladi kishida. Bir misol keltiradigan bo'lsak, faqat Vyborg shahridagi rus, fin va shved tillarida dars beradigan qizlar maktablari, rus va shved kasb-hunar kollejlari, shved va fin litseylari va kasb-hunar litseyi, yoshlarga mo'ljallangan fin ta'limi maktabi, rus va fin davlat maktablari, Savdo, Dengizchilik va san'at kollejlari, qizlarning kasb-hunar kurslari, Shvetsiya va Finlandiya tayyorlov maktablari va san'at maktablari mavjud.

Kuopioda o'n besh ming kishi yashaydi va u yerda ruhoniylar maktabi, litsey, texnikum, ko'rlar, kar va soqovlar uchun maktab, sanoat maktabi, qizlar litseyi, savdo maktabi, bir nechta davlat maktablari, to'qqiz yillik Shvet-

siya o'g'il bolalar va qizlar maktabi hamda yetti yillik fin maktablari mavjud.

Tavastgus – tinch bir shahar va bu yerda olti mingga yaqin aholi istiqomat qiladi. Men bu boshidan u boshigacha piyoda 7-8 daqiqada bordim. Tavastgusda mehmonxona va uning katta zalida teatr o'yinlari o'ynaydigan restoran bo'lsa-da, sakkiz yillik o'g'il bolalar o'rta maktabi, o'qituvchilar maktabi, trikotaj kasb-hunar kolleji, findcha va shvedcha ta'lim beradigan ikkita qizlar o'rta maktablari, qizlar va o'g'il bolalar uchun ikkita davlat maktabi, boshlang'ich maktab, ishchilar uchun yakshanba maktabi, Erkin cherkov yakshanba kuni maktabi, ta'mir maktabi, tayyorgarlik maktabi, qamoqdagi mahbuslar uchun maktab va rus tilida dars beradigan maktab mavjud. Rossiya-da shuncha maktabga ega olti ming kishilik shaharchani ko'rsating, iltimos.

Abo (Turku) shahar hokimiyati yillik 1,150,000 rubl miqdoridagi daromadining 200,000 rubli maktablarga sarflanadi va maktablar yaxshi jihozlangan holatda. Yoshligimda uzoq yillar Sankt-Peterburgdagi litseylarda dars berganman. Kichkina va odamlar ko'p bo'lgan sinflarda toza havo yo'qligi sababli, soat o'n ikkidan keyin nafas olishning o'zi qiyinlashadi. Xayollari chalg'igan talabalar ma'ruzani tinglay olmasliklari sababli o'qituvchilar yana-da asabiylashadi. Bularning barchasi mamlakat poytaxtida sodir bo'ladi.

Viborg va Tavastgusdagi litseylar, Helsinki shahridagi qizlar maktabi me'moriy jihatdan kichik saroylarga o'xshaydi. Maktab binolari Finlandiyani yana-da chiroyli-

roq ko'rsatadi. Abo (Turku) shahri kanali bo'yidagi tepalikda joylashgan qal'aga o'xshash bino dengiz maktabidir. Shahar muzeyiga ketayotib, did bilan bezatilgan va boylarning uyiga o'xshab ko'rinadigan yorug' bir binoga duch kelasiz. Aslida, bu bino tijorat maktabidir. Vyborgdagi katta derazalari, baland shiftlari va ikki qatorli derazalari, zallari bo'lgan maktablar bir-biriga yaqin va alohida bir mahalla kabidir.

Maktablarda maxsus o'quv rejasi mavjud: soat 8-10 orasida ikki soatlik dars, keyin uzoq tanaffus va soat 14-16 da takroriy darslar. Shu tarzda o'quvchilar havosiz sinflarda uzoq vaqt o'tirish azobidan xalos bo'lishadi va o'zlariga ajratadigan vaqtga ega bo'ladilar.

Finlandiyalik yoshlarning mushaklari, ko'krak qafasi, o'pkasi, qo'llari va oyoqlari rivojlangan va ularning sog'lig'i ham yaxshi, chunki ular bo'sh vaqtlarida qishda chang'ida uchish, kurash, suzish, to'p o'ynash va yugurish kabi sport mashg'ulotlari bilan shug'ullanadilar.

Finlandiyada siz bahordan boshlab ko'chalarda yalangoyoq yurgan bolalarni uchratishingiz mumkin. Ularning yaxshi kiyinganligi ularning poyabzalsiz yurishlari qashshoqligi sababli emasligini ko'rsatadi. O'quvchilarga qaraganingiz sari bahri dilingiz ochiladi. Biz rus bolalarida ko'rishga odatlanib qolgan sovuq, charchagan va kasal yuz ifodasidan asar ham yo'q. Bolalar va o'spirinlar oq qo'ziqorinlar kabi sog'lom bo'lib o'sadi va chiroyli xamirdan yasab qo'yilgandek ko'rinadi.

Finlar shunday deydi: "Ta'lim – bu bizning asosiy boyligimiz. Rossiya Ural tog'larining boy mineral konlari va

Sibirning oltin zaxiralari bizda yo'q. Tabiat bu borada bizga ziqnalik qilgan. Biz bu kamchilikni tirishqoqligimiz bilan qoplashimiz va xalqimizdan mamlakatimiz taraqqiyotiga maksimal darajada o'z hissasini qo'shishini so'rashimiz kerak. Ingliz po'latini yana-da mustahkam qilish uchun fabrikalar qayta ishlanganidek, bizlar maktablarda yoshlarimizni mustahkam va bardoshli bo'lishlari uchun tarbiyalaymiz. Biz botqoqlar va ko'llar orasida, toshlar va qoyalar ustida qurganimiz, bizga farovonlikda yashashimizga imkon beradigan va hozircha orqada qolgan rus xalqi uchun uzoqdagi orzu bo'lib tuyulgan bu tartib ta'limga asoslangan. Ta'limimizni qo'limizdan olib qo'ygan oningiz, biz xamirturushsiz xamir kabi cho'kib qolamiz".

Mamlakatdagi ta'lim tizimining juda rivojlanganligi va keng tarqalganligi, tabiiy ravishda, xalqni o'qishga undaydi, gazeta va kitoblarni o'qish odatini ko'paytiradi.

Abo shahridagi muzeyda Akseli Gallen-Kallelaning qalamiga mansub juda chiroyli rasm mavjud. Rasmda yalang'och devorlari bo'lgan kambag'al baliqchining kulbasi tasvirlangan: devorga suyangan stul, taxta stol, polda eski baliq to'rlari, shiftda chiqib qolgan taxta bo'lagiga osilgan va non o'rniga iste'mol qilinadigan quritilgan javdarlar. Chol baliq to'rini to'qish orqali uni tuzatayotganda, faqat ko'ylak kiygan 7-8 yoshli kichkina qiz kursida o'tiribdi va so'zlarning talaffuzida qiynalganiga qaramay, cholga kitob o'qimoqda. Oilaning qolganlari ishga ketishgan, uyda eng yosh va eng keksa a'zosi qolishgan. Ular vaqtlarini kitob o'qish bilan o'tkazmoqda.

Har tarafida maktablar bo'lgan mamlakatda ko'plab gazetalar chiqadi va har bir shaharchaning o'z mahalliy gazetolari mavjud. O'n sakkiz ming aholisi bo'lgan Viborgda ikkitasi fin tilida, ikkitasi shved tilida bo'lgan to'rtta gazeta nashr etiladi. Deyarli har bir oila gazetaga obuna.

Bir voqeani eslayman: qishloqlarning birida kambag'al inson yashaydigan, ammo juda toza ikkita kulba bor. Kulbalardan biri yolg'iz yashaydigan oyoqsiz qariyaga, ikkinchisi o'n yoshli nabirasi bilan yashaydigan ko'r va qari bir kampirga tegishli. Bu ikki keksa va kambag'al odamlar birgalikda gazetaga obuna bo'lishgan. Kichkina qiz pochtaga boradi va har kuni gazetani oladi, uyga kelganidan so'ng, ko'r buvisining qo'lidan tutib oyoqsiz cholning uyiga olib boradi va ikkisiga gazetani o'qib beradi.

Finlandiyada aholining o'qimagan va kambag'al qatlamlari ham o'lishdan oldin o'z fikrlari bilan yashaydilar. Odamlar hech qanday tarzda qashshoqlikdan uyalishmaydi va ular o'zlari xohlaganlaridek yashashadi.

Xuddi o'rmondagi yangi va jonli o't kabi bu yerda yashovchi har bir kishi ustiga qulab tushgan barglarning eski va chirigan uyumlaridan chiqib ketishga va o'z hayotlarini to'liq yashashga intilmoqdalar.

Miina Sillanpaa yaqin vaqtgacha oshpaz bo'lib ishlayotgan edi. U o'z-o'zini o'qitish orqali rivojlandi va maqolalar yozish orqali ishlaydigan ayollarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan nufuzli harakatga rahbarlik qila boshladi. Keyinchalik Miina ko'plab muhim masalalarni kun tartibiga olib chiqdi, shundan so'ng u deputat etib saylandi va Finlandiyaning siyosiy hayotida muhim rol o'ynadi.

Finlandiyada erkaklar qatori ayollar ham Xalq Majlisi saylovlarida qatnashadilar va parlamentga saylanishi mumkin. Parlamentdagi ayol deputatlar ilgari ko'rib chiqilmagan va hamma e'tibor bermagan masalalarni muhokama qilishlarini ta'minlamoqdalar. Oila, nikoh va ayollarning ijtimoiy hayotdagi o'rni bilan bog'liq masalalar qaytadan ko'rib chiqilmoqda. Finlandiya boshqa Yevropa davlatlari hali qila olmagan ishni qilib, fohishalikni noqonuniy deb e'lon qildi. Mamlakatda qonuniy faoliyat ko'rsatadigan bitta ham fohishaxona yo'q.

Spirтли ichimliklarga qarshi shafqatsiz urush olib boriladi. Finlar alkogolga moyil odamlarga e'tibor bermaslikka harakat qilib, Finlandiyada davlat xazinasini ichimlikdan olinadigan daromad bilan to'ldirish uchun harakat qilayotgani yo'q, aksincha, davlat odamlarni ichkillikka moyil bo'lmasliklari uchun ichimliklarni qutilariga qulflab, imkon qadar jamoatchilik e'tiboridan chetda saqlashga harakat qiladi. Butun Finlandiya bo'ylab aroq faqat katta idishlarda sotiladi. Uch yarim shisha aroqni o'z ichiga olgan va 5 markaga sotiladigan ushbu idishlarni ko'pchilik odamlar yuqori narx tufayli sotib ololmaydilar. O'tgan yili Finlandiya parlamenti barcha alkogolli ichimliklar, jumladan, pivoni taqiqlovchi qonun qabul qildi. Qonun hali tasdiqlash bosqichida.

Fin xalqining hayoti iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va intellektual jihatdan juda yaxshi tashkil etilgan va qurilgan. Mamlakat aholisi Suomi deb ataydigan Finlandiya fuqarolarining halolligi ham e'tiborga olinishi kerak bo'lgan masaladir. Ushbu mamlakatda shaxsan bo'lmagan odam-

ga fin halolligini tushuntirish, eng muhimi, uni ishontirish deyarli mumkin emas. Siz bunga o'xshash halollik namunasini Finlandiyadan tashqarida topa olmaysiz.

Finlandiya – bu yangi mamlakat va bu yutuqlarning barchasi 70-80 yillik mehnat evaziga qo'lga kiritildi va erishilgan ushbu yuksak rivojlanish barcha odamlarning umumiy ishidir.

SUOMI

Finlandiyaliklar Rossiyaning shimoli-g'arbiy qismida yashaydilar. Uning qo'shnisi Shvetsiya Finlandiyaning g'arbiy qismida joylashgan. Finlar 1811-yilgacha Shvetsiya hukmronligi ostida yashadilar. O'sha paytda shvedlarning finlarga bo'lgan munosabati Avstriyaliklarning Voyvodinadagi va Bosniya-Gersegoviniyadagi serblarga yoki turklar hukmronligi davrida Rumliklarning bolgarlarga nisbatan munosabati kabi edi.

Barcha hukumat va ma'muriyat, savdo va fabrikalar, maktablar va hatto cherkovlar shvedlar qo'lida edi. Barcha ma'murlar, sudyalari, ofitserlar, ruhoniylar va o'qituvchilar shvedlar orasidan tanlangan. Shvedlar o'zlarini madaniy jihatdan finlardan yuqori darajada ko'rganliklari sababli, finlarni ikkinchi darajali irq deb hisoblab, shunga xos munosabatda bo'lishardi. Finlar hujjatlarda shvedlar qatori bir xil siyosiy huquqlarga ega bo'lishlariga qaramay, ular intellektual, iqtisodiy va axloqiy jihatdan e'tiborsiz qoldirilgandi.

Bu holat finlarning madaniy tomondan oldinga siljishi va rivojlanishiga to'sqinlik qildi. XVIII asr oxiri va 1840-yillarga qadar Fin madaniyati havosiz bir yerto'lada o'stirilgan gul kabi zaif va so'lg'in edi. U paytlarda finlar ozgina o'qish-yozishdan boshqa narsani bilishmasdi.

1808-yilda Rossiya podshosi Aleksandr I Rossiya va

Shvetsiya o'rtasidagi urush¹ paytida Finlandiyaning yarmini egallab oldi va butun mamlakat bo'ylab mashhur va-killarni Borgo shahrida to'plab, ulardan: "Bundan so'ngra Shvetsiyaning qaramog'i ostida qolishni xohlaysizmi yoki o'z xohishlaring bilan Finlar oldin ega bo'lgan huquqlari saqlanib qolishi sharti bilan Rossiya bilan birlashishni xohlaysizmi?"

Finlandiya vakillari Rossiyaga qo'shilishni qabul qildilar. Shundan so'ng podsho Aleksandr I, finlarning o'zi Shvetsiya hukmronligi davrida tuzgan konstitutsiyasiga rioya qilishga qasamyod qildi. Finlandiyaning Rossiyaga qo'shilishi har ikki tomon uchun ham foydali edi, chunki Finlandiya kambag'al mamlakat edi. Angliya uchun Hindiston va Misr muhim edi. Ammo Finlandiya Rossiya uchun bunday ahamiyatga ega emas edi. Rossiya uchun Qrim, Kavkaz yoki Turkiston ancha muhim edi. Rossiyaning Finlandiyani egallab olishida moliyaviy foyda yo'q edi. Ammo Finlandiyaning ishg'ol qilinishi Rossiya uchun boshqa tomondan foyda berdi. Finlandiya chegarasi – Rossiyaning poytaxti Sankt-Peterburgga poezdda bir necha soatlik yo'l masofada edi. Urush paytida g'arbdan hujum qiladigan dushmanning kuchi poytaxtga tahdid qilishi mumkin edi. Ammo Finlandiyani ruslar tomonidan bosib olinishi poytaxt uchun himoya zonasi yaratdi.

¹ 1808 va 1809-yillardagi Fin urushi natijasida Finlandiya «Buyuk knyazlik» nomi bilan Rossiya imperiyasiga qo'shildi. Rossiya podshosi «Buyuk knyaz» bo'lgan ushbu tartibda, Finlandiya general-gubernatorlar tomonidan avtonom tarzda boshqarila boshlandi. Bolsheviklar inqilobidan so'ng darhol Finlandiya 1917-yil 6-dekabrda Petrograd Sovetining oldindan ma'qullashi bilan mustaqilligini e'lon qildi.

Boshqa tomondan, mamlakat ichki ishlarini boshqarishda hukmronlik qilgan finlar, o'zlariga mos madaniyatni yaratish va rivojlantirish imkonini topdilar. Rossiya bosqidan keyin shvedlarning aksariyati Finlandiyada qolishni tanladilar. Faqat endi ular mamlakatni boshqarmayotgan edilar. Bu yerda qolgan shvedlar o'zlarining yangi vatanlari sifatida qabul qilgan Finlandiyaning madaniy rivojlanishi uchun katta kuch sarflay boshladilar.

Dastlabki kunlarda Finlandiya madaniyatini ko'tarish uchun ishlaydigan odamlar soni juda oz edi, chunki mamlakatda o'qituvchilar, ziyolilar va o'qimishli odamlar soni juda kam edi. Biroq, bu holat odamlar va ziyolilarning kuchini kamaytirmadi, aksincha, ularning ko'proq ishlashiga sabab bo'ldi.

JOHAN VILHELM SNELMAN

Podsho Aleksandr I tirikligida Johan Vilhelm Snelman Finlandiya madaniyatini ko'tarishni istaganlarning yetakchisi edi. Snelman Finlandiya ziyolilari yangi avlodining eng muvaffaqiyatli vakillaridan biridir; U bir qator yosh o'qituvchilar, huquqshunoslar va davlat xizmatchilari bilan birgalikda odamlarning bilim va ma'daniy darajasini ko'tarish uchun, xuddiki bir salib yurishini e'lon qildi. Ular doim shunday der edi:

“Ziyoli bo'lish modaga ko'ra kiyinish degani emas. Ziyolilar jamiyatning miyasi hisoblanadilar. Xalq sizni yaxshi ta'lim olganingizdan so'ng yuqori maosh olishga va kechqurun karta yoki domino stollarida o'tirib, zavqlanishingiz uchun o'qitmadi. Bunday qiladiganlar haqiqiy ziyolilar emas; ziyolari mog'orlangan demakdir. Ziyolilarning vazifasi – jamiyatning aql-zakovati, vijdoni, irodasi va kuchini uyg'otish va safarbar qilish. Siz dehqonlarga, ishchilarga va jamiyatning quyi qatlamidagilarga qanday qilib yaxshiroq yashashni va buning uchun nima qilish kerakligini o'rgatishingiz kerak.

Xalqqa qanday ishlashi kerakligini, arzon va kamtarin bo'lsa-da, qanday qilib yaxshiroq uylarni qurish kerakligini, o'zlarini va oilalarini kasallikdan qanday himoya qilishni o'rgating. Ularga baxtli oilaviy hayot kechirish yo'llarini, turmush o'rtoqlar bir-biriga qanday munosabatda bo'lishlari va bolalarni qanday tarbiyalashi haqida o'rgating. Xalqni tartibga, ishni o'z vaqtida bajarish va intizom-

ga odatlantiring. Ularni adolatli bo'lishga va qonunlarga bo'ysunishga o'rgating. Va eng muhimi, bu ishlarning barchasida jamiyat uchun o'rnak bo'ling. Jamoatchilikni tarbiyalash bilan birga, o'zingizning yondoshishingiz, so'zlaringiz va qilayotgan ishingiz bilan odamlarning ustozlik ekanligingizni ko'rsating.

Suomini katta oila sifatida ko'ring. Butun mamlakatga shu ko'z bilan qarang. Fin xalqining barcha a'zolari, shu qatorda eng kambag'al o'tinchilar, ishchilar va xizmatkorlar, beva ayollar sizning birodarlaringiz ekanligini unutmang.

Sizning vazifangiz bu odamlarni o'qitish, ularni yetishtirish va rivojlangan xalqlar qatoriga qo'shishdir. Shuni unutmangki, agar bu odamlar johil, qo'pol va ichkilikka qaram bo'lsa, agar kasallik va qashshoqlik bo'lsa, bularning hammasi sizning aybingiz va qabohatingizdir; bularning barchasini aybdori siz ziyolilarsiz".

Xalq bilan ich-ichidan bog'langan oz sonli o'qituvchilar, davlat xizmatchilari, ruhoniylar va shifokorlar shu tarzda fikr yuritdilar, shu fikrlarini yozma va og'zaki shaklda ifoda etdilar. Snelman bu ziyolilar orasida o'zining olovli va g'ayratli harakati bilan ajralib turardi.

Snelman qishda chanaga minib, bahor va yoz oylarida Finlandiyaning bir chekkasidan u chekkasiga qayiqda va ba'zan piyoda yurib borar va odamlarga to'g'ri yo'lni ko'rsatar edi. U o'rmonlar va toshli makonlarda yosh-uqari, aqlli odamlar bilan uchrashganda ular bilan suhbatlashar, kitoblar tarqatar va manzillarini olib, ular bilan maktub yozishar edi. Snelman har safar borgan qorong'i joyda bir nechta mash'alani yoqib qaytar edi.

“Butun mamlakatni sug’orish uchun bir, ikki yoki hatto uchta daryo ham yetarli emas. Hatto, eng chekka kulbalar va qishloqlar ham ko’l, buloq yoki daryo kabi suv manbaiga muhtoj. Millatning ma’naviy chanqog’i ham shunga o’xshashdir. Hamma joyda millat foydalana oladigan jonli ma’naviy qaynoqlar bo’lishi kerak”.

Snelman uchrashgan aqlli odamlarini uyg’otardi, ularning fikrlarini ochar va ular bilan yozishib turardi. Bu maktublar keyin qo’ldan-qo’lga tarqalib borar edi. Snelman maktublarida ba’zilarning aybdorliklarini yozardi, ba’zilariga maslahat berar, yangi topshiriqlar berardi.

Snelman biron-bir joyga borganida, atrofiga ta’lim va madaniy tadqiqotlar olib boradigan odamlarni yig’ib, ular bilan suhbatlashishni boshlar edi:

“Qarang, kanopdan qanday qilib ip va arqon to’qishadi? Birinchidan, ular kanop tolalarini olib, ingichka iplarni qilishadi. Keyin ular bir nechtasini bir-biriga birlashtirib, qalin ip to’qishadi. Bir nechta qalin arqonlarni birlashtirib, katta kemalarni bog’laydigan arqonlarni yasa-shadi. Bizning ishimiz ham shunga o’xshash. Biz ziyolilarning tarqoq kuchlarini to’plashimiz va ikki million aholisi bo’lgan mamlakatimiz uchun buyuk kuchni yaratishimiz kerak”.

Snelman yozgi ta’til vaqtida turli mintaqalardan o’qituvchilarni ikki-uch hafta davom etadigan uchrashuvlarga taklif qilar edi. Ushbu uchrashuvlarda yuzdan ortiq o’qituvchilar qatnashishardi. Ammo dastlabki vaqtlarda keladiganlar soni kam edi. Mamlakatning chekka hududlarida qish mavsumida ishlashdan charchagan ko’plab

o'qituvchilar o'z kasblaridan norozi bo'lib va bu yig'irishlarga istaksiz tashrif buyurishardi. Ba'zilar, hatto, "Bu uchrashuvlar qayerdan paydo bo'ldi? Biz o'zimiz o'qituvchilarmiz, bizga nimani o'rgatishadi?" deb o'zlarining noroziligini bildirishardi.

Snelman bularning hammasini bilar edi, lekin ularga g'azablanmasdi. U odamlarga shifokor kabi yondashish va ularni davolash kerak deb o'yladi. U birinchi uchrashuvda o'qituvchilarga shunday degandi:

– "Aziz do'stlar, men sizning vazifangiz qanchalik qiyin va og'ir ekanligini bilaman. Chekka hududlarda qancha mehnat qilayotganingiz, moddiy ahvolingiz yaxshi emasligi va mehnatingiz jamoatchilik tomonidan qadrlanmasligidan ham xabardorman. Ammo nima qilishimiz kerak? Shuni unutmangki, biz xalqni uyg'otish uchun boshlagan ulkan ishimizning boshida turibmiz. Biz yangi madaniyat armiyasining ilk a'zolarimiz. Biz jaholatga qarshi kurashar ekanmiz, bu og'ir yuklarning barchasini yelkamizda tashishga majburmiz. Bu urush boshida, ehtimol bizni qadrlamaydilar yoki maqtamaydilar. Biz fidokorlik qilamiz; hatto ichimizdan qurbonlar ham beramiz. Bu afsuski majbur narsa va biz undan qochib qutula olmaymiz. Men sizni fidokorlik qilishga chaqiraman, lekin barchangizga emas, o'zini qurbon qilishga tayyor bo'lganlarga murojaat qilmoqdaman.

Kechirasiz, lekin men sizlar bilan ochiqchasiga gaplashmoqchiman: har qanday kasbda bo'lgani kabi, o'z kasbga loyiq bo'lmagan o'qituvchilar ham juda ko'p. Bular o'qituvchilikni nafratli ish deb biladigan kunlik ishchi-

lar. Men ularga shunday do'stona maslahat beraman: ular o'qituvchilikni tashlab, o'zlariga boshqa kasbni qidirsinlar. Ular savdogar bo'lsin, boshqa ish topsin, lekin jonli va bilimga ega bo'lgan fidokor odamlar ishlaydigan joylarni band qilmasinlar.

Mening iltimosimga binoan, mamlakatimizdagi eng bilimli va madaniyatli fin olimlari har qanday ma'lumot qanchalik qimmatli va chiroyli ekanligini ko'rsatish uchun, sizga kerak bo'lsa beshta, oltita yoki hatto o'nta konferensiya o'tkazishga rozi bo'ldilar. Ular sizga beradigan ma'lumotlarni va ilmga bo'lgan muhabbatini maktablaringizga qaytganingizda o'quvchilaringizga yetkazing".

Snelmanning so'zlaridan ta'sirlangan ko'plab boshlang'ich maktab o'qituvchilari uni o'rab olishdi va jaholatga qarshi kurashda uning yordamchisi bo'lishni istashdi. Ushbu o'qituvchilarning aksariyati o'z bilimlarini oshirish va Snelman aytayotgan yo'ldan borish uchun ishlashni boshladilar. Bu o'qituvchilarning aksariyati keyinchalik Finlandiyada madaniy sohada faoliyat yuritadigan muhim shaxslar sifatida tanildilar. Qisqa vaqt ichida butun mamlakat bo'ylab o'nlab, so'ngra yuzlab kichik va katta Snelmanlar paydo bo'la boshladi.

DIN ODAMLARI – RUHONIYLAR

Snelman sevimli Suomini uyg'otishini faqat o'qituvchilardan kutishi mumkin emasdi. U qayerda davlat xizmatchilari, shifokorlar, savdogarlar, ruhoniylar yig'ilishi haqida eshitadigan bo'lsa, u yerga borib quyidagilarni aytar edi: "Millatni unutmang! Siz hammangiz xalqning orasida o'sgansiz. Hozir nima qilyapsiz? Boshlari jaholatdan chiqmagan, ongi ochilmagan va bilimga ega bo'lmagan birodarlaringizdan qochyapsizmi? Yoki millat hayotini yaxshiroq tartibga solish yo'llari haqida o'ylayapsizmi? Siz odamlarni uyg'otish va ularning madaniy jihatdan saviyalarini oshirish uchun nima qilyapsiz?"

Snelman ruhoniylarga ham: "Hurmatli ruhoniylar, dindor insonlar sifatida sizdan iltimosim shu: O'z xalqingizga xizmatkor bo'ling. Ruhoniylar cherkovning amaldorlari emas. Sizning vazifangiz marosimlarni bajarish, cherkov qoidalarini to'g'ri qilinayotganini nazorat qilish va ibodat qilish bilan cheklanmaydi. O'tmishdagi barcha payg'ambarlar odamlarga yaxshi, toza, halol va xayrli yashashni maslahat berib, ularni vijdonli va mehribon bo'lishga da'vat etdilar. Ular odamlarga qanday yaxshilik qilishni, hirslaridan qutulib, Xudoning yaxshi xizmatkori bo'lishni o'rgatdilar. Cherkovga kelganlarga jonli, ilm beradigan, haqiqiy va'zlarni ayting va yuz yillardan beri zerikarli, har va'zingizda takrorlaydigan odamlarning ruhiga yetib borishdan uzoq, jiddiy qabul qilinmaydigan ruhoniy kabi gapirmang.

Ikki million finlar nomidan sizlarga koʻz yoshlarim bilan iltimos qilaman: haqiqatni oʻlikning ustini tuproq bilan berkitgan kabi berkitadigan diniy taʼlimni bir tomonga irgʻiting va odamlarga haqiqatni aytish orqali qariyalardan tortib yoshlargacha, xalqning barcha qatlamlarida jonli va istakli bir ruhni uygʻonishini taʼminlang”, – deb murojaat qilardi.

Helsinkida boʻlib oʻtgan yepiskoplar yigʻilishining kun tartibidagi masalalar shular edi:

– Xalqning dindan uzoqlashishi va diniy hissiyotlarning zaiflashishi;

– Cherkov va ruhoniylarga nisbatan eʼtiborning pasayishi va hurmatsiz harakatlar;

– Va ularga qarshi chora-tadbirlar.

Snelman ushbu yigʻilishda nutq soʻzlash uchun ruxsat soʻradi, ammo bu soʻrovi “Yepiskoplar ishtirok etgan yigʻilishda cherkovga aloqasi boʻlmaganlar uchun joy yoʻq. Diniy bilimga ega boʻlmagan kishi cherkovning yuqori darajadagi shaxslariga nima deya olardi?” deb, rad etildi. Keyin Snelman yigʻilishda oʻqilishi uchun bir xat yubordi:

“Men sizga maslahat berish niyatim yoʻq; men dindor emasman va nima uchun men va boshqa odamlar sizning boy va muhtasham cherkovlaringizdan uzoqlashayotganimizni tushuntirish niyatidaman. Sizlar odamlarning dindan uzoqlashayotganini aytmoqdasiz, men sizga buning sabablarini aytib beraman. Meni xalqning soʻzlovchisi sifatida tinglashingizni soʻradim, lekin siz buni rad qildingiz va men ruhoniy emasligim sababli meni yigʻilishga qoʻymadingiz. Shifokor bemorni tinglamay turib, davolay

olmagani kabi, sizlar odamlarning fikrini o'rganmasdan turib, bu muammoni qanday hal qilasiz?"

Yozgan ushbu xatidan keyin u yig'ilishga taklif qilindi va u yerda quyidagi nutqni so'zladi:

"Men bu yerga sizni ayblash uchun kelganim yo'q. Ruhoniylarni ayblaydiganlar ko'p usiz ham. Men o'zimni va butun jamiyatni ayblayman, ruhoniylarni emas. Axir ruhoniylar osmondan tushmaydi, ular ham shu jamiyatdan chiqqan. Yaxshi yoki yomon, muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz, qanday bo'lishidan qat'iy nazar, bizning ruhoniylarimiz bizning oramizdan chiqmoqdalar va biz qanday bo'lsak, ular ham shunday. Shuning uchun ruhoniylarni tanqid qilganlardan so'rashim kerak:

– Sizning orangizda qancha halol, nomusli savdogar bor? Atrofingizda halol oshpazlar, vijdonli tosh ustalari, me'morlar va temirchilarni ko'rasizmi? Qaysi kasb egalaridan mamnunsiz? Sizning advokatlaringiz, deputatlar, jurnalistlaringiz "mamlakat tuzi" emasmi? Nima xohlaysiz? Agar orangizda halol, vijdonli odamlar haqiqatdan bo'lmasa, nega o'z ishini yaxshi bajaradigan ruhoniylar yo'qligiga hayron qolasiz? Cherkov ham, ruhoniy ham o'zingizsiz, ular siz bilan bir xil xamirdan chiqqan. Men boshida aytganimdek, bu yerga sizni ayblash uchun emas, balki bemor shifokor oldiga kelgani kabi keldim. Men shuni aytmoqchiman, bu xalq qo'pol, qo'rs, ochko'z va yolg'onchilardir, ularning hech kimga va hech narsaga hurmatlari qolmagan. Hech kimga ishonishmagani uchun hamma narsadan va barchadan shubhalanmoqdalar. Bunday muhit uchun joy bo'lishi mumkinmi?

Qaysi din haqida gaplashishingiz mumkin? Ba'zi qadimiy butparast urf-odatlar va xurofotlar odamlar orasida ildiz otganligi to'g'ri. Ammo bunda xalqning aybi bormi? Din bilan bog'liq haqiqatlarni kim, qayerda va qachon odamlarga tushuntirdi? Avval Isoning o'zi va keyin havoriylari odamlar orasiga kirib, ular bilan hamma tushunadigan sodda tilda gaplashdilar. Oldilaridagi "odamlar yaxshiroq tushunishlari uchun o'zlarining chiqishlarini misollar va hikoyalar bilan bezatdilar, shunday qilib odamlarning ruhi va qalbiga kirib borishdi.

Xalqimiz og'ir va xavfli ma'naviy kasallikka chalingan. Din odamlarning boshqa odamlar, dunyo va uning ne'matlari bilan bog'liqligini his qilishidir. Agar bunday bog'liqlik bo'lmasa, na davlat, na jamiyat, na oila va na insoniyat omon qololmaydi, cho'kadi. Bu esa davlatning mavjudligi, yashashi uchun juda jiddiy tahdiddir. Dinga bo'lgan befarqlik xalq uchun juda xavfli kasallikka aylanishi mumkin. Yengiltak yoshlar va bema'ni liberal ziyolilarning aytishi-cha, dinsizlik erkin fikrning ko'rinishi ekanligi aytilmoqda va ular juda katta xatoga yo'l qo'yishmoqda. Aslida, dinsizlik ma'naviy qashshoq va kasal bir ruhiy holatning belgisi va xalqning ma'naviy qadriyatlarining yo'qligi belgisidir. Buning oqibatida odamlar hayvonlar hissiyotlari asiriga aylanadi, ma'naviyatini yo'qotadi, axloqsizlik, egoizm, o'g'irlik va hissiy buzilishlar boshlanadi.

Men bir diniy inson emasman va men cherkov xizmatchilariga aytmoqchiman: Xudo odamlarning qalbida yo'qolib bormoqda va o'lmoqda. Bundan dahshatli yana nima bo'lishi mumkin, bilmayman! Agar siz o'z vijdoningiz

odamlar va Xudo oldida halol bo'lishini istasangiz, aybdorni uzoqdan qidirishingiz shart emas. Ilm-fan, falsafa va ziyolilarni ayblash riyokorlarning quroliga aylanibdi.

Buning o'rniga, o'zingizni ayblang va avval o'zingizni davolang. Avval ommaga nimani o'rgatish kerakligini o'zingiz bilib oling. Xudoni avval o'zingizdan, qalbingizdan qidiring va buni o'zingiz uchun qiling. Bularni qilgandan so'ng esa, odamlarni Xudoga olib boradigan yo'lga boshlang. Qalblarida Xudoga ishonchi bo'lmagan xalqning najoti yo'qdir. Xalqimizni qutqaring va ularga Xudoni bering; ruh va mazmundan xoli stereotipik e'tiqod formulalarini emas, balki Xudoga bo'lgan ishonchini bering".

So'zini tugatgan Snelman majlis oldida bosh egdi. Uning aytganlari tinglovchilarga boshqacha ta'sir ko'rsatdi. Ba'zilar qattiq g'azablanib: "Bu qanday razolat, bu qanday jur'at? Aytganlari cherkovga haqorat, bizni masxara qilishdir", – deb baqirishmoqda edi.

Ko'pchilikni tashkil etadigan va shu tariqa kengashning qadr-qimmatini ma'lum darajada saqlab qolgan boshqa qatnashchilar Snelmanning so'zlari to'g'ri ekanini bilganlari uchun jim turishardi. Bu odamlarning qalbida o'tmishdan uyalish va kelajak uchun quvonch hissiyotlari bir-biriga aralashib ketayotgandi. Bolaligida Snelmanga dars bergan yoshi katta yepiskoplardan biri uni qattiq quchoqladi: "Keksa o'qituvchingni xursand qilganing uchun sendan minnatdorman. Endi yuzimni Xudoga qaratib: "O'z qilingni barcha balolardan saqla, chunki mening ko'zlarim xalqimning najot yo'lini ko'ra boshladi", deb ayta olaman. Xudo senga yordam bersin! Xalqni oyoqqa turg'az va ular-

ni mukammallikka yetkaz. Bu uchun sendan minnatdorman”.

Uchrashuvdan soʻng baʼzi yepiskoplar oʻz tumanidagi ruhoniylar bilan uchrashdilar va cherkov taʼlimotini tiklash, ruhoniylarning odamlarga yaqinlashishi va ruhoniylarning Xudoning haqiqiy xizmatkorlari boʻlishi uchun nima qilish kerakligini muhokama qildilar.

Koʻp joylarda ruhoniylar oliy haqiqatlarning maʼnosini chuqurroq anglashga intilib, oʻzaro uchrashuvlar oʻtkazdilar. Ushbu yigʻilishlarga iymonli insonlarni taklif qilishdi va jamoat bilan odatdagi cherkov tili oʻrniga boshqa tildan foydalanib, yangi va turli mavzularda suhbatlashishni boshladilar. Bolalar va yoshlarni birlashtirib, aql-idrokka, ilm-fanga va hayotning quvonchlariga kamsitmasdan yoki masxara qilmasdan ularga taʼsir oʻtkazishga hamda ishonchni kuchaytirishga intildilar. Bolalar qalbining pokligi va yoshlarda idealizm olovini saqlab qolish, ularni har bir qadamda aks ettirish zarurligini taʼkidladilar.

Ushbu harakatlardan keyin xalq ham harakatga kirishdi va ular yana-da yaxshi hayot uchun birgalikda ishlashni boshladilar. Koʻp odamlar ruhiy tinchlikni topdi, qattiq qalblar yumshadi, koʻzlar atrofga yana-da yorqinroq, mehrliroq va odilroq qaray boshladi.

Snelman va doʻstlari juda xursand boʻlishdi va har bir uchrashuvda shunday deyishardi: “Saflarimiz kengaydi. Xalq ziyoli boʻlgani sari biz ham yangi va juda qimmatli doʻstlarga ega boʻldik”.

FINLANDIYA MA'MURIYATI

1816-yilda Finlandiya Rossiya bilan birlashgandan so'ng, parlamentda yangi Konstitutsiya qabul qilindi. Konstitutsiyaga muvofiq, Finlandiya parlamentiga ma'lum yangi huquqlar berildi. Aleksandr I e'lon qilgan deklaratsiyada Rossiya ma'muriyati ostida bo'lgan Finlandiya bilan oldindan belgilangan kelishuv qoidalariga o'zi ham, o'zidan keyin kelganlar ham amal qilishiga va'da berdi.

Parlament qayta ishga tushirilgandan so'ng, mamlakatning barcha burchaklaridan kelgan davlat xizmatchilari Helsinkidagi Kongressga yig'ildilar. Snelman ham ushbu kongressda qatnashdi va Shvetsiya ma'muriyati davridan boshlab Finlandiyada davlat xizmati qanday amalga oshirilganligini tushuntirib berdi:

– “Shvedlar aqlli, juda halol, quvnoq va madaniyatli odamlardir. Menga shvedlar yoqadi. Men juda yaxshi ko'radigan shved do'stlarim bor. Shvetsiyaning gullab-yashnashini chin dildan xohlayman. Ammo ayni vaqtda kambag'al mamlakatimiz Shvetsiya hukmronligidan qutulganidan ham xursandman. Mening mamlakatim Shved davlatidan emas, balki Shvetsiya amaldorlaridan xalos bo'lganidan xursandman. Finlandiyadagi shved amaldorlari ham Finlandiya, ham Shvetsiya uchun bosh balosi bo'lgan. Shvedlarning o'z mamlakatlaridagi amaldorlari aqlli, halol va mehnatsevar odamlar bo'lishiga qaramay, bu yerdagilar umuman bunday emas edilar. Shvetsiya hukumati ham ko'plab boshqa hukumatlar tomonidan qilin-

gan xatoni takrorlab, o'z mamlakatlarida xizmat qilayotgan amaldorlarni sinchkovlik bilan tanlab olar ekan, Finlandiyaga parazitlar va sharaftsiz odamlarni yubordi”.

Har bir mamlakatda bo'lgani kabi Shvetsiyada ham ba'zi boy va odobli oilalarda dangasa, foydasiz, ahmoq, mast va axloqsiz yoshlar katta bo'lmoqda edi. Maktablardan haydab chiqarilgan bu yoshlarning biron-bir davlat xizmatiga qabul qilinmaganligini, fabrikalarda ishlolmaganligini, o'z biznesini qura olmasligini va haqiqatan ham ishlashni istamayotgan bu yoshlarning bir boltaga sop ham bo'lolmasligini tushungan ularning oilalari, bu foydasiz odamlarni tanish-bilishlari yordamida Finlandiyaga davlat amaldori qilib yuborishmoqda edi. Shu tarzda ish boshlagan ming yoki ikki ming amaldor nima qilganini taxmin qila olasizmi? Ikki-uch yillik o'rta maktab ma'lumotidan boshqa hech qanday ma'lumotga ega bo'lmagan bu dangasa va axloqsiz odamlar Finlandiyada ko'p vaqtlarini o'zlarining ofislarida emas, balki qimmat restoranlarda va ko'ngilochar joylarda o'tkazishgan.

Ushbu amaldorlarning ishlashga ishtiyoqi yo'q edi va, ayniqsa, qanday ishlashni ham bilishmaydi. Ular o'z vazifalariga beparvo munosabatda bo'lganliklari kabi odamlarni kamsitib, xo'rlashardi. Ish joyiga kech kelib, erta ketar, ish vaqtida kofe ichib va sigaret chekib, vaqtni g'iybat bilan o'tkazardilar. Davlat idoralariga ishi tushganlarni soatlarcha kuttirishar, insonlarga qo'pol muomala qilishar, odamlarni “Direktor juda band. Yig'ilishi bor. Kutasiz!” deya e'tiborsiz qoldirishar edi. Uzoq vaqt kutishdan charchagan odamlar bu joydan chiqib ketishar, sabrli

bo'lib kutishga chidaganlar esa ko'zlari uyqusizlikdan qizarib ketgan, ahmoq yuzli, lekin paxmoq kurka kabi mag'rur amaldorlarga o'z muammolarini aytib bera boshlashganda, odamlarning gaplarini bo'lib "Men bugun bandman. Ertaga keling" deyishardi. Qarshisidagi odam "Ammo men uzoqdan kelganman" deya o'zining muammosini tushuntirishga urinayotgan bo'lsa-da, amaldor "Ertaga kel dedim-ku, tushunmadingizmi?", – deb javob berardi. "Ammo mening pulim yo'q; Bu yerda qolish uchun joyim ham yo'q", – deb e'tiroz bildiradigan bo'lsa, u kishini xonasidan haydab chiqarardi. Amaldor yoki zobit idoradan chiqib, ko'ngilochar joyga borar edi. U yerda ichkilik suv kabi oqar, qimmatbaho fohishalar bu amaldorlarning stolidan ayrilmasdi. Faqat bunday hayot kechirish uchun juda ko'p pul kerak edi. Shu sababli ushbu ko'ngilochar joylarda davlat va hukumatning muhim masalalari hal qilinardi.

Katta pul sarflanadigan joylarda nima sodir bo'lishini ko'rgan halol odamlar o'zlarining ichida "Bu qanday sharmandalik? Stokgolm bu amaldorlarni bu yerga qanday yuborgan? Bu sharmandalik qachongacha davom etadi?" deb gapirishar edi. Xalq iztirob chekar, shikoyat qilar; g'azablanib, nafratga to'lar va "Agar boshqaruvchilar bularga ruxsat berishsa, men shu tarzda yashayman" deb, axloqsizcha bir hayotda yashashni boshlashar edi.

Xudoga shukur, hozir bunday emas. Biz har joyga Finlandiya rasmiylarini yoki Finlandiyada yashaydigan shvedlarning orasida eng yaxshilarini joylashtiryapmiz. Endi zamon o'zgardi, o'zingiz javobgar bo'lgan joyda birinchi kundan boshlab yangi usullarni qo'llashni boshlang. Eski

ma'muriy qoidalarni unuting. U chirkinlikdan asar ham qolmasin. Xalq sizning ular uchun borligingizni, ularning farovonligi uchun ishlayotganingizni tushunishsin.

Ish uchun murojaat qilganlarni qiynamang va past hisoblamang.

Imkon qadar odamlarning ishini yengillashtiring. Odamlarga tabassum bilan murojaat qiling, agar sizga murojaat qilgan odamlar istayotganlarini ololmasalar, bu sizdan emas, balki qonunlar va qoidalar sabab bo'lganligini tushunsin. Ruhoniylar va o'qituvchilar singari davlat xizmatchilari ham xalqning ma'lumoti va madaniy rivojlaniishi uchun mas'uldirlar.

Snelman kinoyali jilmaygan holda: "Qonunbuzarlikning eng katta o'qituvchilari kimlar?" - dedi va keyin o'z savoliga javob berdi:

"Ular qonunlarga rioya qilmaydigan davlat xizmatchilaridir. Ular jamiyatni qonunga bo'ysunmaslikka o'rgatishadi. Finlandiya davlati nomidan sizdan iltimos qilaman: Siz qonunlarga rioya qilishga qasamyod qildingiz; Iltimos, xalqimizni qonuniy va adolatli bo'lishga o'rgating".

Snelmanning ushbu nutqidan so'ng, finlar amaldorlardan qo'rqmaslikni, tik turishni va shu bilan birga ularga ishonishni o'rgana boshladilar. Bir-ikki avloddan so'ng bilimdon, aqlli va halol davlat xizmatchilari sinfi shakllandi va bu amaldorlar dunyoga o'rnak bo'ldilar.

KAZARMALAR

Shvetsiya hukmronligi ostida bo'lganida Finlandiya-ning bir konstitutsiyasi va ushbu konstitutsiyaga muvofiq tashkil etilgan majlisi mavjud edi. Mamlakat garchi askarlar soni oz bo'lsa ham, o'z armiyasiga, pochta ma'muriyatiga va pul tizimiga ega edi. Bu holat Finlandiya Rossiya tasarrufiga o'tganidan keyin ham davom etdi. Shvetsiya ma'muriyati davrida shved amaldorlari barcha muassasalarning boshida edilar. Shvedlar o'z madaniyatini oshirish uchun finlardan deyarli dengiz cho'chqalari sifatida foydalananglar.

Finlandiya Rossiya tasarrufiga o'tganidan so'ng, finlar ushbu muassasalarga va mamlakatlariga ega chiqish uchun kurashishni boshladilar. Birinchi navbatda, ular boshlang'ich, o'rta maktab va litseylarda shved o'qituvchilarining o'rniga fin o'qituvchilarini tayinladilar va asta-sekin ular finlar orasidan sudyalari, shifokorlar va davlat xizmatchilarini tayyorlashga kirishdilar. Kichik Finlandiya armiyasi milliylasha boshladi. Shvetsiya davridagi armiyada ko'pchilik askarlar finlar edi. Ammo qo'mondonlik ha'yati va ofitserlar shved edi. Zobitlar askarlarga shved amaldorlari odamlarga qanday munosabatda bo'lgan bo'lsa, xuddi shunday munosabatda bo'lishdi.

Shvedlar jasur va qahramon xalqdir. Islohot davrida shoh Gustav Adolf va Buyuk Pyotr davrida Charl XII shved qo'shinining shon-sharafini butun Yevropaga yoygan edi. Biroq, o'sha paytda shvedlarning harbiy qo'mondonligi aristokratlar qo'lida edi. Ma a go'yo zobitlar oilala-

rining tabaqasi shakllangan va bu zobitlar sinfi davlat xizmatchilari, savdogarlar va ziyolilarga past nazar bilan qarashgan, askarlar esa intizom ostida tutib turiladigan va urushda qurbon bo'lishi kerak bo'lgan odamlar edi.

Ofitserlar xizmat vaqtida navbatchilik mashg'ulotlari, paradlar va kazarma hayotidan boshqa narsa bilan shug'ullanmasdi, ishdan tashqari bo'sh vaqtlarida esa ichkilik ichish, karta o'ynash va raqsga tushish bilan band bo'lishar edi. Ulardan aksariyatining savodxonligi va ma'lumot darajasi past edi. Harbiy maktabni tugatgandan so'ng, ular kitob o'qishmasdi. Ularning ijtimoiy va milliy ideallari yo'q edi. Ular qilichlarini osib mag'rur yurishar, ko'p pul sarflashar va doimo forma kiyib yurishardi. Ayollarga suyagi yo'q va raqsga tushishni yaxshi ko'radigan bu zobitlar, shuningdek, ichishni va qimor o'ynashni yaxshi ko'rishardi. Ular askarlarga nisbatan qo'pol va qattiq munosabatda edilar, hatto, ularni kazarma ho'kizlari deb ham atashgan.

Finlandiyaning Snelman boshchiligidagi bo'lgan yosh ziyolilari harbiylarga katta e'tibor berishga hamfikir edilar va Finlandiya armiyasiga askarlar tayyorlashga alohida e'tibor berishdi. Natijada, o'rta maktablarni tugatgan, hatto, oliy o'quv yurtlarini tugatgan taniqli talabalar harbiy maktablarga kirib, armiyaga qo'shilishdi. 5-6, hatto 10 yil davom etgan harbiy xizmat davomida ular ham harbiy xizmatni o'tab, ham ilmiy tadqiqotlar va izlanishlarini davom ettirdilar.

Snelman ushbu yoshlarning his-tuyg'ulariga tarjimon bo'lgandi. U ishtirok etgan uchrashuvlarda ham, yozgan

maqolalarida ham doimo quyidagi fikrlarni ilgari surardi:

“Armiya insonlarimizning yaxshi bilim olishlari va o‘zlarining mas’uliyat tuyg‘ularini rivojlantirishlari mumkin bo‘lgan bir maktab bo‘la oladi. Unutmangki, butun Finlandiyaning minglab sog‘lom yigitlari hayotlarining eng samarali davrida armiyaga chaqiriladi. Ular oddiy hayotlaridan uzilib, ko‘p yillar davomida oziqlanadigan, kiyinadigan va ehtiyojlarini qondiradigan kazarmalarda yashaydilar. Bu yoshlar armiyada bo‘lganliklarida ishlatiladi. Bu ishlar ba‘zan haddan ziyod ko‘payib ketadi, ammo harbiy xizmat tugab uyga qaytgach, ular armiyada bo‘lgan mashg‘ulotlar, odatlar va ko‘nikmalardan hech qanday foyda ko‘rmaydilar.

Ko‘rinishidan eng madaniyatli bo‘lgan davlatlar ham hanuzgacha tinchlik ichida yashaydigan madaniyat darajasiga yetisha olmaganlar. Ilk insonlardan beri davom etib kelayotgan nafrat va shafqatsizlik, g‘azablangan dengiz suvlari qoyalarga hujum qilgani kabi odamlar orasida urushlar keltirib chiqaradi. Suv toshqinlariga qarshi devorlar qurilgani kabi, bizga ham mamlakatimizni himoya qilish uchun devorlar kerak. Bu armiya esa o‘z Vatani himoya qilish uchun ko‘ksini qalqon qiladigan qahramonlar devoriga o‘xshaydi. Bu devor tufayli fuqarolar o‘zlarini qulay va xavfsiz his qilib, hayotlarini davom ettiradilar.

Armiya fidoyi bir mazhabga o‘xshaydi. Biz askar emasligimiz sababli Vatanimizni va bizni himoya qiladigan ushbu jonli devorni, garchi bu devorga qo‘yilgan har qanday qum do‘nasi inson bo‘lib, biz uchun o‘lishga tayyor bo‘lsa ham, bi. mat ham qilmaymiz, g‘amxo‘rlik

ham qilmaymiz.

Agar ko'chada, do'konda yoki qahvaxonada, qisqasi, biron-bir joyda harbiy xizmatchilar bilan uchrashsam, hurmat bilan salomlashganimdan keyin: "Aziz birodarim, siz bizning xavfsizligimiz uchun, ya'ni mamlakatimiz mudofaasi uchun bu og'ir va qiyin vazifani o'z zimmangizga olgansiz. Xudo sizga yordam bersin!" deyman.

Buni o'ylab ko'ring: kazarmadagi har bir erkak tirik olmosdir. Har yili minglab qimmatli odamlarimiz kazarmalarda yig'ilishadi. Bu qimmatbaho olmoslarimiz o'zlarining yillarini shu yerda o'tkazadilar. U yerda yillarini o'tkazishi majbur bo'lgan bu olmoslar uylariga tirnalgan va hatto singan holda qaytgan taqdirda ham, bu mamlakat uchun katta yo'qotish bo'ladi.

Snelmanning ma'naviy shogirdlari bo'lgan yosh fin zobitlari o'z fikrlarini quyidagicha bayon qila boshladilar:

"Bizning armiyamizni yangi ruhga va qayta qurishga ehtiyoji bor. Askarlar kazarmada boqiladigan ho'kizlar emas, ular bizdan kichikroq va kam ta'lim olgan birodarlarimizdir. Ular kazarmaga o'qitish uchun yuborilgan. Harbiy xizmatni o'tab uylariga qaytgach, Vatan bizdan - ofitserlardan so'raydi: Siz biz ishonib topshirgan bu yoshlarni qanday o'qitdingiz va tarbiyaladingiz?"

Ofitser nafaqat uning akasi yoki birodari emas, uni tarbiyalash va o'qitish yuklatilgan o'qituvchisidir. Zobitlar askarlar oldida ularning sog'ligi, yuragi, qalbi va vijdoniga javobgardir. Ularning vazifasi askarlarni oilalariga va hayotga bo'lgan munosabatini tarbiyalash va Vatanga muhabbatni o'qitishdir."

Finlandiyalik yosh ofitserlar ushbu qiyinchilik va yangi mas'uliyatlari oldida qo'rqmasdan va ikkilanmasdan: "Biz nafaqat urush davrida, balki tinchlik davrida ham o'z mamlakatimizga foydali bo'lishimiz mumkin", deyishadi. Hozirga qadar "kazarma" so'zi odamlar orasida haqorat sifatida ishlatilgan. Ilgari qayerdadir janjal va chalkashliklar bo'lsa, "Do'stlar, siz kazarmadamisiz, kazarmani hidi keldi, kazarma uni buzibdi" kabi gaplarni aytishardi.

Yosh fin zobitlari "Ushbu yangi davrning kazarmalari boshqacha kazarmalar bo'lishi kerak. Biz kazarmalarni bir davlat maktabi, hatto, davlat universitetiga aylantiramizki, armiyaga qabul qilingan har bir askar umr bo'yi kazarmadagi kunlarini muhabbat va g'urur bilan eslab yursin. Biz kazarmani shunday qilishimiz kerakki, xalqimiz "Baraka topsin, kazarma hayoti uni to'g'riladi, u kazarmada shu ta'limni oldi, armiyada halol, epchil, mehnatsevar va tartibli bo'lishni o'rgandi" deydigun holga kelsin."

Kazarma hayotini tubdan o'zgartirishga qaror qilgan fin zobitlari bu maqsad yo'lida ishlashni boshladilar. Dastlab, ular kazarmadagi askarlarga qanday munosabatda bo'lishni o'rganishdi, so'ngra askarlarga shunday munosabatda bo'lishni boshladilar. Finlandiya Shvetsiya hukmronligi ostida bo'lganida, kazarmalar juda iflos va yashashga yaroqsiz edi. Havodan yomon hid kelardi. Askarlarning kiyimlari eskirgan va yaroqsiz edi. Ovqatlar shu qadar yomon ediki, askarlarning aksariyati ochlikdan aziyat chekishar va tez-tez kasal bo'lib qolishardi. Yuqori rutbadagilar – ofitserlar, serjantlar va leytenantlar askarlarning ovqatlari va ehtiyojlarini cheklashar, askarlarga juda yomon munosabatda bo'lib, so'kishar edi.

Endi hamma narsa tubdan o'zgardi. Kazarmalar tozalandi, devorlari bo'yaldi. Pollari doimo tozalanar va xonalar doimo shamollatiladigan bo'ldi. Kazarmadagi foydalanilmaydigan joylarga chim to'shaldi. Kazarma ichida idishda gullar, derazalarda pardalar, polda gilam, eshiklar oldida supurgilar bor. Hamma ichkariga poyabzalni artib, tozalab kiradi. Askarlaga yuvinish majburiyati qo'yildi.

Tashqi tozalashdan tashqari ma'naviy tozalashga ham ahamiyat berila boshlandi. Shvedlarning ichkilikbozligi va qo'pol ekanligini tavsiflovchi haqoratlar hozirgacha mavjud: U shved kabi mast edi, shved kabi so'kinadi...

Shvedlar hukmronligi davrida oddiy askarlar ko'p mar-ta mast holda aylanib, so'kinib yurishar edi. Oddiy askardan tortib generalgacha, oddiy suhbatlashishadimi yoki janjal qilishadimi, doimo so'kinishardi. Bu so'kinishlarning barchasi juda xunuk va og'ir edi.

Finlandiya yosh ofitserlari kazarmaga sovun kiritdilar va askarlarni ertalab, kechqurun va ovqatlanish vaqtida qo'llarini yuvishga odatlantirishdi. Ular askarlarga toza sochiqlar berishdi. Har biriga tish cho'tkasini berib, tishlarini tozalashga odatlantirishdi. Tish va qo'llarni tozalashga o'rgatgandan so'ng, ular tilni qanday tozalashni, ya'ni tilni to'g'ri va so'kinmasdan ishlatishni tushuntirishga kirishdilar. Ofitserlar hech so'kinmadilar. Askarlarga nisbatan intizomli muomala qilishar va ularga muammo yaratishmasdi. Qoidalarga rioya qilgan holda, ular hech haqorat qilishmas edi.

Ilgari nafaqat askarlar, balki ofitserlar va yaxshi oilalardan bo'lgan odamlar janjal qilish va haqorat qilishni bir

qahramonlik va kazarma hayotining bir bo'lagi sifatida qabul qilishardi. Ular so'kinishlarni ko'p bilishlari bilan maqtanishardi.

Finlandiyaning yosh zobitlari kazarmadagi turmush tarzini o'zgartirdilar. "Kazarma bizning uyimiz. U yer bizning ibodatxonamiz. Ruhoniy uchun cherkov, o'qituvchi uchun maktab nima bo'lsa, biz uchun kazarma ham shunday. Biz bu yerda go'yo ayollar bor kabi o'zimizni xushmuomala va tarbiyali tutishimiz kerak", – deyishardi ular.

Bu yosh zobitlar so'zlari bilan ham, harakatlari bilan ham askarlarga o'rnak bo'lishga va ularni tarbiyalashga harakat qilishardi:

"Kazarmani mayxonaga aylantirmang. Yerga tupurmang. Plitkalarni iflos qilmang. So'kinib kazarmadagi muhitni buzmang. Og'zingizni buzmang. So'kinish orqali do'stlaringizning quloqlarini bulg'amang. So'kish itning uvillashidan yomonroqdir. So'kish – bu ruhiy madaniyatsizlik belgisidir. Agar qahramon ekanligingizni ko'rsatishni istasangiz, buning yana-da oliyjanob usullarini toping.

Sport bilan shug'ullaning, suzishni, kurashni, uzunlikka va balandlikka sakrashni o'rganing. Omma oldida o'zingizni to'g'ri tuting, sizga foydali bo'lgan kitoblarni o'qing. O'qiganlaringiz va tinglaganlaringiz xotirangizda qolsin".

Shunday qilib, yosh zobitlar yaxshi o'qituvchilarga aylanishdi. Harbiy tayyorgarlik qanchalik ko'p bo'lmasin, ular har kuni askarlarni o'qitishga bir necha soat vaqt topishar edi. Ofitserlar urush o'yinlari, ko'ngilochar mashg'ulotlar va o'qish tadbirlarini tashkil qilishar, ular bilan suhbatlashib, turli millatlar va ularning qahramonlari

haqidagi hikoyalarni o'qir edilar. Ular proyektor bilan ham Finlandiyaning, ham boshqa mamlakatlarning tarixlarini, shaharlarini va go'zal landshaftlarini namoyish etishardi.

Ofitserlar harbiy xizmatdan qaytganidan keyin o'z oilalariga qaytib kelgan askarlarning o'z vataniga qanday xizmat qilishlari mumkinligi haqida murojaatlar qilar va bu haqidagi kitoblarni o'qir edilar. Zobitlar: "Siz kelgan joydagi odamlar yumronqoziq singari yer ostida yashaydilar. Insonlar kabi yashash qanday bo'lishini ular na ko'rgan, na eshitgan va na kitoblardan o'qigan. Siz ham u yerdan kelgansiz. Agar harbiy xizmatigingiz tugab, uyga qaytganingizda yana o'sha yumronqoziq teshiklariga kirib olsangiz, bu juda sharmandali holat bo'ladi. Siz u yerga yangi hayotning xabarchilari sifatida qaytasiz, o'sha odamlarning ruhlari va yaratuvchanligini jonlantiring hamda o'sha odamlardan bir armiya – tinchlik, osoyishtalik, rivojlanish armiyasini quring.

Dunyoda deyarli har bir armiyada jasurligi bilan mashhur qahramonlardan iborat qo'shinlar, batalonlar va polklar mavjud. Ular o'zlarini o'lim bataloni deb atashadi. Boshqalar ularni shunday chaqirishadi. Bu nomni olishlarining sababi shundaki, ular jang vaqtida oxirgi askar qolguncha kurashib, o'lishga tayyor. Vatan uchun yashash, uni taraqqiy ettirish va yuksalishi uchun mehnat qilish – Vatan uchun o'lish kabi sharaflidir.

Siz tuproqni qanday ishlaysiz? Bug'doyni qanday yetishtirasiz?

Hayvonlarning suti va o'rmonlardagi daraxtlardan qanday foyda ko'rasiz?

Erkaklaringiz ayollariga qanday munosabatda bo'lishadi?

Ota-onalar farzandlarini qanday tarbiyalab, o'qitadilar?

Boshqa mamlakatlardagi aqlli odamlar qilgan ishlari-dan dars olish kerak.

Nega hamma ingliz matolari, chex oynalari, golland konservalari, irland qo'ylari, fransuz vinolari, daniya pishlog'i, Bryussel dantellari, rus mo'ynalari, shved kartonlari va gugurtlarini yoqtirishadi va ularni sotib olish uchun ko'p pul to'laydilar?

Chunki bular o'sha mamlakatlarda eng yaxshi yetishtiriladi yoki ishlab chiqariladi. Siz ham mamlakatimizda shunday sifatli narsalarni yetishtirishga va ishlab chiqarishga harakat qilishingiz kerak. Bularning hammasini kim qiladi? Qishlog'ingizda yashaydigan savodsiz otalaringiz va aka-ukalaringizni kim o'qitadi? O'rmonlar va botqoqlar orasidagi uzoq joylarga kim boradi?"

Askarlardan so'ragan savollariga o'zlari javob berardi. Finlandiya zobitlari shunday deydi: "Buni sizlar qilasiz, siz birinchi qadamni qo'yasiz. Shunday qilib, sizning oilangiz, qishlog'ingiz, vataningiz hayotingizning katta qismini askarlikda o'tkazganingiz uchun hech narsani yo'qotmaydi, balki foyda olgan bo'ladi. Siz ulardan olganingizni yuqori foizi bilan qaytarib berasiz. Siz kazarmaga xomashyo sifatida kirdingiz va qayta ishlangan mahsulot sifatida chiqib ketdingiz va ichi o'qitish olovida yonayotgan odamlar singari uylaringizga qaytasiz".

Yer osti boyliklaridan hrum, barakasiz Finlandi-

ya zaminida yosh fin zobitlari bir madaniyat armiyasiga aylandilar. Kazarmalar katta fabrikalarga aylangandi, Finlandiya zobitlari o'z mamlakatlari uchun aqlli, mehnatsevar, ijodkor odamlarni yetishtirayotgandi.

Askarlar o'zlarining ofitserlarini hurmat qilib, yaxshi ko'rishar va harbiy xizmatdagi harakatlari, o'zlarining xulq-atvori bilan ularni xafa qilishdan qochishardi; beparvo, intizomsiz askarlar bilan ishlash vazifasini o'z zimmalariga olishardi. Aksariyat askarlar xizmat tugagandan so'ng, oilalari yoniga qaytib kelib, ular o'zlarining ofitserlari bilan xat yozishar va hayotga boshqacha nuqtayi nazardan qarayotganlarini aytishardi. Ular mamlakat kelajagi to'g'risida o'z g'oyalarini aytib berishar, turli masalalarda maslahatlashib, ularga kitob va gazeta sotib olishda yordam berishlarini so'rashardi.

Butun mamlakat bo'ylab, eng chekka joylarga qadar odamlar va kazarmalar o'rtasida juda yaqin hurmat va muhabbat rishtalari o'rnatildi. Kazarma go'yo madaniy va mustahkam yangi hayotni boshlash fabrikasiga aylandi.

Kazarmalar endi odamlar qo'rqadigan joy sifatida qaralmas va o'zi munosib bo'lgan qiymatga erishgandi. Qishloqlar va shaharlardagi ota-onalar o'zlarining yaramas, beparvo bolalariga: "Qani endi harbiy yoshing tezroq kelsa! Faqat kazarmalar seni odam qiladi!" deb malomat qilayotgan edilar.

Qo'shnilar ham: "Ha, armiya uni tuzatadi. Bunday yaramasliklar bilan faqat kazarmalar kurashishi mumkin. Pekku Yuksen, Rudi Antonen armiyada odam bo'ldi. Harbiy xizmatga borishdan oldin hamma ulardan umidini uzgan edi. Endi

ular hammaga namunali odamlar. Sizning farzandlaringiz ham ular kabi kazarmada odam bo'radi. Kazarmalar bizning bolalarimizni bizdan ko'ra yaxshiroq o'qitadi va tarbiya beradi", – deyishardi.

Keksalar: "Oldin bizning ko'zlarimiz ko'r bo'lgan ekan. Biz yomon hayot kechirgan ekanmiz. Xudoga shukur, hozirgi yoshlar o'zlari uchun juda yaxshi hayot qurishmoqda", – demoqda edilar.

Shunday qilib, kazarmada mentalitet va ma'naviyat yoyildi. Yaxshi xamirturush xamirni qanday yaxshi qilsa, kazamalar ham xalqning ko'tarilib rivojlanishini tezlashtirdi.

FUTBOL

Napoleon Fransiya imperatori bo'lganidan keyin Yevropada urushlar to'xtamadi, aksincha, yana-da ko'paydi. Napoleon deyarli barcha Yevropa davlatlariga qarshi kurash olib borgan, ammo uning asosiy maqsadi Angliyani mag'lub etish edi. Angliya ham Napoleonne taxtdan ag'darish uchun har qanday narsani qilar edi.

Napoleon Rossiyaga urush bilan ham tahdid qildi. Fransiya bilan urush tahlikasi sababli Rossiya 1808-yilda Shvet-siya bilan urushni tugatdi va keyin Rossiya-Fransiya urushi boshlandi. Napoleon yigirmata millatning kuchlarini to'plab, Rossiyaga yurish qilib, Moskvaga yo'l oldi va u yerda qattiq mag'lubiyatga uchradi. Faqat shu yerda u yengildi. Uning boshi rus xalqining bag'rida parchalandi. U kuchsiz va nochor holda Fransiyaga qaytib keldi. U eski kuchini qaytarib olishga harakat qilgan bo'lsa ham, inglizlar butun Yevropani Napoleonga qarshi birlashtirdilar va Fransiyani mag'lub etdilar. Asirga tushgan Napoleon Sainte Helena oroliga surgun qilindi.

Napoleonning urushlaridan charchagan yevropaliklar Angliyaning g'alabasidan juda xursand bo'lib, uning qudratiga qoyil qolishdi. Ular inglizlarga taqlid qilishni xohlashdi va natijada hamma narsa, hatto ularning turmush tarzini ham modaga aylantirib, ko'chirib olishni boshlashdi.

Odatda, yosh bolalar va voyaga yetmaganlar kattalarning yomon odatlariga taqlid qilishadi; Chekish va ichishni boshlashlari, baland ovozda va haqoratli so'zlar bilan ga-

pirishlari kabi... Madaniy jihatdan rivojlanmagan davlatlar ham bu xatoni takrorladilar, inglizlarning kulgili va zararli odatlaridan o'rnak oldilar va ingliz turmush tarzining yovuz taqlidchilariga aylanishdi.

Boy va badavlat odamlar inglizlar kabi ot poygalarida ko'p pul sarflay boshladilar, viski-soda ichishni, inglizcha uslubdagi kiyim kiyib, sochlari va soqollarini inglizcha uslubda oldirishni boshladilar. Yoshlar esa ingliz sportlariga va bularning qo'poli bo'lgan futbolga qiziqishdi.

Ularning aksariyati talabalar bo'lgan Yevropa yoshlari orasida futbol go'yo bir dinga aylandi. Butun Yevropa bo'ylab futbolga sig'inishni, futbolni fan sifatida, san'at sifatida ko'rishni va ko'rsatishni boshladilar va ba'zi johil jurnalistlar yoshlarning bu qiziqishidan foydalanish uchun qo'llaridan kelgancha harakat qilishdi. Hamma gazetalarda futbol uchun sahifalar ochildi va "Buqa oyog'idek kuchli oyoq"li yoshlar haqida maqolalar har kuni yozildi.

Snelman davrida Finlandiyada shunga o'xshash voqealar yuz berayotgandi. O'sha paytda hali ham ilmiy izlanishlar o'rgatilmagan fin yoshlari ideallar bilan yashashga odatlanmagan edilar. Finlandiya Rossiyaga qo'shilgandan so'ng, shvedlarga bo'lgan nafrat va kurash ruhi yo'q bo'lib ketdi. Finlandiyadagi bo'sh va dangasa yoshlar o'zlarini futbolga bag'ishladilar. Futbol, xuddi, ruhiy kasallik singari, barcha shaharlarni o'rab oldi, keyin shaharlarga va katta qishloqlarga kirib bordi.

"Buqaning oyog'iga o'xshash kuchli oyoq" o'sha davrning maqtanish ramzi edi. Snelman va uning do'stlari yoshlar intellektual rivojlanish o'rniga "Buqa oyog'idek

kuchli oyoq” kabi oyoqlar sohibi bo’lishini va avlodning ham aqliy, ham ma’naviy jihatdan pasayishidan xavotir olishayotgan edi.

Finlarni chuqur uyqudan uyg’otish va madaniy saviyasini oshirish uchun ko’p yillar davomida kurashayotgan odamlar: “Bu kabi faqatgina kuchli qo’llari va oyoqlari bo’lgan qahramonlardan nima kutish mumkin? Mamlakatning taraqqiyotida qanday xizmat qilishlari mumkin?”, – deb o’ylardilar.

Snelman, birmuncha vaqt Ispaniyada ba’zi odamlar xayoliy qahramonlar romanlarini o’qib, ritsarlarga taqlid qilib o’zlarini kulgiga qoldirganlarini va Servantes ularni mashhur Don Kixot romanida yana-da kulgili tarzda tasvirlab berganini eslatdi. Snelman va uning do’stlari: “Ko’rinib turibdiki, ba’zi bir yoshlar uchun yozilgan ahmoqona xayoliy romanlarni o’qigandan so’ng, o’rnak olishlari ahamiyatsiz narsa emas ekan. Aks holda, Servantes bu mavzuga bag’ishlangan roman yozmagan va bu bilan kurashmagan bo’lar edi”, – deyishdi.

“Servantes kitobxonlarning bunday sarguzasht romanlarga mukkasidan ketganligi aqliy dangasalikning belgisi ekanligini bilgan. Ispaniya xalqi o’sha davrda o’zlarining qoloq mamlakatlari taraqqiyoti, hayot sifatining oshishi va odamlarning madaniyati va iqtisodiyoti bo’yicha taraqqiyoti haqida o’ylamas edilar – bular uchun biron-bir tarzda, hech bir shaklda ishlashni xohlamas edilar.

Ko’p odamlar xayoliy qahramonlarga to’la romanlarni kunlar, oylar va yillar davomida o’qib, biron-bir narsa qil-yapman deb o’ylab – o’zlarini aldashar edi. Mamlakatda

madaniyatga xizmat qiladigan odamlar yo'q edi. Millatning aql-idroki uxlardi. Jaholat, qo'pollik va qashshoqlik kuchayardi, davlatning kuchi kamayar va mamlakat ma'naviy, intellektual va iqtisodiy jihatdan jarlikka tomon ketayotgan edi. Mamlakat ziyolilari va savodli odamlari xalqni tarbiyalash va ma'rifat ulashish o'rniga, xayoliy qahramonlar kitoblarini o'qish bilan vaqt o'tkazishardi".

Snelman: "Hatto bizning xalqimiz ham yozuvchilarni tushunmaydi va bilmaydi. Bizga ham hayotning kulgili tomonlari haqida gapiradigan Servantesga hamda mittilar mamlakati va uning aholisining kundalik va siyosiy hayoti to'g'risida har doim aytib beradigan o'zining Sviftiga ehtiyoji bor", – derdi.

"Bizda Servantes kabi dohiyimiz yoki Svift singari yozuvchimiz yo'q, lekin biz ular o'z jamiyatlarida boshlagan madaniy harakatni Finlandiyada davom ettira olamiz va bizda bunga yarasha aql va iste'dod bor. Vabo, vabo vibrioni va isitma mikroblari ko'zga ko'rinmaydi, lekin ular katta shaharga zarar yetkazishi mumkin. Davlatlar va jamiyatni azoblaydigan ma'naviy mikroblar ham mavjud va ular vabo mikroblaridan ham xavfli va yuqumli hisoblanadi", – derdi Snelman va do'stlari.

Bezgak va sil kasalligi Finlandiyada keng tarqalgandi; odamlar sil kasalligidan qiynalardi. Shvedlar bu holatga e'tibor berishmas edi, Snelman boshchiligida esa sil kasalligiga qarshi urush boshlandi.

Snelman "Nafaqat tanani, balki insonning ongi va ruhi-da ham sil kasalligi uchraydi. Deyarli barcha Finlandiya yoshlari u kasallikdan y sil kasalligiga chalingan. Kelajakda

mamlakat taraqqiyotiga asos bo'ladigan yoshlar orasida bu kasallik tarqalishini to'xtatish va kurashish kerak", deb o'ylardi.

Bir kuni yetakchi futbol jamoasining 10 yilligi munosabati bilan katta marosim bo'lib o'tdi. Odamlar zavq bilan tomosha qilgan ikkita futbol jamoalari o'rtasidagi o'yindan so'ng ko'plab sport vakillari ishtirokida konferensiya boshlandi. Snelman va do'stlari ham o'sha yerda edi. Snelman, shuningdek, yirik sport assotsiatsiyasining faxriy prezidenti edi.

Snelman yig'ilishda so'zga chiqdi va shunday dedi: "Finlandiyalik yoshlarning sport bilan shug'ullanishini ko'rish meni xursand qiladi. Me'yorida bajariladigan jismoniy mashqlar yoshlarning rivojlanishiga yordam beradi. Falsafada dunyoga mashhur bo'lgan qadimgi yunonlar gimnastika, kurash, yugurish va uzunlikka sakrash kabi sport turlariga bekorga e'tibor berishmagan. Jismoniy mashqlar tananing chaqqonligi va kuchini oshiradi. Shu tarzda tananing holati yaxshilanadi, qadamlari va harakatlari yaxshilanadi.

Shaharlardagi havosiz uylarda uzoq vaqt o'tirish va harakatsizlik tanani buzadi, mushaklarni zaiflashtiradi, qonni zaharlaydi va odamlarni sust qilib qo'yadi. Bunga qo'shimcha ravishda, maktabda uzoq vaqt davom etadigan hamda jonli o'qitish o'rniga eski usuldagi o'qitish qo'shiladi va o'quvchilarning miyasiga nomlar, o'lchovlar, sanalar va qoidalar yodlatib to'ldiriladi.

Germaniyadagi o'quvchilarning aksariyati ko'zoynak taqishadi, ko'zlari allaqachon yomonlashgan. Qishloqlar-

da emas, balki shaharlarda yashovchi o'quvchilarning ak-sariyati beli zaif, ko'kraklari ichiga kirgan, qo'llari nozik, oyoqlari ingichka va yuzlari oqargan bo'ladi. Bu bolalarni ko'rganingizda, ularni qirga olib chiqib ketish, ochiq havoda sakratib, yerdagi chimlarga yumalattirish istagi paydo bo'ladi.

Qadimgi yunonlar shunday qilishgan. Endi biz ham ular singari qilamiz. Ammo Suqrot, Phidias¹ va Perikl² davrida yashaganlar hayotning asosiy tamoyili "Siz hech narsani oshirib yubormasligingiz, hammasi muvozanatli bo'lishi va hamma narsa o'z joyida va o'z vaqtida bajarilishi kerak", deb bilishgan.

Suqrot va Esxilos³ bilan bir vaqtda yashagan Aristofanes⁴ faylasuflarning jismoniy zaifligi va nazokatini masxara qilgan.

¹ Miloddan avvalgi 490-430 yillarda Yunonistonda yashagan qadimgi dunyoga taniqli haykaltarosh. U Afina Akropolida ma'buda Afina ma'badini va Parfenondagi Zevs haykali postamentini yaratdi.

² U demokratlardan Kantipusning o'g'li bo'lib, 495-yilda tug'ilgan va 429-yilda vafot etgan. U zodagonlar oilasiga mansub edi. Bolaligida Anaxagoras, Deymon va Zenondan saboq olib, o'qituvchilari tomonidan yaxshi siyosatchi sifatida tarbiyalangan. U o'ttiz yoshida siyosiy hayotga kirdi. Demokratlar lideri o'ldirilgandan keyin, rahbar etib saylandi. Miloddan avvalgi 461-yilgi saylovlarda Arhon saylandi. U Afinada diktatorlik rejimini o'rnatdi va muxoliflikni davom ettirdi. Miloddan avvalgi 444-yilda u muxolifatni bekor qildi va diktatorga aylandi. Perikl Afina davlati rahbari sifatida mamlakatni isloh qildi. yangi qonunlarni qabul qildi va ularga mos kelmaydigan eski qonunlarni olib tashladi. U Afinani Yunonistonning eng muhim shahriga aylantirdi. Afinada badiiy va me'morchilik asarlarini qurdirdi. U Afinaga Yunonistonning eng taniqli olimlarini yig'di.

³ Yunon tilida Ayskilos, tug'ilgan sanasi taxminan miloddan avvalgi 525/524-yillar, vafot etgan sanasi taxminan miloddan avvalgi 456/455-yillarda. Qadimgi Yunonistonda yashagan, dramaturg bo'lgan.

⁴ Miloddan avvalgi 456-386-yillarda yashagan komediya yozuvchisi.

“Ahmoqlikni maqtash” asari yozuvchisi miyasi yodlangan bilimlarga to‘la bo‘lgan nazariyotchilarni shafqatsizlarcha masxara qilgan. “Gulliverning sarguzashtlari” asari muallifi Swift qurbaqalar singari shishgan va buyuk odam bo‘lishni istagan liliputlarni masxara qilgan. Liliputlarning qoliplangan hayoti va yomon odatlari haqida kinoyali tarzda gapirib, Swift bunga alohida bob ajratgan. Liliputlar – yelkari tor, bo‘yinlari ingichka va boshlari katta odamlar bo‘lib, ularning butun hayoti formulalar va geometrik chizmalarga ko‘ra shakllanadi. Hayotlari ham xuddi o‘zlari singari chirkin va jirkanchdir.

Do‘stlarim bilan orzu qilgan Finlandiyaning kelajagi liliputlar mamlakati singari bo‘lishini istamaymiz. Bizga liliputlar kerak emas. Biz xalqimiz oyoqlari kuchli, ammo aql jihatidan ham orqada qolmagan xalqqa aylanishni istaymiz.

Buqaning oyoqlari kabi kuchli oyoqlari va qo‘y miyasi kabi zaif miyasi bo‘lgan odamlar bizning idealimiz emas. Bunday odamlar bizning millatimiz uchun namuna, ideal bo‘lolmaydi. Siz Finlandiyada futbolning rivojlanishidan hayajonlanib, “Kuchli oyoqlilar” futbol jamoasining Shvet-siya, Norvegiya va Daniyaliklar bilan o‘yinlar o‘tkazganidan va hattoki Vengriyaga ketib, u yerda g‘alaba qozongani uchun xursandsiz. Ammo men sizning quvonchingizga qo‘shilmayman.

Agar sevimli mamlakatimiz Suomida Kuchli Fikr, Sifatli Ishlar, Buyuk Tashabbuslar, Sut beradigan Sigir, Eng yaxshi Tuxum, Eng yaxshi urug‘ Ekinlari, Qor kabi oq mato, Toza vijdon, Yangi g‘oyalar kabi jamoalar paydo bo‘lsa, men juda

baxtli bo'lar edim. Men finlarning nafaqat Vengiryaliklarni, balki fransuz va inglizlarni ham mag'lub etishlarini istardim, nafaqat futbol, balki ilm-fan, tasviriy san'at, savdo, sanoat, adolat va mamlakat taraqqiyoti bilan ham g'alaba qozonishini istardim.

Mamlakatimiz taraqqiyoti uchun kurashayotgan bu urushda faqatgina kuchli futbol qo'l va oyoqlari bilan uzoqqa bora olmaymiz. To'pga bosh bilan kuchli zarba berish uchun kuchli peshona talab qilinadi va eng kuchli peshona qo'chqorlarda topiladi. Qo'y peshonasining fin yoshlari uchun g'urur manbai bo'lishini ishonmayman.

Agar siz Suqrot va mashhur Gerakl haykalining rasmlarini qidirib topsangiz va ularni taqqoslasangiz, Suqrotning bosh chanog'ida aqlli bosh borligini payqaysiz. Keng bir peshona – bu yer miya joylashgan joydir. Suqrotning miyasi, xuddi, uning bosh suyagiga sig'may va tashqariga chiqib ketgandek.

Gerakl haykaliga qarasangiz, qadimgi yunon afsonaviy qahramonining kuchli va mushakli tanasi sizni hayratda qoldiradi. Ushbu qudratli tanani ko'tarib turgan katta ildizga o'xshash oyoqlari, kema arqonidek qo'l mushaklari, keng yelkalari, keng ko'krak qafasi va buqalar bo'yniga o'xshash bo'yin va kichkina boshi, tor va ensiz peshonasi. Bularning barchasi kuchli badanning ifodasidir. Ammo bu qahramon unchalik aqlli emas. U baquvvat tanaga ega, kuchli va mushakli odam, ammo aqli, ma'naviyati va aql-idroki orqada qolgan.

Siz Suqrot yoki Geraklning boshini tanlang, deb aytmayman. Buqaning kuchli oyoqlarini o'ylayotganda,

Suqrotning boshini ham o'ylang. Boshingiz qo'chqorning boshi kabi qattiq bo'lmasin. Ushbu oltin qoidani unut-mang: "Hamma narsani o'z vaqtida bajaring. Ish vaqtida ishlash; O'yin-kulgi vaqtida zavqlaning. Finlandiyani faqat futbolchilarga emas, xalqni iqtisodiy, savdo-sanoat, g'oyalar va axloq nuqtayi nazaridan ko'taradigan odamlarga ham ehtiyoji bor. Madaniy jihatdan qoloq va madaniyatli xalqlar hayotining yomon va salbiy tomonlarini oladiganlarga taqlid qilmang. Parijga boradiganlar kafelarni kashf etadilar, Germaniyada esa ular barlardan boshlaydilar va Angliyada futbol uchrashuvini davom ettiradilar. Ko'zlar-ingiz yuksakda bo'lsin. Yevropada san'at, ilm va fikr man-balariga boring. Germaniyadagi "Tugendbund" (Xayriya uyushmasi) kabi tashkilotlar safini to'ldirayotgan minglab yoshlardan o'rnak oling. Ma'naviyat va ruhingizni yax-shilashga harakat qiling. Esingizda bo'lsin: "Sog'lom bosh sog'lom tanada bo'ladi".

Finlandiya yoshlari, sizning vazifangiz to'pni tobora yuqoriga va uzoqqa uloqtirish emas, sizning vazifangiz Fin-landiyani rivojlantirish va xalqning oldinga siljishini ta'min-lashdir".

OTA-ONALAR VA BOLALAR

Finlandiyani uyg'otish uchun Snelman va do'stlari yangi o'sayotgan yoshlarga yaxshi ta'lim berish masalasiga barcha e'tiborlarini qaratishdi. Yoshlar masalasi Snelmanning eng sevimli mavzusi, shuningdek, uning eng nozik va zaif tomoni edi. Snelman ba'zida yoshlarga tanbeh berar edi, ammo keksalar yoshlardan shikoyat qila boshlaganda, u har doim yoshlarni qo'llab-quvvatlab, shunday derdi:

“Qabohat yoshlarda emas, balki sizda. Siz yoshlarni qanday tarbiyalasangiz, ular ham shunday o'sadi. Yoshlarga qanday bilim berdingiz? Hech nima bermadingiz! Onalar boshlarini kir yuvish, idish-tovoq, ovqat pishirish va tozalashdan ko'tarolmaydilar. Otalar davlat xizmati, savdo, do'kon yoki fabrika ishi bilan bandlar, ishdan keyin ular mayxonalarda va klublarda karta o'ynaydilar. Bolalarni tarbiyalashga hech kimning vaqti yo'q, bundan tashqari, bolalar bilan shug'ullanish odamni charchatadigan va zeriktiradigan ishdir.

Ota-onalar farzandlari bilan gaplashmaydilar va ulardan kunlarini qanday o'tkazganini so'ramaydilar. Vaqt topishsa, qo'llariga o'yinchoqlar va konfetlar berishadi va boshlarini silab: “Qani, chetroqqa borib o'ynanglar” deyishadi. Bu, aslida, “Nima qilsangiz ham, bizning ko'zimizdan yiroq bo'ling, shunchaki, bizni bezovta qilmang” degan ma'noni anglatadi.

Shu sababli bolalik davrida bolaning ongi, qalbi va yuragi ishlov berilmagan daladek bo'sh qoladi, chunki u yerga yaxshilik urug'i ekilmaydi. Bolalar bilan yaxshilik,

solihlik va sevgi haqida gaplashilsa ham, ular qo'l uchida amalga oshiriladi. Ota-onalar bolaning ruhi va aql-idrokiga mos keladigan tarzda gapira olmaydi; xohlasalar ham bajara olmaydilar.

Haqiqatni aytganda, bolalar garchi bir uyda ota-onalari, amakilari, ammalari va xolalari bilan yashasalar ham, deyarli yetimlarga o'xshashadi. Ba'zi oilalarda bolalar yaxshi ovqatlanadilar, yaxshi kiyinadilar va ularning sog'lig'iga g'amxo'rlik qilishadi. Ammo bolaning ruhi va aql-idrokiga e'tibor berilmaydi. Bunday sharoitda voyaga yetgan bolalar hozirgidan ham yomon bo'lmaganiga, haqiqatan ham hayron qolishimiz kerak. Bu bolalar katta bo'lib, hamma narsani tushuna boshlaganlarida nimalarni ko'rib, nimalarni his qilishmoqda?

Shaharlar, qishloqlar, qishloqlarning maydonlari va ko'chalarida chiqindi yig'ilib ketayotganini ko'rgan odamlar "Bular sog'liq uchun zararli, ularni bu yerda qoldirish sharmandalik", deb shikoyat qiladilar.

Onalar va otalar, yaxshilab o'ylang, vijdongingizga qarab qaror bering. Sizning farzandlaringiz tarbiyalanadigan va shaxsiyatlari shakllanadigan oilaviy muhit aqliy va ma'naviy jihatdan yetarlicha yaxshimi?

Ota-onalar va kattalar doimo bolalarga "Yolg'on gapirma, hech kimni aldama, buni qilish yaxshi emas, bu qilgan ishing gunoh" deb aytishadi. Ushbu maslahatlarni beradiganlar ularga o'zlari amal qilishmaydi: yolg'on gapirib, odamlarni aldaydilar. Bolalarga xushmuomala va tarbiyali bo'lishni aytadiganlar boshqa odamlarga nisbatan o'zlari qo'pol va odobsiz munosabatda bo'lishadi.

Bolalar aldanganliklarini tezda anglaydilar. Avvaliga, ular hayron bo'lishadi, ota-onalari o'zlari yomon va gunoh deb ko'rsatgan narsalarini qanday o'zlari qilishlarini tushunolmaydilar. Keyin esa ular "ota-onalarning aytganlari va qilgan ishlari boshqa-boshqa" degan fikrga kelishadi. Shu sababli ularni ota-onalarining so'zlariga ishonchlari qolmaydi va keyin ularning gaplariga quloq solishmaydi.

Ota-onalar esa hatto yosh bolalar ham ularga bo'ysunmasligidan, yaramas va qaysar ekanliklaridan shikoyat qiladilar, lekin ular bolalarning bunday bo'lishiga o'zlari sababchi bo'lganliklarini tushunmaydilar.

Siz bolalarning hurmati va sevgisiga qasd qilish, g'azablanish, baqirish va jazolash orqali erisha olmaysiz. Bolalar oldida ular sizni hurmat qiladigan tarzda harakat qiling, shunda ular sizning harakatlaringizni ko'rib, sizni yaxshi ko'rishadi va hurmat qilishadi.

Ba'zi ota-onalar kiyimlariga va shaxsiy ko'rinishlariga e'tibor bermaydilar. Ular bolalari yonida yirtilgan, eski, iflos kiyimlar va iflos qo'llar bilan yurishadi, o'z nutqiga va xatti-harakatlariga ahamiyat bermaydilar. Ba'zilari bolalarining oldida urishib, bir-birlarini yana-da ko'proq pastga urish maqsadida "Otangning ahvolini ko'ryapsanmi?", "Sening onang mana shunaqa ayol" kabi so'zlarni ayti-shadi.

Oilaviy suhbatlardagi keraksiz mish-mishlar, odamlarni taqqoslash, manfatlarga asoslangan maqtovlar... 15-20 yil davomida bolalar shunday botqoqlikda yashashga majbur bo'ladilar. Oila boshliqlari nega yoshlar burgutday ucholmasliklari va o'zlarining qo'liga o'xshab ketishlariga hay-

ron qolishadi.

Men ota-onalardan so'ramoqchiman: Siz bolalaringizga tarbiya berayotganda ularga burgut qanotlarini berganman deb o'ylaysizmi? Yoki qanotlarini ilk boshdanoq o'zingiz sindirdingizmi?

Bolalar ulg'ayib bir yosh qiz va qoni qaynoq o'g'il bolaga aylanganda, ota-onalari ularning kelajagi haqida xayol qiladilar. Ular o'g'illarining muhandis, xizmatchi, savdogar, shifokor, advokat yoki biron-bir yaxshi kasb egasi bo'lishlarini xohlashadi; qizlariga esa boy er topishga harakat qilishadi. Farzandlarining farovon yashashlari uchun harakat qilishadi va ota-onalik vazifalarini eng yaxshi tarzda bajarman deb o'ylashadi.

Lev Tolstoy juda qat'iyat bilan bir haqiqatni aytgan:

—“Hayotdagi tartibsizlikning eng katta sabablaridan biri shudir: Har kim hayotda boy bo'lishni xohlaydi, lekin hech kim o'z hayotini tartibga solishni xohlamaydi”.

Hamma hayotdan ko'proq narsani olishni xohlar ekan, lekin unga hech narsa qo'shishni xohlamaydi. Ular o'zlarining xudbin, egoist va parazit sifatida yashayotgan hayotlarining ma'nosini boshqalar evaziga yashab izlaydilar. Ushbu “hayot falsafasini” bolalarga singdiradiganlar — bu onalar va otalar! Ushbu maslahat va o'rnaklar bilan o'sgan bolalar kelajakda egoist, o'zini o'zi sevadigan, sayoz va ma'naviy jihatdan zaif bo'lib qoladilar; Ular keyin axloqsiz va shahvatparast shaxslar sifatida jamiyat hayotiga qo'shiladilar.

Bu yoshlarning o'z vataniga, xalqiga muhabbat tuyg'usi yoki g'oyalari, mehnat talab qiladigan ishlariga esa hurmat

hissi yo'q. Ular ota-onalarini chin dildan sevmaydilar. Xulosa qilib aytganda, siz nima eksangiz, shuni o'rasiz; nima pishirsangiz, shuni yeysiz.

Agar siz yoshlarning ruhini beparvo qoldirilgan daladek bo'sh qoldirsangiz, u yerda faqat yovvoyi o'tlar va tikanlar kabi zararli o'tlar o'sadi. Ota-onalar farzandlarining aqli va qalbini tarbiyasiz qoldirishlari aqlga ham, vijdonga ham to'g'ri kelmaydi. Bunday beparvolikning axloqsizlik va qotillikdan bir farqi yo'q. Bolalarning tarbiyasizligi nafaqat oila, balki jamiyat va davlatning muammosidir. Istaganingizcha mukammal qonunlar yarating, adolatli saylovlar qiling, siyosiy mafkuralarning mo'jizaviy kuchlariga ishonning, agar sizning farzandlaringiz hayotga to'g'ri tarbiya ko'rmagan holda tashlansa, qanchalik yaxshi qonunlarga ega bo'lsak ham, bizning ijtimoiy hayotimiz ayanchli bo'lib qolaveradi. Bu yoshlar ichidan chiqqan davlat xizmatchilari o'z ishlariga beparvo qarashadi, deputatlar o'z manfaatlarini ko'zlaydi, vazirlar siyosiy qo'g'irchoqlar bo'ladi. Maktablar yangi avlod ongi va qalbini xira qiladigan joylar bo'ladi, mamlakat matbuoti ko'chalarda tanasini pulga sotadigan fohishalarga o'xshaydi. Siz ham shaxsingizni, ham jamiyat hayotini shunga yarasha tartibga solishingiz kerak".

Snelman va do'stlari mamlakatning barcha shaharlarida va qishloqlarida shu kabi ma'ruzalar qilishdi. Bu suhbatlar samarasini ko'rsata boshlagandi va ota-onalar farzandlarini to'g'ri tarbiyalash to'g'risida jiddiy o'ylay boshlab, o'zlarining ustilariga tushgan vazifalari va majburiyatlari qanchalik muhimligini tushungandilar.

Mamlakatning ko'plab mintaqalarida ota-onalar birlashib, ota-onalar birlashmalarini tuzdilar va bolalar tarbiyasidagi muvaffaqiyatsizliklar sababini o'rganishga hamda o'z bilimlari bilan o'rtoqlashishga kirishdilar. Ta'lim sohasida erishgan yutuqlaridan, muvaffaqiyatlaridan xursand bo'lishar, ammo buni yetarli deb hisoblamay, o'zlarining uyushmalariga pedagoglar va psixologlarni taklif qilishib, ularning tajribalaridan foydalanishdi. Taniqli o'qituvchilar va psixologlar mamlakat bo'ylab sayohat qilib, odamlarga o'zlarining tajribalari va ilmiy ma'lumotlari asosida bolalarni qanday tarbiyalash kerakligini aytib berishar; jamoatchilikka bola ruhining fazilatlarini hamda uning zaif tomonlari, kasalliklari va ushbu kasalliklarni davolash usullarini o'rgatardilar.

Qishloq xo'jaligi muhandislari dehqonlarga kartoshka yoki beda turlarining eng yaxshi navlarini qanday yetishtirishni o'rgatgani kabi, bolalar ruhini yaxshi biladigan o'qituvchilar va pedagoglar ota-onalarga shaharlik yoki qishloqlik, davlat xizmatchisi yoki savdogar kasbidan qat'iy nazar, o'z vatani va millati uchun foydali bo'lgan ziyoli odamlarni tarbiyalash usullarini aytib berishdi. Bu ishlardan so'ng Finlandiyaning oilaviy tarkibi o'zgarishini boshladi va ham aqliy, ham ma'naviy jihatdan o'zgarib boshladi.

XALQ UNIVERSITETI

Finlandiyaning yosh ziyolilari Snelman atrofida to'plangandilar va yangi madaniyat xodimlari asta-sekin, ammo to'xtovsiz ularga qo'shilishda davom etardi. Snelman guruhiga Helsingfors (Helsinki) Universitetining yosh professorlari, chekka qishloqlardagi o'qituvchilar, ziyoli savdogarlar va fabrika ishchilari, poytaxtdan tashqarida yashovchi shifokorlar, davlat xizmatchilari va advokatlar ham kirishgandi. Bu yangicha fikrlash tarzi asta-sekin butun Finlandiyaga tarqaldi. Bu ishga yurak bag'ishlaganlar faqat shuhrat qozonish uchun tashkil etilgan ta'lim va madaniyat uyushmalarida ishlaydiganlardan farq qilar edi. Bu yerda hamma ishning boshidan tutgandi va so'zning eng yaxshi ma'nosini qo'llagan holda hamma madaniyat missioneriga aylangandi. Guruhdagi har bir kishi sadoqat bilan, qat'iyat va ilhom bilan ishlar, bu ishlarni qilish davomida ular hech qanday shaxsiy manfaatlari haqida o'ylashmasdi.

Eski va ishlatilgan kitoblarni to'plashib, ichidan eng yaxshilarini tanlab olishar va ko'chma kutubxonalar orqali eng chekka qishloqlarga qadar yuborishardi. Ortidan qishloqlar o'rtasida kitob almashinuvini nazorat qilardilar.

Dastlab har ikki-uch haftada bir, keyinroq har yakshanba kunlari adabiyot, sog'liqni saqlash, iqtisod va axloq bo'yicha jamoatchilik tushunadigan tarzda uchrashuvlar o'tkazdilar. O'z filiallarida eng muvaffaqiyatli odamlar va murabbiylar tanlab olinib, butun Finlandiyaning to'rt tomoniga yuborilardi.

Shunday qilib, doimiy harakatda bo'lgan bir davlat universiteti tashkil etildi. Ushbu tashkilotning aksariyati mohir notiqlik qobiliyatiga ega yoshlardan iborat edi. Jamiyatni tarbiyalab, xabardor qilish orqali bu yoshlar eng dangasa ruhlarni uyg'ota oldilar va konferensiyalarda qatnashuvchilarda ko'proq narsa o'rganish va mamlakat ravnaqi uchun nimadir qilish istagini uyg'otardilar.

Oldinlari boylar vafot etishidan oldin o'zlarining boyliklarining bir qismini cherkovlarga va ba'zi xayriya tashkilotlariga xayriya qilardi. Jamiyatni ma'rifatli qilishga qaratilgan sa'y-harakatlar natijasida ta'lim uchun fondlar tashkil etildi va boylar o'z boyliklarini ushbu ta'lim fondlariga xayr-ehson qila boshladilar. Shuningdek, o'zlarining ko'chmas mulklarini kutubxona, anjumanlar zali va madaniy xizmatlar uchun foydalanishga topshirdilar.

Bu vaqt davomida ba'zi qishloq aholisi konferensiyaga kelganlarga yog', asal, tuxum, mato, qo'lda to'qilgan va o'rilgan mahsulotlarni olib kelishar va "Iltimos, bularni oilangizga olib boring. Sizlar bizni ziyoli qilish va ta'lim berish uchun uzoqdan kelayapsiz. Bularning barchasi uchun qo'limizdan kelganicha minnatdorchilik bildirishga ijozat bering. Siz bizga o'rgatgan narsalaringiz va bergan baxt bilan taqqoslaganda, bu juda kichik narsalar" deb, olib kelgan mahsulotlarini berishardi.

**XALQ UNIVERSITETINING 25 YILLIGI
VA SAVDOGAR JÄRVINENNING NUTQI**

Xalq universiteti yigirma besh yillik mashaqqatli mehnatidan so'ng, Snelman yashagan Kuopio shahrida milliy bayram bo'lib o'tdi. Marosimdan so'ng Finlandiyada Jem (Shirinlik) qirol sifatida tanilgan Jarvinen so'zga chiqdi va bir soatdan ko'proq vaqt davomida gapirdi. Ko'plab ma'ruzachilarni tinglashdan charchagan bo'lsalar ham, mehmonlar Jarvinenning nutqini katta qiziqish bilan tinglashdi.

Jarvinen: "Men ilgari kichik va kambag'al savdogar edim. Men bolaligimda ko'chada qo'limda savat bilan shirin nonlarni sotardim. Keyin bozorda kichik do'kon ochdim. Buyuk savdogarlar menga kredit hisobi ochishar va 200-300 markka yarasha pechenye, shirinlik, konfet va quritilgan mevalarni berishardi. Qarzlarimni ularni sotish orqali o'z vaqtida to'lardim. Shu sababli ularning barchasi meni yaxshi ko'rishar va kelajakda kattaroq do'kon ochishimga yordam berishlariga va'da berishardi. O'sha paytda men to'q edim, chiroyli kiyim kiyib, yaxshi uyda yashardim. Faqat buni qanday tushuntirishni bilmayman, o'sha paytdagi holatim menga yoqmasdi. Men doimo zerikardim. "Kichik do'kon, shuning uchun xaridorlar kam va daromad yetarli emas. Men hayotimda erishadigan hamma narsa oz va kichik bo'ladi". Men doimo shu haqida o'ylardim. Men sizga aytib beradigan hikoyani diqqat bilan tinglashingizni so'rayman. Savat ko'tarib yurib shirinliklar sotadigan bolalarning boy bo'lishlari va o'zi tug'i-

lib o'sgan shaharda katta mahalliy gazeta va teatr binosi qurish uchun yuz ming markani xayr-ehson qilishi odatiy hol emasligini siz yaxshi bilasiz. Men ularni o'zimni maqtash uchun aytayotganim yo'q. Men sizning oldingizda maqtanishga hojat ham yo'q. Qarshingizda boy biznesmen Jarvinenni emas, shaxsimda yosh, kuchli, sog'lom finlandiyaliklarni ko'rasiz. Men bu yerda qobiqlari bilan aralashtirilgan javdar nonini iste'mol qilib, o'rmonlar va botqoqlar orasidagi tashlandiq joylarda astoydil mehnat qilayotgan fin xalqining timsoli hisoblanaman. Fin xalqi orasida shirinlik qirollari kamdan-kam uchraydi. Ammo bu xalq aholisi orasida men kabi Jarvinenslar yo'q degani emas. Ushbu Jarvinenlar soni kam emas. Bu xalq orasida men kabi minglab insonlar bor. Ular, ya'ni Jarvinenlar, hali ham o'rmondagi daraxtlarning ildizlarini qo'porishib, qoyalardan toshlarni parchalashmoqda. Ba'zilariga yashayotgan hayotlari juda tor kelmoqda. Biz qiyinchilik va ishdan qo'rqmaymiz. Bizdan ko'ra yaxshiroq sharoitda yashaydiganlarga ham hasad qilmaymiz. Jarvinenlarning jonlari siqilib, porloq kelajakni xohlashadi. Quyosh kabi kattaroq, yana-da chiroyliroq, yana-da yorqinroq narsalarni qilishni xohlashadi. Ularning qalbida nimadir qaynab turibdi va toshishni xohlaydi, ammo chiqish yo'lini topa olmayapti.

O'tgan yili men Janubiy Italiyaga bordim va murabbo tayyorlashda ishlatish uchun apelsin bilan to'la kemani sotib oldim. Bir necha kunlik bo'sh vaqtimdan foydalanib, Neapol yaqinidagi Vezuviy vulqonining tepasiga chiqdim. Vulqon kraterini tomosha qilar ekanman, o'zimning yosh-

ligimni esladim. Men o'sha paytdagi fikrlarim, hissiyotlarim va fin millatining ahvoli haqida o'yladim. Krater ichida zich qora lava massasi qaynab, ko'piklanib turardi. Ba'zida lava vulqonning tor krateriga ko'tarilib, tushardi. Go'yo vulqon ichida kraterning torligiga qaramay, nafas olishni xohlaydigan ulkan bir dev bor edi. Yer qobig'i ostida to'plangan lavaga vulqonning krateri tor kelar va vulqon ichidagi kuchli issiqlik lavani kraterdan tashqariga chiqarayotgandi.

Men ham yoshligimda shunday holatda edim. Endi Finlandiya xalqi ham xuddi shunday ahvolda. Jarvinen degani, Finlandiya xalqi deganidir”.

QAROQCHI JOHAN KAROKEP

Janoblar! 25 yil oldin butun Finlandiyani dahshatga solgan Johan Karokepni eslaysizmi? Karokep o'g'ri va qaroqchi edi. U banklarni, korxonalarni, cherkovlarni talon-taroj qilardi. Politsiyaga qarshi chiqib, odamlarni o'g'irlab, keyin o'ldirardi. Karokep hech qanday sababsiz jinoyat qilardi. Shu sababdan uni ushlashganda, ular avval aqldan ozgan yoki ozmaganligini bilish uchun uni ruhiy kasalxonaga yotqizishdi. Karokep ruhiy kasalxonadan jasorat ko'rsatib, qochib ketdi va izsiz yo'qoldi. O'shandan beri uni hech kim ko'rmadi. Hamma uni o'lgan deb o'ylardi, chunki qochish vaqtida politsiya unga o'q uzgan. U jiddiy jarohat olgan va vafot etgach, uning jasadini do'stlari yashirincha ko'mishgan. Hamma shunday deb o'ylardi va shuning uchun Karokep unutilib ketdi.

Do'stlar Karokep tirik. Johan Karokep bilan men o'tgan yili Italiyada bo'lganimda shaxsan uchrashganman. Men uni taniy olmadim. Finlandiyada yashaydigan hamma singari men ham uni o'lgan deb o'ylardim. Restoranda ovqatlanib o'tirganimda, u meni tanib stolimga keldi. Yonida juda kelishgan uchta o'g'li ham bor edi. Go'yo fin xalqining eng yaxshi namunasi bo'lib tuyuldi. Ular baland bo'yli, keng yelkalari, baquvvat qomati, jigarrang sochlari va moviy ko'zlari bor edi. Ularning yuzlari Janubiy Amerikaning jazirama quyoshida toblangandi. Italiyaliklar ularni "Apollonning o'g'illari" deb atashardi. Uchalasi ham Yevropaning uchta turli universitetlarida tahsil olishayot-

gan ekan. To'ng'ichi Shveysariyadagi O'rmon fakultetida o'qir va Kaliforniyadagi O'rmonchilik xo'jaligiga boshqaruvchilik qilayotganmush. Eng kichigi Fransiyada Qishloq xo'jaligi fakultetida, o'rta o'g'li esa Germaniyada kimyo bo'yicha o'qimoqda ekan. Uning teri, yog'och va yog'larining kimyoviy jarayonlari bo'yicha o'tkazgan tadqiqotlari Germaniyaning mashhur universitetlaridan birining e'tiborini tortibdi. Hamma bu yigitni taniqli kimyogar bo'lishini kutayotgan ekan.

Bu uchta aqlli, kelishgan va muloyim yigitlar bir vaqtlar mamlakatimizni qonga bulg'agan Karokepning o'g'illari edi. Ilgari gazetalarda Karokepning oilasi borligi, uning rafiqasi uning qotilliklaridan bexabarligi va Karokepning yaxshi er va ota bo'lganligi haqida yozilgan edi. Ko'p yillar davomida Karokepning oilasi unutilgan. Lekin Karokep ularni unutmadi va ularni do'stlari orqali Amerikaga olib keltirgandi. Ammo Amerikaga ketayotganda xotini sariq isitmaga chalingan va shu kasallikdan vafot etgan. Karokep uch o'g'lini shaxsan o'zi tarbiyalagan. Ular uchun ham ona, ham ota bo'lgan. U bolalari bilan maktabga borib, ta'lim olgan.

Karokep – hozirda boshqa ismdan foydalanmoqda va men, albatta, bu yangi ismini aytmayman – ikkita yirik kema bilan Genuyaga bug'doy yuborgan va o'zi ham o'g'illari bilan birgalikda Italiyani ko'rishni xohlagan. Karokep yangi nomi bilan Janubiy Amerika mamlakatlaridan birida, yangi vatani deb biladigan joyida savdo-sotiq ishiga kirib, katta boylik orttirishni bug'doy qiroliga aylangan. U shunchalik boyib ketgan ki, bug'doyning shirinlik qirolingiz

Jarvinen uning yonida kambag'al hisoblanadi.

Bolaligimizda va yoshligimizda Karokep bilan juda yaxshi do'st edik, ikkimizning ham otamiz kambag'al insonlar edi. Biz Karokep bilan birga o'sganmiz, g'alati tasodif tuyayli bir vaqtning o'zida otalarimiz vafot etishdi va biz yetim qoldik. Beva qolgan onalarimiz bizni shaharga olib kelishdi. Meni novvoyga shogird berishdi; Karokep ham boy savdogar yoniga joylashtirildi. Bu savdogar ilgari mamlakatda yung va saqich yig'ib, eksport qilar edi. Savdo qiladigan joylarida yetishtiriladigan bug'doy ehtiyojni qondira olmasligi sababli, u chet eldan olib kelgan bug'doyni qishloq aholisiga sotar edi.

Karokep kelishgan, aqlli, halol va mehnatsevar edi, ammo u juda tez g'azablanardi. U o'zini g'azablantirganlarga qarshi har narsa qilishdan tap tortmasdi. G'azablangan vaqtida u titray boshlar, yuzi oqarar, tishlari g'ichirlardi va ilon kabi xirillab: "Men senga Karokep kimligini va uning jahlini chiqarish qanday bo'lishini ko'rsataman!", — der edi.

Savdogar Karokepni yaxshi ko'rar edi. Uni hamma joyda qanchalik nomusli ekanligini maqtashdan to'xtamas edi. Bir necha yil o'tgach ba'zi muhim xaridlarni amalga oshirishni unga ishonib topshirishni boshladi va unga katta miqdordagi pulni omonat qoldirishni boshladi. Keyin uni katta omborlaridan biriga boshliq qildi. U direktor bo'lganidan so'ng, to'satdan va birinchi hech kim tushunmagan bir voqea sodir bo'ldi. Karokep savdogar unga ishonib topshirgan katta miqdordagi pullarni dehqonlarga tarqatdi va savdogarni juda qattiq kaltakladi. Uni

sudga olib borishganida, Karokep umuman gapirmadi, faqat g'azabdan kulib qo'ydi. Sud oxirida u: "Agar siz meni o'rnimga savdogarni jazolaganingizda, yaxshi ish qilgan bo'lar edingiz", deb qo'ya qoldi.

Keyinchalik savdogar hammaga: "Menimcha, Karokep aqldan ozdi", degandi. Karokep bir necha oy qamoqda o'tirdi va shu vaqt davomida u hech kim bilan gaplashmay, kitob o'qish bilan vaqtini o'tkazdi. Faqat qotillarning qotillik hikoyalarini o'qishdan zavq olgan emish.

Karokep qamoqdan chiqqanidan so'ng xotini va bolalarini chet elga yubordi. Ko'p o'tmay, Finlandiyaning turli qismlaridan o'g'irlik va qotillik haqida xabarlar kela boshladi. Ikki yil ichida bir nechta banklar va o'nga yaqin cherkovlar o'g'irlanib, uchta ruhoniy o'ldirildi. Hamma yaxshi ko'radigan va hurmat qiladigan shifokor o'z kasalini ko'rgani ketayotganda o'ldirildi. Tekshirishganda shifokorning pullariga teginilmaganligi sababli, uning nima uchun o'ldirilgani mavhum qolgan. Oxirida esa shaharning kirish qismida joylashgan qabriston cherkoviga o'g'ri kirgan. Cherkov yonida o'tirgan ruhoniy cherkov oynalaridan tasodifan yorug'lik tushayotganini ko'rib, xizmatchini chaqirgan va ular cherkovga birga borishgan va o'g'ri bilan baland devorli cherkovning kirish qismida yuzma-yuz kelishgan. Qaroqchi qo'riqchining boshiga temir tayoq bilan urib, qo'riqchini o'ldirgandan keyin ruhoniyga hujum qiladi. Boshiga urilgan zarba tufayli boshi yorilgan ruhoniy baland ovozda baqirib yordam so'rashga muvaffaq bo'ladi. Oy yorug'i tushgan bir qorli qish kechasi edi. O'sha paytda, bir nechta qishloq aholisi qabriston yonidan tasodifan

o'tib ketayotganda, yordam chaqiruvini eshitib, darhol cherkovga yugurishadi. Bir kishini qochayotganini ko'rib, uni quvib, ushlashadi va politsiyaga topshiradilar.

Politsiya so'roq vaqtida uning ismini so'raganda "Qaroqchi va qotil Karokep" – deydi. Keyin esa u g'azablangan tabassum va xotirjamlik bilan qanday qilib banklarni, ish joylarni va cherkovlarni talon-taroj qilganini, uch ruhoniylar va bir shifokorni o'ldirganini aytib beradi.

Politsiyachilarning "Bu ishlarda sheriklaring kimlar bo'lgan?" degan savoliga "Men har doim bu talonchilik va qotilliklarni yolg'iz sodir etganman. Yordamchilarim shunchaki men uchun ma'lumot yig'ishardi. Men sizga ularning hech birini ismini aytmayman. Men bularning barchasini o'z hisob-kitobim uchun qildim va barcha javobgarlikni o'z zimmamga olaman. Men o'yinni yutqazdim. Yutdingiz, mening taqdirim sizning qo'lingizda. Hamma narsaga tayyorman, agar xohlasangiz o'ldiring, lekin mendan yordamchilarim to'g'risida so'ramang", deb javob beradi.

Keyinchalik Karokep ruhiy kasalxonadan qochib ketgan va izsiz g'oyib bo'lgan. Ushbu voqealardan yillar o'tdi va Karokep unutildi.

Karokep Neapolda men ovqatlanayotgan stolga kelib, mendan fin tilida:

– Kechirasiz, siz Jarvinen emasmisiz? – deb so'radi.

Men ajablanib:

– Ha, – dedim.

– Jukko Jarvinen? – deb takror so'radi.

– Ha.

– Tomerfors yaqinidagi Kolmarvidansiz, shunday emasmi?

– Ha shunday, lekin bular..., – deya oldim.

– Jukko, mening eski do‘stim Jukko. Oh mening begunoh bolaligim. O‘sha davrlardagi kichkina do‘stingiz Johanni eslaysizmi? Karokepga qo‘l uzatasanmi?

Biz Karokep bilan xonamga bordik, kech tunga qadar fin tilida suhbatlashdik.

– O‘g‘illarim Karokep haqida hech narsa bilishmaydi, – deb boshladi u, – Amerikada ikki marta o‘z mamlakatimni va ikki marta ismimni o‘zgartirdim. Men oilamni Janubiy Amerikaga olib bordim, o‘zim esa Shimoliy Amerikada ishladim. Mening tashqi ko‘rinishim yarim amerikalik, yarim ispanyalik, ammo qalbim finlik. Hozir qanday yashayotganimni ko‘ryapsan. Agar men gunohlarimni tan olishni istasam, meni tinglarmiding? Mening joyim haqida hech kimga aytmaslikka va‘da berasanmi? Jarvinen, men sening hayotingni bilaman. Finlandiyaning rivojlani-shini ham qiziqish bilan kuzatmoqdaman. Bolaligimizda seni juda yaxshi ko‘rardim. Men hozirgi Shirinlik qirolini ham yaxshi ko‘raman. Yoshlikdagi do‘sting qandayligini bilishingni istayman. Johan Karokepdan nafratlanishingni istamayman. Johan Karokep qotil emas edi.

Men undan:

– O‘sha vaqtlarda ruhiy kasalmiding? – deb so‘radim.

– Sen qanchalik kasal bo‘lsang, men ham shunchalik kasal edim. Men o‘shanda juda johil edim. Tasavvur qil, qorong‘i uyda yuribsan. Yuzlab xonalar; har bir xonada turli xil narsalar mavjud, ammo yorug‘likning bir zarrasi ham yo‘q. Paypaslab o‘z yo‘lingni topasan. Albatta, atrofdagi narsalarga zarar yetkazmoqdasan. Ham boshqalar-

ning narsalariga zarar yetkazasan, ham o'zingga zarar yetkazasan. Inson bunday vaziyatda qolsa, aqldan ozgan, yovuz yoki bunday muhitda yorug'lik yetishmayotgan baxtsiz odam hisoblanadimi? Do'sting Johan o'sha paytda aynan shunday holatda edi. Qorong'ilikda qolgan yana necha million Johan bor, kim biladi?

Karokep mening qo'limni ushlab, davom etdi:

– Eh Jukkoginam, hayotning o'sha qorong'i daqiqalarida qoqilmasdan oldinga qarab yurganingdan juda xursandman. Savdogarning yonida men juda zerikdim. Bir narsalar mening ruhimni siqib chiqarardi.

– O'sha paytlarda menda ham xuddi shunday muammolar bo'lgan.

– Ko'ryapsanmi, millionlab Jarvinen va Karokep hayotlarining bir qismida o'zlarida shunday torlik his qilishadi, yana-da kengroq, chiroyliroq, quvnoqroq narsalarni xohlashadi. Daromadim yaxshi edi. Xotinim va uchta yosh farzandim bor edi, men ularni juda yaxshi ko'rardim. Menda ham o'z biznesimni boshlash g'oyasi bor edi. Ammo men juda zerikardim. Bir kun qarasam savdogarning omboridagi tarozilar ataylab vaznidan urib qoladigan qilingan ekan. Qishloq aholisidan sotib olgan mollarini boshqa tarozi bilan, qishloqdoshlariga sotgan bug'doyini esa boshqa tarozi bilan tortayotgandi. Har ikki shaklda ham dehqonlarni alddardi. Ushbu hiyla-nayrang bir necha yillardan beri davom etayotgan va men o'zim bilmagan holda unga o'g'rilikda yordam berayotganimni angladim. Mening juda jahlim chiqdi. Savdogar menga ishonib topshirgan barcha pullarni qishloq aholisiga tarqatdim va xo'jayinimni kaltakladim.

Qutqarib qolishmaganda jonini ham olardim.

Ular meni sudda qamoq jazosiga hukm qilishdi. Men firibgar tarozilar haqida gapirishni o'ylardim, ammo qishloq aholisi savdogarga tarozi toshidan shikoyat qilmasliklari to'g'risida hujjatni imzolashgandi va men ham gapirmaslikka qaror qildim. Qullar. Ahmoqlar. Agar shikoyat qilishsa, savdogar hech kimga qarzga narsa bermasligidan qo'rqishardi. Men ham jim bo'ldim. Qul ekanliklaridan nafratlanardim. Men ularni javobgarlikka tortish va isyon qo'zg'atish uchun barchasini kaltaklamoqchi edim.

Qamoqda doimiy jazo muddatini o'tab bo'lganimdan keyin meni ozod qilishadi. Keyin nima qilaman; yana firibgarlik bilan boshqalarni aldashni boshlaymanmi yoki ularning meni aldashiga toqat qilamanmi, deb o'ylar va bu haqda o'ylaganim sari shunchalik jonim siqilardi.

Bechora odamlar, bechora xalq... Ham bir-birini talaydilar, ham talanadilar. Xudoga bo'lgan sevgisini ko'rsatish uchun buyuk ibodatxonalar qurishadi, so'ngra bir ibodatxonaning maydonida minglab odamlarni tiriklayin yoqib yuborishadi. Ba'zilar Xudoning sevgisi uchun o'lishadi. Men esa odamlarga va Xudoga qarshi chiqdim.

Men Ispaniyada yashab, u yerdagi odamlarni ruhiy va jismoniy qiynoqqa sola olmasligimdan afsuslanardim. Agar men u yerda bo'lganimda, ularning yuzlariga qarab: "Agar qul bo'lsangiz, siz qurbonsiz va bu azoblarni tortishga loyiqsiz!" – deb baqirar edim.

Men qamoqdan chiqqanimdan so'ng, odamlar va Xudodan qasos olishga qaror qildim.

Men banklarni talon-taroj qildim. Men banklarni ta-

lon-taroj qilish orqali ko'proq odamlarga falokat keltiraman deb o'yladim. Menga eng yoqqan narsa cherkovlarni talon-taroj qilish edi. Eng yaxshi ruhoniylar kimligini o'rganib chiqib, keyin ularni o'ldirardim. Keyin men: "Xudo, nega meni ushlatmaysan!" – deb isyon qilardim.

Politsiyachilar meni ushlay olmasliklaridan juda ham jahlim chiqardi. Men boshimni osmonga ko'tarib, "Demakki, u yer ham bo'sh; dunyo ham yolg'on, osmon ham..." deb o'ylar edim.

Yolg'onni, aldovlarni dunyo yuzidan yo'q qilish uchun iloji bo'lsa hamma odamlarni yo'q qilardim. Bu orada yana qo'lga tushdim, lekin qo'rqmadim, shunchaki ajablandim; demak, hammasi yolg'on emas ekan, deb o'ylardim.

Meni o'ldirish o'rniga aqldan ozgan deb, ruhiy kasalxonaga yuborishdi.

"Ahmoqlar! Ahmoqlar, yolg'onchilar! Men ham ahmoq qilib ushlandim. Yer qor bilan qoplaganida va oy yorug'i bilan kecha kunduzga o'xshab turgan vaqtda o'g'rilik qilinadimi hech?", – deb o'ylay boshladim.

Bir muddat ruhiy kasalxonada qoldim. Ular meni doimiy ravishda so'roq qilishardi, lekin mening dardimni tushunmasdilar. Imkoniyat bo'lishi bilan kasalxonadan qochdim.

Yaxshi reja xayolimga keldi. Cherkovda boshiga urgan ruhoniyim tuzalib, uyiga qaytgandi. Kasalxonadan qochib, do'stimning uyida kiyimimni almashtirganimdan keyin, o'sha kecha ruhoniylar yashaydigan uyga bordim.

Derazaga qarasam, u kitob o'qiyotgan ekan. Uning peshonasidagi chandiq hali ham bor edi.

Men eshikni taqillatdim. Oyoq tovushlari yaqinlashayotganini eshitardim.

– Kim u? – deb so‘radi.

– Men ruhoniyni qidirypman, – deb javob berdim.

– Nima uchun?

– Diniy bir masala uchun.

U eshikni ochdi. Qo‘lida shamni ushlab turgan edi va kim kelganini bilish uchun qo‘lidagi shamni ko‘tardi. U menga tikilib turarkan, peshonasi burishdi va titray boshladi.

– Meni tanidingizmi? – deb so‘radim.

– Sizni bir joyda ko‘rganman, lekin qayerdaligini eslolmayapman. So‘nggi paytlarda xotiram juda zaiflashdi.

– Sizga yordam berishim mumkin. Men xotirangizni yo‘qotishingizga sabab bo‘lganman. Qabristondagi qotilik va cherkovdagi talonchilikni eslaysizmi? Ularni qilgan ham menman.

U biroz seskandi, lekin baqirmadi va eshikni yopmadi. U chuqur nafas oldi va past ovozda:

– Siz qamoqda emasmidingiz? – deb so‘radi.

– Qochdim.

– Nega bu yerga keldingiz?

– Meni yashiring deya. Gunohkorlar Xudoning uyida boshpana topishi mumkin, deb o‘qigandim. Men sizni o‘ldirmoqchi edim. Endi esa bir ruhoniy o‘zini o‘ldirmoqchi bo‘lgan jinoyatchiga qanday munosabatda bo‘lishini ko‘rmoqchiman.

– Ichkariga kiring.

Ichkariga kirishim bilan tezda eshikni yopib, masxara qilgan tabassum bilan:

– Sizni yana o‘ldirishga harakat qilishimdan qo‘rqmay-sizmi? – deb so‘radim.

– Yo‘q, qo‘rqmayapman, – dedi.

– Nima sababdan?

– Ko‘zlari bunday boqadigan bir odam hech kimni o‘ldirmaydi.

– Ko‘zlarim qanday?

– Xafa va qayg‘uga to‘la. Sizning ruhingiz juda kasal. Xonamga boramiz.

O‘sha paytda menga nima bo‘lganini tushunolmadim. Temir kabi qattiq bo‘lgan men, xonaga olib kelingan muzlatilgan baliq kabi birdan yumshadim. Ruhoniy o‘qiyotgan Injil ochiq holda stol ustida turardi.

Ruhoniy:

– Ochmisiz, biron-bir narsa yeyishni xohlaysizmi? – deb so‘radi.

Qattiq ohangda:

– Sharob olib keling! – dedim.

Go‘yo ko‘kragimga bir narsa botganday, tomog‘imga nimadir tiqildi. Ruhoniy xonadan chiqib ketgach, men stulga o‘tirib, qattiq yig‘lay boshladim. Men bolaligimdan beri bunday yig‘laganimni eslay olmayman.

Ruhoniy bir qadah sharob va sariyog‘ surtilgan bir bo‘lak non olib keldi. Men uning oldida tiz cho‘kdim va qo‘llarini ushlab:

– Iltimos, meni kechiring. Kechiring! – dedim.

– Tinchlaning, sharobingizni iching va nimani xohlasangiz ayting.

– Men nima deyishni xohlayman? Men Xudoga qarshi bosh ko'tarib, sizni masxara qilish, ehtimol, sizni o'ldirish uchun keldim, ammo natijasi boshqacha bo'ldi.

Parishon ahvolda, men o'zimni yillar davomida qanday his qilganimni hamda yerdagi va osmondagi yolg'onni yo'q qilishni xohlaganimni tushuntira boshladim. Ruhoniy jim-gina meni tinglar, vaqti-vaqti bilan qo'llarimni va boshim-ni silab o'tirardi. Mening nutqim tugaganidan keyin tabas-sum bilan:

– Xudoning g'azabini keltirish uchun cherkovlar-ni talon-taroj qilib, yaxshi odamlarni o'ldirish bilan kurashayotganingizni o'ylaganmidingiz? Siz juda ahmoq va sodda odamsiz! – dedi.

– Xudo bor ekan, unda nega meni jazolamayapti?

– O'g'lim, Xudoni o'zing kabi deb o'ylaganing uchun u bilan kurashishga urinibsan. Xudo qotil emas-da, sen kabi qotillarga javob qaytaradigan. Agar Xudo seni jazola-magan bo'lsa, u seni to'g'rilanishingni kutgan. Kichkina Johan qanday yaxshi va begunoh bo'lsa, sen ham shunday bo'lishga harakat qil.

– Unday bo'lsa, men borib taslim bo'laman.

– Bunga hojat yo'q. Iso ning oldiga gunohlarining kechiri-lishi uchun nima qilish kerakligini so'rab, gunohkor ayol kelibdi. Iso unga javoban: "O'rningdan tur va ket, boshqa gunoh qilma", deb javob beribdi. Sen ham bundan buyon nomusli bir inson bo'l, o'z nomusing bilan ishla va o'z no-musing bilan erish. O'ylaymanki, farzandlaring ham bor. Ularni o'qitib, tarbiya berki, ular o'z hayotlarini nomusli bir shaklda yashasin

– Mana shunaqa gaplar, do‘stim Jukko. Yana takror halol hayotga qaytdim. Men farzandlarimni voyaga yetkazdim, o‘qitdim va odam qildim. Mening hikoyam shunday. Endi qanday qilib Shirinlik qiroliga aylanganingni aytib ber. Chunki biz, Jarvinen va Karokep bolalik davridagi ikki do‘stmiz; ya’ni xalqimizning ikki yarmimiz. Birimiz sovuq bir zulmatda va johillikda vafot etdik; ikkinchimiz quyosh nuri bilan yoritilgan bahorni boshdan kechirishdik.

Jarvinen nutqini to‘xtatib, davlat universiteti o‘qituvchilariga shunday dedi:

– Siz o‘z ishingizni davom ettirar ekansiz; Shirinlik qirolli bo‘lgan menga va menga o‘xshagan boshqa Jarvinenlarga qilgan xizmatigizga hurmat bajo keltirmoqchiman.

Hurmatli o‘qituvchilar! Jarvinen va Karokeplar bir mil-latning farzandlaridir. Har bir bolada bo‘lgani singari, yaxshilik ta‘siriga tushadiganlar darajasida yomon ta‘sirga ham tushish ehtimoli bordir. Agar men barchaning hurmat va mehrini qozongan insonga aylangan bo‘lsam, bu mening o‘zimning mehnatlarim emas. Agar mening bolalikdagi do‘stim Johan Karokep o‘g‘ri va qotilga aylangan bo‘lsa, bu uning aybi emas, balki omadsizligidir.

Jarvinen va Karokep – bitta medalyonning ikki tomoni; bitta daraxtning ikkita novdasidir. Daraxtning tanasi esa xalqdir.

Men ilgari bechora ko‘cha bolasi edim. Hozir esa aytishim mumkinki, men mamlakatimiz uchun kuchli o‘rinda turaman. Men bularning barchasiga tasodifan eshitgan konferensiyamga qarzdorman. Bundan oldin ham aytgan edim. Men kichkina do‘konimda pechenye va konfetlar

sotardim. Bunday cheklangan va befarq hayot kechirishga mahkumman deb o'ylarkanman, yuragim og'rir edi. Men ko'p pul ishlay olmasdim. Ruhimdagi siqilishni yengillash-tirish uchun ichishni boshladim. Aynan o'sha paytlarda bizning taniqli olimlarimizdan biri, bizning shaharchamiz-ga kelib, devorlarga shu kabi reklamalarni osib qo'ydi:

“Keksa, yosh, bilimli va bilimsiz barchani konferensiya-ga taklif qilaman. Men butun hayotimni Finlandiya rivojiga bag'ishladim. Menga haftasiga bir soat vaqt ajratishingizni istayman. Umid qilamanki, ushbu bir soat ichida o'rgangan narsalaringiz siz va mamlakatimiz uchun juda foydali bo'la-di”.

Men bir necha marta ommaviy konferensiyalarda qat-nashganman. O'sha anjumanlarda men tanigan odamlar-ni ham uchratgandim. Menga konferensiyalar yoqmasdi, chunki o'sha kursiga loyiq bo'lmaganlarni tinglash, shun-chaki vaqtni behuda sarflashdir. Ushbu konferensiyalarda gapiradiganlar keksa, dindor odamlar bo'lar va biz tushun-magan narsalar haqida ming'irlab turar edilar, yoki yosh, ammo mag'rur insonlar bo'lib, jiddiy narsalar haqida gapi-rishdan ko'ra bema'ni gaplarni gapirishardi. Uchinchi guruh – Ta'lim vazirligining mulozimlari bo'lib, o'zlari boradigan bo'sh zallar bilan gaplashib, davlatdan kunlik va qo'shim-cha ish haqini olish uchun adashib yuradiganlar edi. O'sha kungacha men ishtirok etgan konferensiyalar menga hech qanday yordam bermagandi.

Biroq, ushbu konferensiya e'lonlari ko'plab odamlar-ning e'tiborini tortdi. Men ham konferensiyaga bordim. Zalga igna otsangiz, yerga tushmasdi. Konferensiyada

tinglagan narsalarim meni qattiq uyqudan uyg'otdi va hayot mazmunini berdi; maqsadimga qanday erishishimni o'rgatdi.

Konferensiyaning mavzusi "Talon-taroj qilingan kitob" edi. Ma'ruzachi Robinzon Kruzo haqida gapirardi. Uning nutqi deyarli Suqrotning nutqiga o'xshardi. Falsafiy mavzular haqida gapirishiga qaramay, u hatto bolalar tushunadigan oddiy tilni ishlatardi.

Ma'ruzachi shunday derdi:

– Insoniyat har doim katta bolaga o'xshaydi. Insoniyat o'zlarining kelishmovchiliklarini kurashib, urushlar orqali hal qilishga harakat qiladi. Diniy va foydali ish kabi masalalarda ham urushishni afzal ko'rishadi. Ular bilim va falsafani o'yin va kulgi holiga aylantirmoqdalar. Ko'pchiligingiz Robinzon Kruzo haqida bolaligingizda o'qigansiz yoki ba'zi narsalarni eshitgansiz.

Robinzon Kruzo yosh bolalar uchun deyishadi. Bu aniq unday emas. Ushbu kitob yuksalishni va taraqqiyotni istagan har qanday mamlakat uchun dars kitobidir. Robinzon Kruzo – dunyoning eng buyuk qahramonidir. U hamma qahramonlardan ustun bo'lgan qahramon. Boshqa barcha qahramonlar ichra – Romuldan, Sezardan, Napoleon-dan ham ko'proq buyukroqdir. U taraqqiyot sohasida bir qahramondir, bukilmas irodaning jonli namunasi.

Robinzon Kruzo – Angliya va AQSh nega bunchalik buyuk va rivojlanganligini tushunishning kalitidir. Robinzon Kruzo – yer yuzidagi quvonchning payg'ambari va havoriysidir. Leopardi, Shopengauer va Xartmandan ancha ustun faylasufdir. U odamlarning yana-da yaxshi ha-

yoti uchun urushda g'oliblikni targ'ib va e'lon qilgandir.

Robinzon bizga inson dunyo va hayotning hukmdori ekanligini bo'sh so'zlar bilan emas, balki jonli misollar va ishlari orqali o'rgatdi. Insonning aql-zakovati, dahosi va irodasi tabiatning shafqatsiz va qora kuchlaridan ustundir.

“Keksa va kasal miyalar tomonidan ixtiro qilingan ahmoqliklarni bir chetga surib, menga qarang”, – deydi Robinzon. To'fon men ketayotgan kemani cho'ktirdi. Sivilizatsiyadan minglab kilometr uzoqlikdasiz, yashay oladigan bir parcha yer yo'q. Atrofingiz chek-chegarasiz dengiz. Kemadagi barcha yo'lovchilar cho'kib ketgan, faqat bir yigit o'tin parchasiga yopishib omon qoldi. To'lqinlar uni hech kim yashamaydigan kimsasiz orolga sudrab bormoqda. Uning o'zi och va yalang'och. Bu yigitga nima bo'ldi? U o'ldimi yoki umidsizlikka tushib o'zini o'ldirdimi? Robinzon orolga parchalanib ketgan kemadan qutqarishi mumkin bo'lgan narsalarni olib chiqib, avval o'zi uchun uy qurdi. Keyin u kema qoldiqlaridan qutqargan bug'doyni ekdi va orolda yovvoyi echkilarni uy hayvoniga aylantirdi. Undan so'ng esa orolda odamxo'rlardan qutqargan kishini tarbiya berish orqali uni o'ziga yordamchi va do'st qildi. Qisqasi, u sivilizatsiyadan yiroq orolda tartibli va farovon hayotni qurdi. Va bularning barchasini kimsasiz orolda yolg'iz o'zi qildi.

Ey Finlandiyaliklar! Ikki million aholiga ega bizlar yosh bir Robinzon Kruzodan ko'ra ojiz va qobiliyatsizmizmi?

Hurmatli o'qituvchilar, ruhoniylar, sudyalalar, muhandislar, davlat xizmatchilari, yuristlar, ishchilar, Finlandiya farzandlari, ziyolilar. Sizlar ham o'z millatingiz o'z Robinzon

Kruzosi bo'lishni xohlamaysizmi? Robinzon kimsasiz orolda ibtidoiy odamxo'rne tarbiya qilib, o'z yo'ldoshiga aylantirdi.

Sizlar esa o'zingiz yashaydigan katta shaharlardagi universitetlar, gazetalar, teatrlar va muzeylar devori ichida bo'lishingizga qaramay, xalqning ko'pchiligi haqida bular johil, qo'pol va mast ekanliklaridan shikoyat qilishdan boshqa hech narsa qilmayapsiz.

Robinzonni tasavvur qilib, hayot va odamlar oldidagi burchingiz nima ekanligini o'ylab ko'ring.

Jarvinen:

– Ushbu konferensiya mening ko'zlarimni ochdi. Yelkamdagi bukridan xalos bo'lib, yelkamda katta va kuchli qanotlar chiqqanini his qildim. Men o'zimni juda kuchli his qildim va g'ayratga to'lib-toshdim. Ichimda vatanim uchun yaxshilik qilish orzusi paydo bo'ldi. Faqat umumiy boyligi bir necha ming markani tashkil qiladigan oddiy shirinlik va pechenye sotuvchisi nima qila olardi?

O'sha vaqtda mening uchta do'stim bor edi va men ularni konferensiyaga olib borgandim. Ularga fikrimni aytganimda, xuddi shu e'tirozlarga duch keldim. Do'stlarimdan biri poyabzalchi, biri temirchi, yana biri esa tuxum sotuvchisi edi.

Konferensiyadan so'ng yo'lda ketar ekanmiz: “Mana har birimiz qahramon emasmizmi? Birimiz tuxum sotuvchi, biri poyabzal ishlab chiqaruvchisi, biri temirchi, siz esa konfet va pechenye sotuvchisiz. Qanday qilib biz Robinzon bo'la olamiz?” – deb kulishardi ular.

Shu vaqtda men ilhomlangan shoir kabi gapira boshladim:

– Nega bo‘la olmas ekanmiz do‘stlar? Men pechenye va konfetlarni sotaman va bu menga o‘z biznesimda Robinzon bo‘lishimga to‘sqinlik qilmaydi. Men nafaqat asalli nonchalar sotish bilan cheklanaman, balki mamlakatda asalarichilikni ham rivojlantirishim mumkin. Ishlarni rivojlantirib va shirin pechenyelarni faqat maxsus kunlarda iste‘mol qilinadigan va boylar uchun maxsus hashamatli shirinlik holidan chiqarib, hatto kambag‘allar ham osonlikcha sotib oladigan mahsulotga aylantiraman. Do‘stlarim, men qaror qildim: men bu mamlakatning shirinlik qiroli bo‘laman.

Gapimdan so‘ng do‘stlarim:

– Xo‘sh, biz nima qilamiz? – deb so‘radilar.

Men javob berdim:

– Sen poyabzal qiroli, temirchilik qiroli va tuxumchilik qiroli bo‘lishlaring mumkin” va biz hammamiz o‘tirib rejalar tuzishni boshladik. Uyga qaytib, ertalabgacha kelajagimizni qanday rejalashtirish haqida suhbatlashdik.

Shundan so‘ng nima bo‘ldi? Ko‘p o‘tmay, qat‘iyat va iroda, doimiy mehnat bilan bizning orzularimiz amalga oshdi. Poyabzalchi do‘stimiz pul yig‘di va Parijga o‘qishga ketdi. U Parijda mamlakatdagi eng mashhur poyabzal ishlab chiqaruvchilardan biri bilan 3 yil davomida ishlab, taniqli poyabzal ustasiga aylandi. Ikki o‘g‘li ham universitet bitiruvchilari; biri kimyo fakultetini tugatgandan so‘ng, katta terini qayta ishlash zavodining sohibiga aylandi.

“Ukkonen and Sons” firmasi butun Yevropada taniqli

firma. Uning butun Finlandiyada va Yevropaning yirik shaharlarida do'konlari bor. Londondagi Piccadilly maydonida va Parijdagi Opera bulvarida Ukkonen kompaniyasining poyabzal do'konlariga duch kelasiz. Do'konlar va ustaxonalar boshqaruvi Ukkonenning kichik o'g'lida. U Jena universitetini bitirgan va fransuz tilida ona tilidagidek gapiradi. Qirolicha Viktoriyaning o'g'li, taxt vorisi va moda faxriysi shahzoda Eduard faqat Ukkonen firmasidan tuflisiga buyurtma beradi va Ukkonen kenja o'g'li bilan suhbatlashganda, yarim hazil bilan yarim jiddiy "Biz siz bilan hamkasbmiz, chunki ikkalamiz ham biror qirollikning merosxo'rlarimiz. Men Angliya qirolchasining, siz esa Poyabzal qirolining o'g'lisiz" deydi va vaqti-vaqti bilan "Valiahd shahzoda unvoniga siz ko'proq loyiqsiz" deb qo'shib qo'ydi.

"Ukkonen and Sons" kompaniyasi har yili Finlandiyaning barcha hududlaridan 10 nafar aqlli yoshlarni tanlab oladi va ularni Germaniyadagi Wirchov laboratoriyasiga, Fransiyadagi Paster Institutiga va Amerikadagi Edison institutlariga o'qishlari uchun yuboradi.

Mavzusi Robinzon Kruzo bo'lgan bir konferensiyaning qanday qilib samarali natijalar berishi mumkinligini ko'rishingiz mumkin. Ammo bu hammasi emas, albatta.

Bozor joylarida tuxum sotadigan Tomas Gulbe, bugungi kunda Angliya, Fransiya va Germaniyada taniqli va nomi mashhur tuxum qiroliga aylandi. O'sha kundan keyin Tomas Gulbe qishloqlardan tuxum yig'ishni boshladi.

U har bir qishloq va shaharda uyma-uy yurib, har bir uydan 2-3 yoki 9-10 donadan tuxum sotib olar; sotib olgan tuxumlari uchun pul o'rniga ularga foydali bo'lishi

mumkin bo'lgan kichik narsalarni berdi. U qutilarni yig'ilgan minglab tuxumlarga to'ldirib, eksport qilar edi. Tomas Gulbe uch kunlik tuxumni ham eskirgan deb sotib olmagan, faqat eng yangi tuxumlarni sotib olgan. Har bir tuxumning tepasida T.G. harflari, ya'ni Tomas Gulbe nomi bosilgan.

Bir yil o'tgach London, Parij va Berlinning eng yirik restoranlari "T.G." markali tuxumlarni talab qila boshladilar. Tomas Gulbe butun Finlandiya bo'ylab sayohat qilish xarajatlari katta bo'lgani sabab hamma joyga bora olmasdi. Shu sababli butun mamlakat bo'ylab tuxum yig'ish uchun yechim topdi va o'qituvchilar bilan xat almashish orqali ajoyib xarid qilish tarmog'ini yaratdi. U o'z-o'zidan juda keng qamrovli, ammo juda sodda rejani tayyorlab, butun mamlakatni rim raqamlari bilan raqamlangan hududlarga va har bir mintaqadagi maktablar normal sonlar bo'yicha tasniflangan kichik tumanlarga ajratdi. Bundan so'ng u tuxum olib kelgan oilaning bosh harflarini belgilab qo'yib yozdirdi.

Har bir o'quvchi ertalab maktabga kelar ekan, bir kun oldingi o'zlari yoki qo'shnilarining yangi tuxumlarini o'zlari bilan olib kelib, o'qituvchisiga yetkazishardi; O'qituvchi har kuni to'planadigan va soni bir necha yuztani tashkil etadigan tuxumlarga kerakli belgilarni qo'ygandan so'ng, ularni darhol Gulbening tuxum do'konlari joylashgan Abo shahriga yuborardi. Omborga kelgan tuxumlar yangiligini yo'qotmasdan qutilarga joylashtirilib, kemalar orqali eksport qilinar edi. Ushbu muvaffaqiyatli tashkilashtirish tufayli Parij, London, Bryussel, Antverpen va Berlin restoran-

laridagi mijozlarga ikki-uch kunlik yangi tuxumlar taqdim etilardi.

Agar tuxumlardan biri yomon chiqsa, Gulbe kompaniyasiga quyidagicha xat yuborilardi:

“5-aprel, VII, 15 M. belgilangan tuxum yaroqsiz chiqdi”.

Kompaniyada o‘tkazilgan tekshiruvdan so‘ng, VII raqamli Kuopio shahridan, 15-sonli o‘qituvchining, Xonim “M” dan olgan tuxumi yaroqsiz chiqqani o‘rganilardi va o‘qituvchiga xat yozilib, “5-aprel kuni Makinen xonimdan olingan tuxum yaroqsiz chiqqan. Agar bu holat yana takrorlansa, undan tuxum sotib olinmasligi haqida ogohlantiring”, – deb xabar berilar edi.

O‘n yildan so‘ng Tomas Gulbe Finlandiyaning “Tuxum qiroli”ga aylandi. U Londonda, Gamburgda va Filsingenda yozgi maxsus sovuq omborlarni va qish uchun maxsus isitiladigan omborlarni tashkil etib, tuxumlarining sifatini saqlab qoldi. Finlandiyaning ba’zi qismlarida parrandachilik fermalarini tashkil etdi. Ushbu fermer xo‘jaliklarida naslchilik sifatida yetishtiriladigan zotli tovuqlar qishloq aholisiga arzon narxda sotilar edi.

Tuxum savdosi tufayli parrandachilik biznesida o‘z yo‘lini topgan Gulbe, keyinchalik ov qushlari savdosini boshladi. Juda boy Gulbe har yilgi eksporti tufayli Finlandiya iqtisodiyotiga o‘z hissasini qo‘shdi va mamlakatga katta miqdordagi valyuta oqimini olib kirdi.

Tomas Gulbe kompaniyasi har yili qishloq kutubxonalariga yuz ming, aqlli qishloq aholisini qishloq xo‘jaligiga mutaxassislashishlari uchun Norvegiya, Daniya va

Shveytsariya kabi mamlakatlarga yuborish uchun yuz ming, olimlar, o'qituvchilar va rassomlar chet ellarda tadqiqot o'tkazishi uchun yuz ming marka xayriya qiladi. Sakkiz yil davomida Tomas Gulbe har yili 300.000 marka, jami 3.200.000 marka pulni o'z mamlakati taraqqiyotiga sarf qilmoqda va bu boyligining ozgina qismi hisoblanadi.

Sizni ko'p zeriktirmaslik uchun, sizga qanday qilib kichkina shirinlik sotuvchi bolaning Finlandiyada Shirinlik qiroliga aylanganini aytib beraman. Robinzon Kruzoning hikoyasidan ilhomlanib, o'z biznesimda Napoleon bo'lishga qaror qildim. Avval Finlandiyani, keyin esa Yevropani zabt etishga qaror qildim. Kambag'al va johil fin o'spirinning bu orzusi juda jasoratli edi, lekin men o'zimning xayolimda nimani rejalashtirgan bo'lsam, orzu qilganimni amalga oshirishga qat'iy qaror qildim va bu maqsadimni haqiqatga aylantirdim. Men ishni kichik sharbatlar ishlab chiqaradigan zavod ochishdan boshladim. Ushbu zavod hanuzgacha ishlamoqda. U yer pichan yoki lavlagi omboriga o'xshash yog'och inshoot. Mening zavodimdagi uskunalar juda ibtidoiy va sodda edi, lekin uni ishlatishni boshlash uchun pulim yo'q edi.

Men bankka bordim va yaratadigan biznesim bo'yicha rejalarimni menejer bilan suhbatlashdim, tushuntirdim. Menejer: "Siz tashabbusni o'z zimmangizga oling, biz esa sizning kelajak qirolligingiz uchun bir oz sarmoyani ta'minlaymiz", - deb menga yordam berdi. Shirinlik qirol kabi maftunkor so'zni birinchi marta o'sha menejerdan eshitdim. Mening tashabbusim muvaffaqiyatli bo'ldi. Men chiqargan sharbat tiniq, quyuyq va shirin edi. Men

qishloqlarni aylanib, sotgan mevali sharbatlarim evaziga lavlagi olardim. Men ulardan lavlagi sharbatini tayyorlab, sholg'omga almashtirardim.

Ikki yildan so'ng Finlandiyada beshta meva sharbatini ishlab chiqaradigan zavodim bor edi. Shundan so'ng, yangi ish boshlashga qaror qildim. Qulupnay Finlandiya o'rmonlarida juda ko'p o'sadi. Qishda qishloqlarni aylanib yurganimda yozda qulupnay berish evaziga qishloq aholisiga minglab meva sharbatini qarzga tarqatdim. Qishloq aholisi yig'ilgan qulupnayni menga yetkazib berishdi. Mening ustozim aytganidek, bu qulupnaylar lavlagi narxidan arzonga tushmoqda edi. Dehqonlar va ishchilar Jarvinen murabbolarini nonga surtib, ovqatlanishga odatlanishdi. Murabbo va non ko'pincha oilalarning tushlik va kechki ovqatlari o'rnini bosar edi. Chunki men tayyorlagan murabbolar shirin, mazali, arzon va to'yimli edi.

Keyingi yil menga Finlandiyada yig'ilgan qulupnay yetarli bo'lmay qoldi. Shuning uchun Rossiya va Germaniyadan import qila boshladim. Men Rossiyadan mashhur Vladimirovskiy gilosini, Irlandiyadan esa juda shirin turdagi lavlagini olib keldim.

Qishloqlarni aylanar, qishloq aholisiga mevali ko'chatlar va lavlagi urug'larini tarqatar, ularni qanday qilib ekish va yetishtirish haqida ma'lumot berardim. Finlandiya xuddi mening fermer xo'jaligimga aylangandi. Xuddi tanam kabi edi. Barcha qon hujayralari, tomirlar, mushaklar men uchun to'xtamasdan ishlardi. Ishlar juda yaxshi rivojlanib borayotganini ko'rganim sayin bundan zavqlanib, yana-da g'ayratlanardim. Barcha fikrlarim meva sharbatlari, lavla-

gi, qulupnay va gilos haqida edi va davomiy ravishda ularni qanday qilib yana-da sifatli yetishtirish haqida o'ylardim. Murabbo va shirinlikni yaxshi ko'radigan rassomlar va shoirlar mening ko'ngilli maslahatchilarimga o'xshar edilar; ishlab chiqarishda qilgan har bir yangiliklarim, avvalambor, ularni xursand qilardi.

Men esa doimo "Jarvinen murabbolarini qanday qilib arzonroqqa ishlab chiqarish" haqida o'ylardim. Daryolar va ko'llarda bir necha kun ishlaydigan suvchilar va og'ir sharoitlarda, bir necha oy tog'lardagi konlarda mehnat qilgan ko'mir ishlab chiqaruvchilar - mening murabbolarim bilan oziqlanishadi. Tijoriy aloqalar uchun Finlandiyaga kelgan Buyuk Britaniyaning o'rmon xo'jaligi direktori, ishchilar yeyotgan murabbo va shirinliklarni ko'rib juda hayron bo'lgandi. "Bu murabbo va shirinliklar ishchilar uchun maxsus yegulik emas, aksincha, bu shohlarning dasturxonlarida bo'ladigan yegulik. Bularni qanday qilib arzon narxga sotishingizga hayron qolyapman. Agar sizga 50 ming quti buyurtma bersam, menga ham xuddi shu narxda berasizmi?", deb so'radi. Men: "Unda men sizga qo'shimcha ikki foiz chegirma beraman", - deb javob berdim. Jarvinenning murabbolari avval Angliyada, keyin Daniya, Gollandiya, Belgiya, Germaniya, Fransiya va hatto Amerikada iste'mol qilinishni boshladi.

Mening fabrikalarimda har xil bo'linmalar va har bir bo'limning boshida kimyogarlar va mutaxassislar bor. Ushbu mutaxassislar vaqti-vaqti bilan mamlakat bo'ylab sayohat qilib, qishloq aholisiga mevali daraxtlarni yetishtirish va parvarish qilish bo'yicha konferensiyalarda ular

oson tushunadigan tilda tushuntirishadi.

Endi murabbo jo'natmalarini yozda sovuq, qishda issiq havo qiladigan uskunalar bilan jihozlangan maxsus vagonlar bilan amalga oshirmoqdaman. Men har yili Messina portidan bir kema apelsin va Singapur portidan bir kema guruch olib kelaman. Finlandiya yoshlari mening soyamda istagancha banan yeyishlari mumkin. Men ishlab chiqaradigan sharbatlar va murabbolar; rom, shved pongi, pivo, likyor va konyak bilan raqobat qilmoqda. Xalq "Ichkilik ichish o'rniga shirinlik yeyishga odatlanmoqdamiz" deb mamnun bo'lishmoqda.

Jarvinen Xalq universiteti professorlariga aytayotgan nutqini quyidagicha davom ettirdi:

"Siz mendan yaxshiroq bilasizki, shakar keraksiz bir ozuqa emas; aksincha, bu ovqatlanish va inson salomatligini muhofaza qilishning asosidir. Yaxshi oziqlangan bir inson va yaxshi oziqlangan bir xalq spirtli ichimliklarni kamroq iste'mol qiladi. Shirinlik achchiq narsaning dushmani; achchiqlik shirinlikning dushmani bo'lgani kabi... Spirtli ichimliklarni ko'p iste'mol qiladiganlar shirinlikni yoqtirmaydi. Shirinlikni yaxshi ko'radiganlar ham alkogolli ichimliklarni yoqtirmaydi. Shu sababdan Jarvinenning murabbo qutilarida "Ichishdan saqlaydi" yozuvi bor. Bu qutilar kirgan dehqon yoki ishchi uylarida porloq bir kun yorug'i kabi barcha bolalarning yuzlari kuladi, uy xo'jayini ishlagan pulini ichimliklarga emas, balki murabboga sarf qilishi ayollarini ham xursand qiladi".

Jarvinen nutqini quyidagi so'zlar bilan yakunladi:

"Portda paromlarga yuklangan minglab Jarvinen

markali yuklarni ko'rganimda yuragim quvonch va baxtga to'ladi. Men ularni mamlakat taraqqiyoti va oilalar farovonligi uchun mehnat qilayotgan askarlarim deb bilaman. Xayolimda har bir murabbo qutisidan, uzoq yillik mehnatimdan va butun hayotimdan faxrlanaman. Chunki umrimni behuda o'tkazmaganimni bilaman. Kerak bo'lsa, Finlandiyada yoki boshqa mamlakatlarda ham odamlar hayotini shirin qilish vazifamni sidqidildan bajardim, deb hisoblayman. Men bularning barchasi uchun menda ilohiy olovni yoqib yuborgan o'sha go'zal kitobning daho yozuvchisi oldida qarzdorman.

Ortidan esa xalqimizga nur sochgan va ularning ufqini ochib bergan siz ziyolilarimiz va olimlarimizga minnatdorchilik bildiraman. Uzoqdan tasodifan kelgan bir professor yondirgan uchqun sizning harakatlaringiz tufayli o'chmadi va ulkan olovga aylandi. Sizlar mening yuragimda chiroq yoqdingiz. Buning uchun sizlardan cheksiz minnatdorman.

Siz qilayotgan ulkan rivojlanish sa'y-harakatlariga odiy tashakkur bilan haqqingizni o'tay olish iloji yo'qligini bilaman va hormasdan mehnat qilish orqali ko'proq muvaffaqiyatlarga erishishingizni tilayman.

Dunyo tarixini o'qidim. Ko'plab o'qituvchilar va olimlar bilan suhbatlashdim. Doim o'ylayman va o'ylaymanki, dunyodagi ko'plab xalqlar vahshiylikdan hali xalos bo'lishmagan. Faqat bu vahshiylik shaklini o'zgartirgan. Boshqa o'lka yerlarini bosib olgan qo'mondonlar nega bu qadar hurmat bilan tilga olinishini tushunolmayapman. Buyuk Iskandar,

Gannibal, Skipio¹, Sezar, Sharlman, Napoleon va boshqa minglab qo'mondonlar boshqa o'lkalarning tuproqlarini talon-taroj qilishdan tashqari nima qildilar? Garchi bu bosqinlar natijasida buyuk davlatlar barpo etilgan bo'lsa-da, ko'p odamlar qiyinchilik va ochlikdan o'lgan; millionlab odamlar johil bo'lib qolgan. Hamma joyda axloqsizlik, o'g'rilik, qashshoqlik, axloqsizlik, urushlar, o'zaro nafrat kuchayadi; odamlar qo'pollashdilar.

Otalarining puli yoki diplomlari soyasida xalqning botib qolgan botqoqligidan qochib qutulganlarning hech biri millionlarcha odamlardan hech bo'lmaganda bittasini johiliyatdan qutqarish uchun barmog'ini ham qimirlatmaydi. Ular aholisining ko'p qismi johil, ichkilikboz va och odamlardan tashkil topgan bir davlatning botqoq yerga qurilgan baland tosh minoralardan farqi yo'qligini tushunmaydilar.

Tarix o'zini o'zi yaxshi ko'radigan, kibrli qahramonlarga necha marotaba ibrat darsi berdi? Necha marotaba xatolari sabab boshini devorga urdi? Yolg'onchi Metternichlarning, Alba zolim knyazlari tomonidan qurilgan muhtasham binolar bir zarba bilan vayron bo'lmadimi? Tarix bularni bolalarning qog'ozdan qilgan minoralari singari buzib tashlagan bo'lsa ham, hech kim ulardan ibrat olmadi. Siyosatchilar hanuzgacha eski bezorilik va talonchiliklarini davom ettirmoqda, mamlakatlari che-

¹ Afrikalik Skipio. Milloddan avvalgi 236-183-yillarda yashagan. II Po'n Urushi vaqtida general va Rim Imperiyasi amaldori. Tarixning eng yaxshi qo'mondonlaridan biri sifatida qaraladigan Skipio, mashhur Kartachalik qo'mondon Hannibalga qarshi Zama jangida g'alaba qozongan va bundan so'ng butun Kartacha Rim imperiyasi tarkibiga kirgan.

garalarini kengaytirishga harakat qilishmoqda. Faqat o'z chegaralari ichida yashaydigan odamlarning aql-idrokini, bilimini va vijdonini rivojlantirish haqida hech o'ylamaydilar. Bizning hozirgi kichkina Suomimizning chegaralari hozirgidan ko'proq kengaya olmaydi. Men mamlakat chegaralarini kengaytirishdan ko'ra, fuqarolarimiz soni ko'payishini istayman. Finlandiyada yashovchi ikki million kishining bilimli va o'qimishli bo'lishini, o'zlarini ham, ijtimoiy hayotni ham rivojlantirishlarini va takomillashtirishlarini istayman".

Jarvinen yig'ilishda ishtirok etayotgan professorlarga hurmat bilan bosh egdi.

Ushbu nutq tugagandan so'ng, Torsten Forsten ismli keksa dehqon "Omin!" dedi. Keyin boshqa tinglovchilar ham "Omin!" deya boshladilar. Torsten Forstenning uch o'g'li ham Helsinki universitetining professorlari. O'zi qariganiga qaramay, daraxtlardan qarag'ay saqichini yig'ib oladi.

Majlis raisi o'rnidan turdi va "Jarvinenning bu mantiqli va hissiyotli so'zlaridan so'ng, boshqa narsa deyishning hojati yo'q. Jarvinenning so'zlari xalqning quyi qatlami vakillarining mamlakatni boshqaradiganlar va ziyolilariga "Bizni o'qiting" degan murojaatidir", dedi.

Ushbu marosim va Jarvinenning nutqi Finlandiya-ning barcha gazetalarida to'liq nashr etildi. Jarvinenning nutqi Finlandiyada e'tiborga tushdi va odamlar uzoq vaqt muhokama qilishdi. Xalqni va ishchilarni ilimli qilish uchun ixtiyoriy ravishda yuzlab odamlar yordam berishni boshlashdi. Ba'zi shaharlarda h... vlat ishbiarmonlar o'z bino-

larini Xalq universitetiga berishdi yoki yangi binolar qurish uchun pul berishdi.

Ko'plab o'qituvchilar, sudyalalar, advokatlar va shifokorlar har oqshom klublarda o'tirib karta o'ynash va pivo ichishni to'xtatishdi. Ular yana kitob o'qishni boshladilar, chunki xalqni ziyoli qilish uchun avval o'zlarini ziyoli qilishlari kerakligini angladilar. Hamma joyda notiq va ma'ruzachilar paydo bo'ldi. Uchrashuvlarda, o'yinlar va ko'ngil ochish joylarida yig'ilgan yordam pullari bilan odamlarni ziyoli qilib o'qitadigan kitoblar sotib olindi va eng chekka qishloqlarga yuborildi. Xalq uchun ustuvor vazifa nimada ekanligini belgilab, ushbu ustuvorliklarga muvofiq eng kerakli kitob yozgan mualliflar mukofotlanib, rag'batlantirildi. Yozuvchilarga o'z asarlarini nashr etishda yordam berish orqali ular yozgan asarlar juda arzon narxlarda sotuvga chiqarildi.

Snelman, hayotining so'nggi yillarida do'stlari bilan suhbatlashayotganda shunday derdi:

– “Men Finlandiyaning bolaligimdagi ahvoli va hozirgi ahvoli haqida o'ylar ekanman, ko'z oldimda shunday narsa namoyon bo'ladi: xaroba ahvolda katta bir uy bor. Barcha oynalari yopiq. Tashqi tomondan qaralganda bu tashlab ketilgandek taassurot uyg'otadi. Uyning ichki qismi qorong'i, bo'g'uvchi, nam va yurakni siqadigan; xuddi katta qabrga o'xshaydi. Ammo ba'zi yosh, jasur va kuchli odamlar kelmoqda, ular juda g'ayratli va aqlli. Darhol pardalarni tortib, derazalarni ochmoqdalar. Uyga quyosh nuri, toza havo va gullarning hidlari kirmoqda, uydagi barcha narsalar jonlanib, yayramoqda. Binoning tashqi qismi ham ta'mirlanib,

yangilanmoqda. Ilgari ushbu jonsiz uyga yaqin kelmagan odamlar kelib, binoga qarab hayron qolishmoqda. Ushbu mo'jizaviy o'zgarish har bir davlatda, har bir shaharda, har bir tumanda, eng uzoq va unutilgan qishloqda sodir bo'lishi mumkin. Buning uchun bizga faqat dinamik g'oyalarga ega, hushyor va madaniyatli bo'lish uchun ishlashdan charchamaydigan odamlar kerak".

QISHLOQLIKLAR, ISHCHILAR VA SAVDOGARLAR

Snelman bolaligidan va maktab yillaridan ichki va tashqi dunyodagi voqealarni saroy mentaliteti bilan, ya'ni boshqaruvchi-qul nuqtayi nazaridan ko'rilishidan g'azablangan. Tarix darsi kitoblarida imperatorlar, qirollar va ularning vazirlari, zodagonlar bir-biri bilan urushlaridan, baronlar, generallar va oz sonli buyuk olimlar, yozuvchilar va rassomlar haqida so'z boradi. Bularning tarjimai hollari tushuntiriladi; Urushlar, saroy fitnalari, diplomatik firibgarliklar, suiqasdlar va inqiloblar eng nozik narsalarga qadar tushuntiriladi. Tarix darsiga kirgan professor-o'qituvchilar faqat shularni tilga olishadi.

O'tgan asrlarda dunyoning turli mamlakatlarida yashovchi odamlarning qanday yashaganliklaridan yo e'tiborsiz darajada kam, yoki ular haqida hech narsa yozilmagan. Millionlab dehqonlar, ishchilar, turli sohalardagi mutaxassislar va yana mayda burjua, qisqasi juda ko'p odamlar asrlar davomida tarix fani tomonidan yo'qdek yozilmay o'tib ketilgan.

Xalqning fikriy va ma'naviy rivojlanishidan manfaatdor bo'lganlar soni juda oz. Aholining moddiy va ma'naviy hayotini to'g'irlash va yaxshilash bilan hech kim shug'ullanmagan. Qishloq xo'jaligi, chorvachilik, g'isht, qog'oz va mato ishlab chiqarish texnikasini rivojlantirish bilan shug'ullanishgan, ammo hech qachon millionlab ishlab

chiqaruvchi ishchilarning qalbini, ma'naviyatini, sog'lig'ini, ovqatlanishini va uylarini yaxshilashni o'ylamagan. Xalq shunchaki taqdir izmiga tashlab qo'yilgan. Go'yo bu narsalar haqida o'ylash hech kimning vazifasi emasdek, quyidagi qaror qabul qilingan:

E'tibor bermang, xohlaganlaricha yashasinlar. Yaxshi narsa bo'lsa, baxtli bo'lishsin; Agar yomon narsa bo'lsa, sabr qilishsin. Har bir davrda va hamma joyda odamlar sabr-toqatli bo'lishga majbur bo'lishgan. Qiyinchilik va qashshoqlikka bardosh berish xalqning burchi deb hisoblangan. Har qanday holatda xalqni doimiy ravishda kamsitib, "Xalq mastdir, dangasadir, ishlashdan qochishadi. Qo'pol, ochko'z, shafqatsiz..." – deb aytishadi. Ammo ortidan shu zahotiyoq qo'shimcha qilib: "Xalqning buyukligini ko'rsatadigan bir tomoni bor: och qolsa ham, sovuq va ifloslikda yashasa ham shikoyat etmasdan sabr qiladi", – deyishadi.

Ular xalqning sabri haqida g'ayrat bilan gapirishadi va xalqning sabr va bardoshlarini bir din darajasiga ko'tarishadi. Ular xristianlikni shu sabab sabr-toqat va chidamlilik diniga aylantirmadilarmi? Snelman o'zlari uchun erkinlik, baxt va farovonlikni istagan, xalqqa esa azob-uqubatlarga va mahrumliklarga dosh berishni maslahat beradigan boylarga va byurokratiyaga, ortidan esa tushgan holatlariga chidagan va o'z huquqlarini talab qilmagan xalqqa, ularning sust fikrlariga, ularning moddiy va ma'naviy qashshoqliklaridan, adolatsizliklarga va qashshoqlikka tushganliklariga g'azablanardi.

Snelman g'azablenganda shunday baqirardi: "Mil-

lionlab odamlar hayvonlar kabi yashaydilar. Nopok, kambag'al insonlar... Faqatgina bitta fikrga egalar – qorinlarini to'ydirish". Tinchlangach esa u: "Ammo ayb xalqdami? Bu ular uchun baxtsiz holat", – derdi. Snelman boylar va kambag'allar orasini quyidagicha taqqoslardi: "Bog' va o'rmon... Bog'da ichida chiroyli, qum bilan qoplangan yo'llar ochilgan. Yo'llarning ikkala tomoni gullar va mevali daraxtlar bilan bezatilgan. Ko'z ilg'agan joyga qadar cho'zilgan yashil, parvarish qilingan o'tloqlar va maysazorlar. O'tiradigan joy atrofini binafshalar va atirgullar o'rab olgan... Favvoralar-dan suv oqadi... Ba'zi joylarda haykallar o'rnatilgan... Favvoralar va yo'llarning chetlarida o'rindiqlar bor... Har bir burchakka va har bir niholga parvarish qiladigan insonning qo'li tekkani bilinib turadi yaqol.

Endi esa o'rmonga bir nazar tashlaymiz: bu yerdagi manzara butunlay boshqacha. Bu yerda hamma narsa yovvoyi va beparvo qaralgan; o'z taqdiriga tashlab qo'yilgan. Urug'lari qayerga tushsa, daraxtlar va butalar o'sha yerda o'sadi. Zich butalar va o'simliklar tufayli ba'zi joylardan odamlar o'tolmaydi. Bo'rondan yiqilgan daraxtlar qulagan joyida chirydi. Mavjud yo'llar butunlay tasodifan shakllangan. O'rmonni tartibga solish va parvarish qilish bilan hech kim shug'ullanmaydi.

Xalqning boy qatlami men yuqorida tasvirlab bergan bog'ga o'xshaydi. Ta'lim, tarbiya, farovonlik, sog'liq, himoya va san'atdan olinadigan zavq doimo ular uchun. Xalq esa hech bolta tegmagan o'rmonga o'xshaydi. Agar uning qadr-qimmatini bilishsa, uni himoya qilishadi, faqat bu ham zarur va jonli material bo'lgani uchun qadr-

lashadi. Xuddi o'rmon va bog'dagi daraxtlar qanday ti-rik bo'lsa, xalqni tashkil qiladigan millionlab a'zolari ham kambag'al va boy insonlardir. Ular ham aqlli va iste'dodli qilib tarbiyalanishga muhtojdirlar. Xalqqa g'amxo'rlik qi-lish va millionlab odamlarning har biriga rivojlanishlari uchun imkoniyat yaratib berish kerak". Snelman xalqning asosiy qismi - ishchilar, dehqonlar va shahar aholisining har tomonlama ziyoli bo'lishini hayotining asosiy maqsadi va eng ustuvor vazifasi sifatida belgilagan va Finlandiyada ta'lim safarbarligining boshidagi insonga aylandi.

Snelman hamma joyda bu so'zlarni takrorlar edi: "Xalqimizning katta qismi ibtidoiy, johil va o'qimagan bo'lib qolishiga hech narsa qilmay, tomoshabin bo'lib tu-rish axloqsizlik va jinoyatdir. Bilimli va ma'rifatli odamning bu holatlarga befarqligi – qotillikdan farq qilmaydi. Dav-lat deb nomlangan bino, yuqori qavatlar katta derazali, baland shiftli, havodor va yorug', pastki va ombor qavat-lari esa qorong'i, nam, kichkina, derazasiz qal'a emas. Xalqning aksariyat qismini ta'limdan "qashshoqlashtirish" bir jinoyatdir. Davlatning o'zini o'zi yo'q qilishi, o'z joniga qasd qilishini anglatadi.

Insonlarning yovvoyi va kambag'al ekanliklarini, mam-lakatning boyliklaridan qanday foydalanishni bilmaslikla-ri sababli ochlikdan o'lganliklarini aytishmoqda. Biroq, mamlakatda yashovchi har bir insonning ma'naviy va mod-diy taraqqiyotiga befarq bo'lish, bu haqida bilmaslik va uni istamaslik, aslida, eng katta vahshiylikdir. Bir o'rmon-ni tasavvur qilib ko'ring: ichida eng yaxshi va eng qimmat o'n million daraxt bor. Agar hech kim o'rmonni parvarish

qilmasa, tozalamasa va himoya qilmasa, u daraxtlarning hech kimga foydasi tegmaydi. U ulug'vor daraxtlar bo'ronlar ta'sirida qulaydi, yomg'ir suvini so'rib chirydi va bu qimmatbaho o'rmon ham bir botqoqlikka aylanadi. Atrofdagi tirik mavjudotlar toza o'rmon havosi o'rniga yomon hidli havodan nafas olishga majbur qolishadi".

Snelman qa'tiy iltimos qilib takrorlardi:

– "Tushuning, iltimos, tushunib oling. Mamlakatda ishlaydigan va ishlab chiqarishga hissa qo'shadigan har bir inson qadrlidir. Bu odamlar nima yeyishini, ichishini va iste'mol qilishini hisoblang. Yaxshi yetishtirilgan va o'qimishli odamlar mamlakatga qanday hissa qo'shishi mumkinligini o'ylab ko'ring. Shuningdek, mamlakatdagi insonlarning sonini hisoblang. Agar xalqimiz yaxshi o'qitilganda edi, bu mast insonlarning har biri o'z mamlakati va xalqi uchun ishlab chiqarishga hissa qo'shadigan kerakli shaxslar bo'lar edi".

SAROY YOZUVCHISI

Snelman bu mavzu bo'yicha Yevropaga safari davomida sodir bo'lgan xotirasini aytib beradi. Berlinda taniqli avstriyalik yozuvchi bilan uchrashadi. Ushbu yozuvchi kelib chiqishi slavyan bo'lgan bo'lsa-da, kitoblarini nemis tilida yozgan. U yozgan ko'plab gazeta maqolalarida va kitoblarida Germaniya Galitsiyadagi Avstriya, Moraviyadagi chexlar va slovaklar, Vojvodinada serblar va xorvatlar ustidan hukmronlik qilishlari haqli ekanliklarini ta'kidlab, u shu mavzuda quyidagilarni yozadi:

“Slavyanlar yumshoq va ayollarga xos irqdir. Ular xayolparast, lekin she'riy xayolparastlikka ega emaslar. Ular tabiatan dangasa. Ular asrlar davomida mustamlaka tuzumida yashagani sabab ishlashni yoqtirmaydilar. Ular bezori va foydasizdirlar. Muvaffaqiyatsizlik qarshisida inson qadr-qimmatini kamsitadigan va madaniyatli yevropaliklardan nafratlanadigan qashshoqlikda va sustlikda yashashni afzal ko'rishadi. Ular muvaffaqiyatga erishganlarida, ayniqsa, ish lavozimida ko'tarilsalar, vijdonsiz, yolg'onchi, poraxo'r, ochko'z, makkor va aldamchi bo'lishni boshlaydilar. Ular qisqa vaqt ichida boyib ketishga intilishadi. Pul topgach, uni ahmoqona ishlarga sarflashadi. Ular oqilona va qattiq intizomli nemis madaniyatiga muhtoj. Slavyanlar zich va yumshoq junli, ammo hidga ega qo'y terisiga o'xshaydi. Uni tozalash uchun ularni nemis teri zavodiga berish kerak. Va keyin chiroyli va issiq mo'yna hosil bo'ladi”.

Ushbu juda aqlli bo'lgan xoin bu yozuvchi yaxshi ta'lim

olgan edi va turli xil Yevropa tillarida so'zlashardi. Yozuvi sodda, o'quvchan va hazil tarzida edi. U yozgan maqolalar va yozuvlar orasida turli davrlarda yashagan faylasuflar, tarixchilar va yozuvchilarning asarlari va so'zlaridan iqtiboslarni kiritgan. Ammo uning asarlari qadr-qimmatga ega emas edi, chunki u yozganlari uchun Avstriya davlatidan katta miqdorda pul olayotgan edi.

Yozuvchi yomon qalbli odam emas edi. U shunchaki zavq va ko'ngilxushlikdan boshini ko'tarmaydigan, ayollarni va qimor o'yinlarini yaxshi ko'radigan axloqsiz odam edi. Bunday hayotni davom ettirish uchun esa ko'p pul talab qilinardi. Yozish qobiliyati va olgan bilimlari bilan u halol mehnat qilib yaxshi daromad topishi mumkin edi, ammo buning uchun unga otashin ruh, toza fikrlar, axloq va idealizm kerak edi. Bular esa xoin yozuvchi uchun begona edi. U Avstriyadagi universitetda o'qib yurgan yillarida, mamlakatda konservativ Metternich siyosiy hukmronlik davri edi.

Metternich - Vizantiyadagi oddiy saroy ishchisidan, Yevropada vazir darajasiga ko'tarilgan bir qari saroy tulkisi edi. O'zining zolim va repressiv siyosati bilan boyligiga boyluk qo'shdi va hiyla-nayrang rejasi bilan yevropaliklarning axloqini buzdi. U odamlarni o'z tomoniga jalb qilishning yagona usulini bilar edi – pora berardi. Metternichning har biri poraxo'rlik bo'yicha mutaxassislashgan amaldorlari bor edi. Ular kimni nima bilan va qanday qilib sotib olish mumkinligini o'rganib chiqishardi. Metternich davrida pora olish va oson yo'ldan pul topish uchun hamma narsani qilish go'yoki bir dinga aylangandi.

Jamiyatda axloqiy kislorod qolmagandi. Ziyoli insonlarning aksariyati, Metternich tomonidan olib borilgan siyosat natijasida zaharlandi. Balandlikka ishtiyoqmand yoshlar ham pastga tushishdi, ya'ni ular hech qanday g'oyasiz va idealsiz o'sishdi.

Bizning maddoh yozuvchimiz shunday muhitda ulg'aygan va axloqiy tuyg'ularini yo'qotgandi. U idealistik urinishlar va xatti-harakatlarni kulgili, sun'iy deb hisoblardi. U Shiller singari hayotda go'zallik va to'g'rilikni izlayotganlarga hayron bo'lardi. Ko'p yillar davomida bu maddoh ko'ppak faylasufga aylandi. Germaniyaning foydasi uchun slavyanlarga hujum qilishdan deyarli xursand bo'lardi. O'zini himoya qilish uchun "Men juda yaxshi yozaman. Nemislar ham menga yaxshi pul berishyapti", – der va qilayotgan ishlarini axloqiy deb hisoblardi. Undan g'azablangan slavyan millatchilariga: "Mendan nima istaysiz? Florensiya va Venetsiyada ikki italiyalik haykaltarosh Donatello¹ va Verrocchio² tomonidan yaratilgan haykallarni ko'rmadingizmi? Florensiya va Venetsiya shaharlari bu haykallarni yollanma askarlarning boshida turgan qo'mondonlar uchun o'rnatgan. Bu ikki shahar qo'mondonlarga yaxshi pul bergan va ular ham o'zlarining xo'jayinlari oldidagi vazifalarini to'g'ri bajarishgan. Agar Milan, Genuya,

¹ Donato di Niccolo di Betto Bardi, qisqacha Donatello. 1386-yilda tug'ilgan va 1466-yil 13-dekabrda vafot etgan. Florensiya Uyg'onish davri haykaltaroshi. U san'at tarixidagi eng muhim rassomlardan biridir.

² Andrea del Verrocchio – taxminan 1435-1488 – Florensiyalik nufuzli Lorenzo de Medici homiyligida ishlaydigan haykaltarosh, zargar va rassom. U Donatellodan haykaltaroshlik va Baldovinettidan rasm darslarini oldi. Uning shogirdlari orasida Leonardo da Vinchi, Pietro Perugino, Domenico Girlandai va Sandro Botticelli bor.

Pisa, Verona yoki Rim shaharlari ushbu qo'mondonlarga ko'proq pul berishganda edi, ularning xizmatlariga kirib, Venetsiya va Florensiyada bo'lgani kabi o'sha shaharlar uchun qahramonona kurashgan bo'lishardi. Men ham adabiyot sohasida o'sha qo'mondonlarga o'xshayman. Menga nemislar berganidan ko'proq pul bering va men sizlar uchun kurashaman. Agar buni uddalay olmasangiz yoki xohlamasangiz, mening hujumlarimga chidashingiz va o'zingizni himoya qilishingiz kerak bo'ladi. Men kuchli raqiblar bilan kurashishni yaxshi ko'radigan odamman".

Snelman Berlindalik vaqtida bu maddoh yozuvchiga duch kelgandi. U Finlandiyada yashaganligi sababli hech bu yozuvchining asarini o'qimagan, ismini ham eshitmagan. Berlinda biri fin, ikkinchisi slavyan bo'lgan ikkita muhim mehmon sharafiga nemislar aytganidek "Kulturt-raeger" (madaniyat tashuvchi) ziyofati bo'lib o'tdi. Ziyofatdan so'ng taklif etilganlar asta-sekin kamayib boshlaganida Snelman madaniyat tashuvchisi deb hisoblangan yozuvchini burchakka tortdi va qoloq mamlakatlar bilan nima qilish kerakligi haqida o'z fikrlarini bildirdi: "Keling, realist bo'laylik. Nemislar finlarni ham, slavyanlarni ham aslida yoqtirishmaydi. Ular bu borada o'tmish uchun haqli bo'lishlari mumkin, lekin kelajak uchun to'g'ri emas. Biz finlar va siz slavyanlar kelajakning buyuk kuchlarimiz. Nemis yerlari zaiflasha boshladi, bizning yerlarimiz hali ham unumdor va serhosil. Biroq, bu tuproqlarning ustida ishlashimiz kerak. Biz yosh davlatlar nemislar, fransuzlar, inglizlarga qaraganda ikki yoki uch, hatto, o'n baravar ko'p ishlashimiz kerak, ularni quvib yetib, so'ngra ularni

ortda qoldirishimiz kerak. Biz ulardan, albatta, o'tib ketamiz. Chunki biz faqat shahar aholisini ma'rifat bilan ta'minlamayapmiz. Biz qishloqlarda faqat boshlang'ich maktablar qurish bilan kifoyalanmaymiz, hech bir qishloqni maktab va kutubxonalarsiz qoldirmaymiz. Har bir qishloq aholisini, baliqchilarni va qolgan oilalarni bilim nuri bilan yoritamiz. Yosh bolalardan yangi, kuchli, bilimli va mehnatsevar avlodni tarbiyalaymiz”.

Snelman qarshisidagi insonni ma'rifatli slavyan deb taxmin qilib, bu mavzuda uzoq gapirgan, avstriyalik mad-doh yozuvchi esa masxarali nigohlari bilan unga qarab, “Mana yana bitta ahmoq”, degan va Snelmandan xalos bo'lish uchun imkoniyat qidira boshlagandi. Ammo keyin, Snelmanning otashin holati va so'zlari yuragidagi muzni eritib yubordi va bir shisha konyak so'rab, katta stakan bilan ichishni boshladi. Snelman o'z nutqiga berilib ketganidan yozuvchi konyakni tugatganini ham sezmadi. Avstriyalik yozuvchi mast holatda o'rnidan turib, Snelmanga:

– Janob Snelman, yetadi shunchasi. Yuragingizdagi muqaddas olovni bu qadar behuda sarflamang va u olovni vatanningiz uchun saqlang. Siz baxtli odamsiz. Siz kabi insonlari borligi uchun millatingiz ham baxtli. Siz ertaga ketasiz. Juda yaxshi. Siz bilan bu yerda birinchi marta uchrashdim. Oldin na men sizni tanimas edim, siz ham meni tanimas edingiz. Bu juda yaxshi, ya'ni meni tanimaganingiz yaxshi bo'libdi. Hali ham mening kimligimni bilmabsiz, ammo siz bilan uchrashish men uchun yaxshi yoki yomon bo'lganini bilmayman. Hurmatli Snelman, bu qadar to'satdan yo'limga qayerdan chiqdingiz? Nega sizga buncha kech duch keldim? – dedi.

Shu vaqtda soat tungi o'n ikkiga bong urdi. Soat to-vushini eshitgan Snelman:

– Kech bo'libdi juda ham, – dedi. Avstriyalik esa:

– Haqiqatan ham, vaqt kech bo'ldi, lekin kech bo'lgan bugungi tundagi vaqt emas, kechikkan vaqt, aslida, mening hayotimdagi vaqt... Koshki men, siz Snelman bi-lan yoshligimda uchrashganimda edi. Balki men butunlay boshqa odam bo'lardim. Snelman bilan uchrashgandan keyin men bilan birga o'sgan avlod ham butunlay boshqa avlod bo'lar edi. Ammo g'isht qolipdan ko'chdi. Vaqt kech bo'ldi; Endi uxlashga ketaylik. Hurmatli Snelman, ikkimiz oramizda g'alati munosabat uzilishi bor. Iltimos, qo'lingizni bering.

Ushbu taklifga ko'ra, Snelman unga qo'lini uzatdi va avstriyalik uni o'pdi. Snelman qo'lini tortib:

– Nima qilyapsiz? – degan vaqtda avstriyalik:

– Siz yaxshisi meni o'z holimcha qoldiring. Men sizning qo'lingizni emas, balki har bir halol odamning yuragida-gi Snelmanning qo'lini, o'z ichimda ko'milgan qalbimni o'pmoqdaman, – deb javob bergan edi.

Snelman:

– Men sizning so'zlaringizdan hech narsani tushun-mayapman, – deganida, avstriyalik:

– Tushunishingizga hojat yo'q. Siz meni ichimdagi slavyan ruhimning fazilatlarini deyarli tushunolmaysiz, – deb javob berdi.

Ertasi kuni Finlandiyaga qaytgan Snelman ikki-uch hafta o'tgach, imzosiz besh qatorli xat oldi. Xatda shunday yozilgan edi:

“Siz mening ruhimni ostin-ustun qildingiz. Men endi

bu hayotga toqat qilolmayman. Bugungi kunga qadar yashagan tarzimdanda jirkanaman. Hayotimni xuddi baxtsiz hodisa kabi tugataman”.

Snelman xatini taniy olmadi va xabardan hech narsani tushunolmadi. Soʻnggi bir oyda nashr etilgan Vena gazetalari koʻrib chiqqach, u quyidagi yangiliklarni koʻrdi:

“Juda qaygʻuli baxtsiz hodisa, katta yoʻqotish: mashhur slavyan yozuvchisi, qoʻrqmas, mutafakkir ehtiyotsizlik natijasida oʻzini qattiq jarohatlagan va uch soatdan keyin hayotdan koʻz yumgan”.

Snelman ushbu yangilikni oʻqib boʻlgach surishtiruvlar olib borgan va baxtsiz hodisa tufayli oʻlgan kishining Berlinida qoʻlini oʻpib, “Siz yaxshisi meni oʻz holimcha qoldiring. Men sizning qoʻlingizni emas, balki har bir halol odamning yuragidagi Snelmanning qoʻlini, oʻz ichimda koʻmilgan qalbimni oʻpmoqdaman”, degan slavyan yozuvchisi ekanligini oʻrgangandi.

Snelman ushbu xotirani doʻstlariga aytib berganda, ular unga:

– Bu yozuvchi chexmi, polyakmi, bolgarmi, serbmi, xorvatmi, qaysi millatdan? Ismi nima? – deb qatʼiylik bilan soʻradilar. Snelman:

– Befoyda urinyapsiz. Qaysi millat ekanligining nima ahamiyati bor? U odam katta xatoga yoʻl qoʻydi va jazosini oʻziga oʻzi beribdi. Oʻz qoʻli bilan oʻz mavjudligini tugatdi. Nima uchun uning ismini yana bir bor eslashimiz kerak?

Bu yerda bir muhim narsa bor. Shuni oʻylab koʻraylik: iqtidorli odam, juda aqlli, boy va noyob bilim xotirasi, yorqin adabiy mahorati va natijasi qanday? Koʻngilxush-

liklarga o'ch va berilgan, qimorboz, isrofgar, hirsiga qul, o'z qalamini sotgan va xalqiga xiyonat qilgan bir axloqsiz odam. Ammo, agar u kerakli ta'limni olganda edi, yoshligida hayotini behuda sarflashdan ko'ra, odamlarning aql-zakovati va qalbini yoritish juda yoqimli tuyg'u ekanligini tushunib, sivilizatsiya quruvchisiga aylanishi mumkin edi.

U universitetni tugatib, olim va yozuvchiga aylandi, poytaxtda katta bo'lgan. Agar bunday bir odam bo'lmagan bo'lsa, maktablari, kutubxonalari bo'lmagan va hayotini yana-da chiroyli, baxtli va tartibli qilish uchun nima qilish kerakligi haqida hech qanday ma'lumotga ega bo'lmagan joyda o'sadigan oddiy odamlardan nimani kutish mumkin? Millionlab odamlar jismoniy, ma'naviy, aqliy va axloqiy jihatdan chirigan bo'lsalar-da, bu chiriganlikni hech kim ko'rmaydi. Go'yo har kimning fe'l-atvori buzilgan yoki hamma bu buzuvchilikka o'rganib qolgani kabi, buni juda oddiy holat deb o'ylaydi. Ammo shunday bo'lishi kerakmi? Millionlab odamlar azobda tug'ilib, yashaydilar va o'ladilar. Ammo shunday bo'lishi kerakmi? Ularning orasida juda ko'p aqlli odamlar bo'lsa ham, millionlab odamlar qatorida aqlsiz hayvonlardan farq qilmay yashamoqda. Millionlab birodarlaringiz qo'pol, shafqatsiz va beparvo bo'lib qolgan. Ammo shunday bo'lishi kerakmi? "Ha shunday bo'lishi kerak" deb yuzlab marta takrorlanadigan jirkanch so'zlardan uyalmaysizmi?

Snelmanning nutqlari yuksak ilhom manbai bo'layotgan, uning ogohlantirishlari va maslahatlari eng sust va dangasa onglarni uyg'otib, qalblarga olov va quvvat

bag'ishlayotgandi. Shifokorlar, qishloq rohiblari, boshlang'ich sinf o'qituvchilari, davlat xizmatchilari mamlakatning turli mintaqalarida jamiyatning turli qatlamlari hayotini o'rganishni boshladilar. Xalq qanday yashashi haqida maqolalar gazeta, jurnallarda va turli xil kitoblarda nashr etila boshlandi. Ayniqsa, ikkita kitob ko'proq e'tiborni tortdi. Ular orasida "Bir qishloq shifokori xotiralari" kitobi o'quvchilar e'tiborini tortdi. Bu kitob matbuot dunyosida bir bo'ronni hosil qildi. Ba'zilar bu kitobni juda yoqtirganlarini aytib, uni ulug'laydilar va: "Xalq uchun yuragida o'ti borlar va o'qish-yozishni biladigan har bir kishi bu kitobni, albatta, o'qishi kerak. Ushbu kitob ko'zi ojizlarning ko'zlarini ochadi, ruhi hali qorayib ulgurmaganlar esa bu kitoblarni o'qib, yer bilan bir bo'lib uyaladi", – deyishardi. Boshqalar esa bu kitobdan qattiq g'azablandilar va muallifni tanqid qilishdi. Ularning tanqidlari quyidagicha edi: "Ushbu kitob finlar uchun haqoratli va yerga uradigan yolg'onlarga to'la. Aytilgan hamma narsa juda oshirilib, mazax qilingan".

U kitob haqidagi birinchi tanqid juda o'rinli bo'lgan. Ko'p shov-shuv ko'targanlarning aksariyati millat tushunchasini noto'g'ri tushunib, "millat ichida yomon narsalari bo'lsa ham, sir tutilishi kerak", – deydigan insonlardir. Ular cho'ldagi tuyaqushlar singari, xavfni ko'rmaslik uchun boshlarini qumga ko'mishadi va boshlarini tashqariga olib chiqqanda g'azablanadilar. Ushbu kitobni yozgan shifokor bor kuchi bilan Finlandiyaning yuqori amaldorlariga baqirardi: "Uyg'oning! Fuqarolaringizni qutqarish uchun ishga kirishing. Xalqimizning 75 foizi dahshatli sharoitda yashay-

di. Bizning dehqonlarimiz va ishchilarimiz o'lim bilan kurashmoqda, ular ma'naviy va jismoniy jihatdan cho'kmoqdalar!”

Fikrlash doirasi keng yozuvchi bo'lgan shifokor, o'z kito-bida uydirma narsalarni yozmagan yoki odamlarni g'azab-lantirmaslik uchun voqealarga bir tomonlama fikr bildirma-gan. U faqat o'zi yashagan tumandagi odamlarning hayoti-ni kuzatib borgan va ko'rganlarini hech narsa qo'shmasdan yozdi. Dahshatga soladigan haqiqatlarni o'qiganlar: “Biz qanday qilib bir yarim million aka-uka va opa-singillarimiz-ning bunday hayotda yashashlariga qo'yib berdik? Biz bu-ning javobgari va jinoyat sherigimiz”, – deyishdi. Kitobni o'qiyotganda dahshatga tushgan boshqalar: “Bu odamlar bunday yashashga qanday toqat qiladi? Ular aziz insonlar-mi yoki ikki oyoqli hayvonlarmi? Ular yashayotgan bu hayot Dantening “Jahannam”ida tasvirlangan hayotdan ancha yomonroq. U yerda odamlar gunohlari uchun azob cheki-shayotgandi. Xo'sh, bizning mamlakatimizda yashovchi bu odamlarning gunohi nimada? Axir, Dantening “Jahannam”i keltirilgan “Ilohiy komediya” asari mohir o'ylab topilgan ro-man ekan. Bu asarda qahrli taqdir, achchiq haqiqat va shar-mandali jirkanchlik mavjud”.

O'ZINING HAYOTINI XALQ SOG'LIQ'INI ASRASH UCHUN BAG'ISHLAGAN DOKTOR

“Bir qishloq shifokori xotiralari” kitobining muallifi ish boshlagan birinchi kundan boshlab kundalik tutar va tibbiyot bilim yurtini qanday tugatganligini, tayinlangan hududga qanday maqsadlarda borganligini yozib borardi. Taqdir unga yordamchi bo'lmagan, uning bolaligi va yoshligi qashshoqlikda o'tgan edi. Uning otasi kichkina shaharchada ishlaydigan kambag'al poyabzalchi edi. Hammaning ham omadli bo'lmasligini bilsa-da, u vrach sifatida ishlagan vaqtida ko'rganlaridan dahshatga tushgandi. Dahshatli bir tush ko'rmoqdaman, deb o'ylardi. Uning birinchi taassurotlari odamlarning g'orlarda yashagan davri ni eslatdi va u: “Men mamlakatning eng yomon qismiga tushib qoldimmi?”, – deb o'ylay boshladi. U qishloqlar va tumanlar atrofida aylanib yurishni boshlaganida, u yerda ham shunday holatlarga duch kelgach, u hatto, ba'zi joylarda vaziyat u ishlagan joydan ham yomonroq va halokatlilik ekanligini ko'rdi.

Odamlar toshloq joylarda, bir-birining ustiga toshlardan terilib yasalgan uylarda yashar edilar. Uylarning eshiklari past, derazalari yo'q edi. Eshiklarning ramkalari ingichka va ochiq edi, shuning uchun qor va shamol kirib, yomg'irli ob-havoda tomchilar oqar edi. Derazalarida oyna bo'lgan uylar juda kam edi. Deraza vazifasini bajaradigan kichik teshiklarga yog' o'tkazmaydigan qog'oz yopishtirilgan yoki latta mixlangan edi. Ular kamdan-kam hollarda

ingichka teri bilan qoplangandi. Keng ochilgan deraza teshiklari ham bor edi. Xonalarning bir burchagida toshdan va tuproqdan yasalgan pechka bor edi va olov yoqilganda ichkarini tutun qoplar, ichkaridagi odamlar ko'z yoshlari bilan ust-boshlari is bo'lar va tutun shiftdagi kichik teshikdan asta-sekin chiqib ketar edi. Dehqonlar har doim bir xil kiyimda ishlar, ovqatlanar va uxlardilar. Insonlar yillar davomida cho'milishga qodir emasdilar. Kir yuvish odatlari ham yo'q edi. Ularning ust-boshlari bitlar, burgalar va boshqa hasharotlarga to'la edi. Dehqonlar traxoma¹ kasalligidan juda aziyat chekishar va noqulay sharoitlar tufayli sovuqdan sil kasalligiga chalinar edi.

Suv quduqlari hojatxonaning yonginasida edi. Suvlar ifloslanganligi sababli bolalar orasida tif, diareya, difteriya, skarlatina va chechak keng tarqalgandi. Minglab bolalar juda kichik yoshidan vafot etardi. Xalq parishon holatda edi va to'yib ovqatlana olmasdi. Butun bu salbiy holatlardan tashqari, finlar mast bo'lguncha spirtli ichimliklar ichishardi. Xalq orasida karlar, soqovlar, ko'rlar, cho'loqlar, kambag'allar, nogironlar va aqli zaif odamlar soni juda ko'p miqdorda edi. Kitobni yozgan shifokor bir qishloqni quyidagicha ta'riflaydi:

“Qishloqqa kirganingizda hayratda qolasiz. Bu man-

¹ Traxoma – ko'z kasalliklarining turi, odatda, surunkali bo'lib, kon'yunktiva, shox parda va ko'z qovoqlarini o'z ichiga oladi; ko'zning pufakchalari va kornea yostig'ining paydo bo'lishiga va odatdagi chandiqlik shikastlanishlariga sabab bo'ladi. Ushbu kasallikni keltirib chiqaradigan mikroblar Chlamydia traxomatisidir. Traxoma yuqishida uy chivinlari muhim rol o'ynaydi. Bemorning yuziga tushgan chivinlar sog'lom odamlarga xlamidiya tashish orqali kasallik keltirib chiqaradi.

zaraga guvoh bo'lganlar o'zidan, atrofidan, jamiyatdan, sivilizatsiya deb nomlangan narsadan uyalishadi. Bu yerlardan uzoq va boy joylarda teatrlar, konsertlar, yozuvchilar, rassomlar, parlament, bozorlar, fanlar akademiyalari, universitetlar, kasalxonalar mavjud. Bu yerda yashovchi odamlar esa jahannam kabi bir hayot yashamoqdalar.

Xohlagan bir qishloq uyiga kiring: uch bola quruq tuproq ustida qizilcha kasalligidan yotgan bo'ladi. Onalari tug'moqchi bo'lgan bolasining og'riqlari bilan qiynalmoqda. Mast ota esa bir chekkada o'tiribdi. Undan: "Uyingizda shuncha falokat yuz berayotganda mast bo'lib o'tirishdan uyalmaysizmi?" deb so'ramoqchi bo'lsangiz, sizga: "Sen ham bu yerda yashab ko'r. Nafaqat mast bo'lasan, balki ichkilik ichiga g'arq bo'lasan. Hushyor holda hayotimizga chidab bo'lmaydi!" deb javob beradi.

Boshqa kulbada, qashshoqlikning yana bir ko'rinishi: Ona sil kasalligining so'nggi bosqichida; u qon tupurmoqda va boshini yostiqdan ko'tarolmaydi. Otada tif bor va yuqori isitma ta'sirida hushida emas. Ikkalasi ham polda lattaga o'xshash matraslarda yotishibdi. To'shak yo'q. Ikkalasining o'rtasida biri bir yoshda va boshqasi ikki yoshda bo'lgan ikkita bola yotadi. Ikkalasining ham suyaklarini sanasa bo'ladi. Qo'shnilarning hech biri kasallarga g'amxo'rlik qilishni xohlamaydi. Ular bu holatga o'rganib qolishgan. Uydagi hamma o'z dardi bilan o'zi kurashadi. Bir mintaqada chechak va tif epidemiyasi bo'lsa, davlat u yerga ikki yoki uchta shifokorni yuboradi. Odamlar esa bu holatdan g'azablanib:-

– Nega bu ukollarni qilyapsiz? Bolalarni davolamang;

qo'ying ular o'laversin. Shunday qilib och odamlar soni kamayadi. Siz bizlarni, kattalarni davolang, – deyishadi.

Davolanish va yordam olish uchun deyarli har bir uydan kelishadi. Ba'zilarida sifiliz yarasi yoki qoraqo'tir, ba'zilarining ko'zlarida yiring bor, ba'zilarida saraton kasalligi bor. O'sha paytda odam umidsizlikka tushib, pessimist bo'lib qoladi va charchoq tufayli befarqlik paydo bo'ladi. Tug'gan ayolning yonidagi mast er aytganidek, odamning yo mast bo'lgisi yoki ichkilikka cho'kib o'lgisi keladi”.

Ushbu kuzatuvlarni o'tkazgan shifokor shaharlarda yashovchi odamlarga, davlat arboblarga, siyosatchilarga, ilm-fan, san'at va matbuot xodimlariga qarab shuni aytmoqda:

“Janoblar! Qachongacha bekinmachoq o'yinini o'ynashni davom ettirasiz? Siz doimo vatanparvarlik, xalqni sevish, sivilizatsiyaga xizmat qilish haqida gapirasiz, lekin siz xalq uchun, vatan uchun, sivilizatsiya uchun nima qilyapsiz? Ba'zilar noqonuniy ishlarni bajarish orqali millionlab daromad olishmoqda va mamlakatimizni nomussizlarcha talon-taroj qilmoqda, ularning ba'zilari esa bosmaxonalarda, maktablarda, universitetlarda davlat xizmatchisi bo'lib ishlashadi. Boshqa tomonda esa millionlarcha inson chirimoqda, buzilmoqda, ichkilikka berilmoqda, hayvonga aylanmoqda. Millatning asoslari qulab tushmoqda. Hali ham vaqt bor ekan, mamlakatni va xalqni qutqaring; odamlar orasiga kirib, ularni davolab, o'qiting va tarbiyalang. Qanday qilib uy qurishni, uyni qanday tashkil qilishni o'rgating. Xalqni sog'lom, toza, salqin, quyosh nurlari tushadigan, namsiz va iliq uylar bi-

lan ta'minlang. Ularga qanday inson kabi yashashni o'rgatib; Inson kabi yashash uchun imkoniyatlar yaratib, ularga yordam bering".

Doktor kitobining oxiriga kelib, shunday deb yozgan edi:

"Davlat – bu katta oila. Uning a'zolari sizning birodarlaringizdir. Kambag'allarning kamchiliklari qisman yuqori qatlamning e'tiborsizligi va beparvoligidan kelib chiqadi".

Adabiy davralarda shifokor tomonidan yozilgan kitob haqida ko'plab munozaralar bo'lib o'tdi, ammo ijtimoiy doiralarda kitob kerakli qiziqishni uyg'otish orqali o'z maqsadiga erishdi. Ushbu kitob Finlandiyaning barcha Sog'liqni saqlash muassasalarida bu kitob har bir satri o'qib, o'rganildi. Mamlakatning barcha ma'muriy markazlarida amaldorlar va davlat xizmatchilari ushbu kitobda ko'tarilgan masalalarni o'rganish va yo'l qo'yilgan xatolar, salbiy holatlar va muammolarni bartaraf etish choralari ni ko'rish uchun yig'ilishlar o'tkazdilar. Konferensiyalar o'tkazildi va ushbu mavzu bo'yicha hamma joyda yangi hujjatlar to'plandi. Ilgari aytishdan ham qo'rqiladigan va e'tiborga olinmaydigan ushbu halokatli vaziyatni hamma ko'rdi va tushundi. Odamlar partiyadagi mojarolarni, shaxsiy manfaatlarni, fitnalarni bir chetga surib, odamlar sog'ligini qanday himoya qilish kerakligi haqida bosh qotira boshladilar. Mamlakatda sil kasalligi bilan kasallanganlar soni va ushbu kasallikdan vafot etganlar soni, tifo, traxoma bilan kasallanganlar, qarovsiz va kam ovqatlanishdan vafot etgan bolalar, tish og'rig'idan azob chekkan va jarohat olganlar soni aniqlandi. Bundan tashqari, alko-

golli ichimliklar uchun sarflangan pullar hisoblab chiqildi va ichkilikbozlik tufayli sodir bo'ladigan jarohatlar, qotilliklar, yong'inlar va o'g'riliklar aniqlandi. Natija barchani dahshatga soldi. Chunki bu raqamlar, xuddi, bolg'a singari odamlarni boshiga tushib, hammada bu yomon ahvolni tuzatish xohishi paydo bo'ldi. Hukumat, mahalliy hokimiyat va idoralar, shifokorlardan tashkil topgan bir tibbiy armiyani tuzdilar. Stomatologlar, pediatrlar va ginekologlar kasalliklarni davolash bilan butun mamlakat bo'ylab sayohat qildilar va ko'zni, quloq va tishlarni qanday himoya qilishni, onalar salomatligi va bolalarni parvarish qilishni o'rgatishdi. Ular bolani boqish uchun sarf-xarajatlarni hisoblab chiqardilar va qarovsiz qolgani oqibatida qancha bola vafot etganini jamoatchilikka aytib berishardi. Qishloqliklar asta-sekin inson hayotining iqtisodiy qiymatini tushuna boshladilar. Shifokorlar qishloq aholisiga:

“Siz pullaringizni o'g'irlab ketilmasligi yoki yonib ketmasligi uchun yashirib qo'yasiz. Farzandlaringiz, turmush o'rtog'ingiz va o'zingiz puldan ham qadrliroqsiz. Siz jonli pulsiz. Ushbu sarmoyani yaxshi muhofaza qiling, isrof qilmang va ko'paytiring”, – deyishardi.

Ko'pgina qishloqlarda misol tariqasida ikkita katta derazali uy qurilib, ichiga pechka o'rnatildi. Qishloqlarda ishchilar guruhlarini tuzilib, ular dehqonlar uchun juda arzon narxlarda uylar qurdilar. Hukumat ko'plab joylarda omborlar tashkil etdi, u yerda qurilish uchun zarur bo'lgan materiallarni saqladi. Ushbu omborlardan dehqonlar va qishloq kooperativlari juda qulay shartlarda taxta, yog'och, qulf, ilmoq, oyna, tayyor ramkalar va eshiklar

kabi narsalar, mebel va maxsus pollarni sotib olish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

20 yil ichida mamlakatdagi qishloqlarning shakli o'zgardi. Uylar og'ir holatidan chiqib, madaniyatli insonlar yashaydigan joyga aylandi. Dehqonlar o'zlarini isitadigan yaxshiroq kiyimlarni kiyishni boshladilar. Butun mamlakat bo'ylab kiyim-kechak va poyabzal ishlab chiqaradigan ustaxonalar tashkil etildi. Sifatli materiallardan foydalanган holda ishlab chiqarilgan kiyim-kechak, ichki kiyim va poyabzal aholiga juda arzon narxlarda sotila boshlandi. Yangi kiyim kiyganlar go'yo bayramona muhitni boshdan kechirdilar. Yamalgan va yirtiq ko'ylaklar g'oyib bo'ldi, chiroyli kiyingan odamlar paydo bo'ldi. Yozda yalang'och yurgan odamlar g'oyib bo'ldi. Sovuq qotishdan kelib chiqadigan kasalliklarga chek qo'yildi, sil kasalligi bilan kasallanganlar soni ikki baravarga qisqardi. Ko'pgina kasalliklar yo'qoldi. Bolalar o'limi kamayib borishi bilan traxoma yo'q qilindi. Ko'p joylarda jamoat, hatto, bunday kasallik mavjudligini ham unutdi. Sog'lom bir hayot ichida tug'ilish ko'payib, sog'lom bolalar tug'ildi. Bolalar sog'lom va quvnoq bo'lib o'sishni boshladilar. Mamlakatda ishlab chiqarishda ishtirok etuvchilar ko'paydi. Odamlar ko'proq pul ishlagani uchun yaxshiroq ovqatlanishni boshladilar. Va oxiri, ushbu sog'liq safarbarligi boshlanishiga sababchi bo'lgan shifokor vafot etdi. "O'zining hayotini xalqning sog'lig'ini asrash uchun bag'ishlagan doktor" vafoti mamlakatda katta qayg'uga sabab bo'ldi. Dafn marosimiga mamlakatning barcha hududlaridan yuzlab qishloq vakillari tashrif buyurishdi. Qishloq aholisi o'zlarining vakil-

larini eng baquvvat, kuchli va sog'lom yoshlar qatoridan tanladilar. Bu yoshlar shifokorning tobutini yelkalariga ko'tarishdi. Shahar ko'chalaridan tartibli safda o'tayotgan bu baquvvat yoshlarni ko'rganlar, ularni sayr qilayotgan qarag'ay o'rmoniga qiyoslardilar. Darhaqiqat, har bir yigit katta baquvvat qarag'ayga o'xshar edi.

Qabristonga kelishganda o'sha yerdagi yigitlardan biri tobut yoniga kelib, quyidagi so'zlarni aytdi:

“Biz sizni qabringiz boshiga mamlakatning turli qishloqlaridan kelganmiz. Ammo biz dafn marosimida odatlangan gulchambar va gullarni olib kelmadik. Bizning qishloqdoshlarimiz bizni tanladilar va bizni Finlandiyada siz yaratgan noyob bog'ingiz gullaridan namuna sifatida bu yerga jo'natishdi. Xalqimizning buyuk bog'boni, abadiy makoningizda xotirjam yoting. Biz siz qilgan bu xayrli ishingizni ulug'laymiz. Siz xalq shifokori edingiz. Siz yuz minglab dehqonlarni davoladingiz. Siz bu odamlarning tomirlariga yangi va toza qon quydingiz. Siz mushaklarimizni arqon singari burab qo'ydingiz. Siz vatanimizga yangi qahramonlarni yetishtirdingiz. Bizga sog'lom ishlash zavqini berdingiz.

Ular sizning haykalingizni o'rnatishmoqchi. Siz haqiqatan ham bunga loyiqsiz. Ammo biz sizning eng chiroyli haykalingizimiz. Biz yangi jamiyatning mahsulimiz. O'zimiz ham ushbu yangi hayotning quruvchilarimiz. Erkak yoki ayol bo'lsin, biz hammamiz fin ziyolilarining mamlakat uchun qanday ishlashi kerakligini ko'rsatadigan tirik haykallarmiz. Siz borligingizdan qancha vaqt o'tgan bo'lsa ham, xotirangiz siz tiklagan bu odamlarning qalbida vaqt o'tgani sari

iliqroq va yorqinroq bo'lib boraveradi. Siz na Sezar, na Napoleon edingiz... Siz bir qarich yerni ham egallamadingiz. Siz hech qachon qon to'kmagansiz. Ammo siz mamlakatimizga minglab yangi, mustahkam, kuchli va mehnatsevar qo'llarni tuhfa qildingiz. Millat salomatligi uchun kurashgan buyuk qahramonning shon-sharafi abadiy bo'lsin!"

MUNDARIJA

Tarjimondan	3
Muallif haqida	5
Soʻzlari	11
Johan Vilhelm Snelman	14
Finlandiya.....	16
Helsinki	18
Dunyodagi eng ajoyib taʼlim	20
tizimiga ega Finlandiya	20
PASI SAHLBERG.....	21
Barchaga teng, bepul taʼlim	29
Taʼlim – kichik bir mamlakatning kafolatidir.....	31
Global muammolarni taʼlim bilan hal qilish	32
Oʻyin va tarbiya bolalarni maktabga tayyorlaydi	34
Oʻqituvchilar malakasini oshirish – sifatli oʻqitish garovi	36
Standartlashtirilgan taʼlim maqsadlari	38
Finlandiya taʼlim tizimi tubdan oʻzgarmoqda	39
Yangi Finlandiya yondashuvi aynan qanday?.....	43
Finlandiyada uysizlar yoʻq.....	44
Bolalar qutisi – bolalarning himoya qalqoni	47
Finlandiya nega baxtli davlat?.....	49
Finlandiyada Internet	51
Oʻzbekiston va Finlandiya taʼlimidagi 13 farq	53

OQ NILUFARLAR YURTIDA

Tarixdan ibrat	58
Qahramonlar va xalq	61
Ikuynen Taystelu (Cheksiz kurash).....	68
Suomi.....	86
Johan Vilhelm Snelman	89
Din odamlari – ruhoniylar.....	94
Finlandiya maʼmuriyati	100

Kazarmalar	104
Futbol.....	115
Ota-onalar va bolalar.....	124
Xalq universiteti	130
Xalq universitetining 25 yilligi va savdogar Jarvinenning nutqi	132
Qaroqchi Johan Karokep.....	135
Qishloqliklar, ishchilar va savdogarlar	165
Saroy yozuvchisi	170
O'zining hayotini xalq sog'ligini asrash uchun bag'ishlagan doktor	180

**Kitobning mualliflik huquqi
“Azbo.uz” internet do‘konining
“Azbobooks” loyihasiga tegishli
bo‘lib, “Azbobooks” ruxsatisiz kitobni
ushbu shaklda chop etish, tarqatish
O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga
binoan taqiqlanadi.**

Adabiy-badiiy nashr
Grigoriy Petrov

OQ NILUFARLAR YURTIDA

**Inglizchadan
Niyat Sultonmurodov**

tarjimasi

Muharrir:

Asadullo SHUKUROV

Musahhih:

Dilorom HOTAMOVA

Texnik muharrir:

Nodira ATAXANOVA

Sahifalovchi dizayner:

Sohibjamol KATTAYEVA

Dizayner:

Asliddin ABDUJABBOROV

Bosishga 2021-yil 25-avgustda ruxsat etildi.

Bichimi: 84/108_{1/32} «Calibri» garniturasida
ofset usulida ofset qog'ozida bosildi.

12 shart. b.t. hisob nashr. tab.

Adadi 3000 nusxa. Buyurtma № 08/21

«Factor Press» nashriyotida tayyorlandi

«Reliable Print» MChJ bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent sh., Yakkasaroy tumani, Qushbegi ko'chasi 6-uy

